

B9  
R-19

BOGOMIL RAYNOV

# MENING NOMA'LUM

# *Sohibjamolim*



JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN







84  
R-19

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**BOGOMIL RAYNOV**

**MENING NOMA'LUM  
SOHIBJAMOLIM**

*Qissa va hikoyalari*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
**2020**

UO'K: 821.163.2-3

KBK 84(4Bol)

R 19

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Z.A'LAM, U.OTAXONOV**

**Raynov, Bogomil.**

R 19      **Mening noma'lum sohibjamolim.** [Matn]: qissa / Bogomil Raynov; tarjimonlar: Z. A'lam, U. Otaxonov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6340-1-5

Bolgar yozuvchisi va shoiri Bogomil Raynovning „Mening noma'lum sohibjamolim“ asari muhabbat haqida hikoya qiladi. Muallif bu asarida g'arb jamiyatining muhabbat haqidagi qarashlari, intilishlari, kamchiliklarini ochib bergan.

O'z muhabbati uchun uzoq kurashgan, ammo sevganiga yetisholmagan yigit taqdiridan hikoya qiluvchi bu kitob, o'ylaymizki, sizga manzur bo'ladi.

UO'K: 821.163.2-3  
KBK 84(4Bol)

ISBN 978-9943-6340-1-5

2100/4

INVENTAR N 342 REOMA AKSY

© Z. A'lam, U. Otaxonov. (tarj.).  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOT DAN

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyatini, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyatini, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayı nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishta yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyatini, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladı. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jiddlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarları bilan birga, S. King, U. Folker, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimi, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvoqiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adapbiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adapbiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## MENING NOMA'LUM SOHIBJAMOLIM

Kimsasiz bu kurortga asar yozish niyatida kelgandim. Ammo birinchi kuniyoq qalbimni og'ir bir yolg'izlik hissi qamrab, ishga havasimni so'ndirdi. Mehmonxonda u yoqdan bu yoqqa yurish yoki devorga yopishtirilgan yo'l-yo'l yashil qog'ozga ma'nisiz tikilgancha chalqancha yotishdan boshqasiga yaramay qoldim. Yashil yo'l-yo'l qog'oz jig'imga tega boshlaganida esa ko'zimni chirt yumib olardim. Ba'zan devor qog'ozning yo'llarini, xuddi birorta foyda chiqadigandek sanashga tushardim-u, uni ham oxirigacha yetkazolmasdim.

Xonaning sukunati, uning derazasi ham badimga urdi. Vaholanki, shu deraza dengizga qaragani uchun ijara haqini uch yuz frank ortiqcha to'lagandim. Endi, dengiz o'rniga mungli ter bosgan va yomg'ir suvlari jildirab oqayotgan shishalarni ko'rardim, xolos.

Uchinchi kuni bu yoqlarga kelishimni hayotimda qilingan boshqa xatoliklar yoniga qo'shib qo'ydim. Yozuvchi degani bir tomoni go'rkovga, ikkinchi tomoni sayyoh musiqachiga o'xshaydi. U begonalarning tashvish va quvonchlari bilan yashaydi. Voqe-hodisa yuz bermaydigan joy yozuvchining joyi emas.

Agar shu orada Jan-Lyuk bilan uchrashib qolmaganimda, ehtimol, ketib yuborgan ham bo'lardim. Jan-Lyuk ham xuddi menga o'xshab xatolar hisobiga o'tuv-

chi ish qilgandi. Farqi shunda ediki, u o‘zini unutish, xayol va kechinmalaridan qochish uchun yolg‘izlikka intilgandi-yu, ammo intilishining rappa-raso teskarisiga duch kelgandi. Axir yolg‘iz qolsang xayollarining aksincha, seni iskanjaga olmaydimi? Shunday oladiki, qochib qutulolmaysan. Ular har tomondan yopirilib, birdan ovoz kasb etadilar va atrofingdag'i sukunat osmonida momaguldurakdek gumburlay boshlaydilar.

Jan-Lyuk buni sezgan, shekilli, uchrashganimizda men qanchalik sevingan bo‘lsam, u ham shunchalik sevinib ketdi. Yomg‘ir yog‘ib turgan ertalabki paytda bir-birimizning yelkamizga qoqishib turganimizni ko‘rgan odam, albatta, ikki qadrdon ulkan ayrılıqdan keyin uchrashib qolibdi, deb o‘ylashi tabiiy edi. Asli-da esa biz bir-birimizni kam bilardik. Mabodo Parijda uchrashib qolganimizda, ehtimol, „yaxshi yuribsizmi“, „ishlaringiz yaxshimi“, degan gapdan nariga o‘tmay ajralardik. Lekin bu yer Parij emasdi. Bu yer – kimsa-siz, yomg‘irli, shamolli, dengizi ko‘pirib, suvi mag‘zava rangiga kirgan qishki Kann edi.

Uchrashgan kunimizdan boshlab, to ajralgunimizcha biz hamisha birga yurdik. Birga nonushta qilardik, birga gazeta olgani borardik, keyin bironta mo‘jazgina mudroq qahvaxonada qahvani maydalab, gazetalarimizni o‘qirdik. Yoki bo‘lmasa bo‘g‘iq gumburlab ag‘darilayotgan to‘lqinlardan ho‘l bo‘lgan qumloq sohilda sayr qilardik. Jan-Lyuk „mening“ restoranimga ko‘chib o‘tgani uchun tushligimiz ham birga kechardi. Tushlikdan keyin biroz bilyard o‘ynab, so‘ng yana dengiz bo‘yiga, bandargohga yoki ko‘pik qoplagan to‘lqinqaytargich ustiga aylangani borardik. Nima yeishni, nima buyurishni uzoq maslahatlashib, kechki ovqatni birga o‘tkazardik. Gap, gap,

gap... ayniqsa, kechki ovqatdan keyingi bir qadah vino ustida uzoq suhbatlashardik.

Avvaliga Jan-Lyuk vaqtি men bilan birga o'tganiga qanoat qilib, ko'п gapirmadi. Ammo ichingda bir dard azob berib yotsa-yu, oldingda jon deb eshitishga tayyor turgan odam bo'lsa, sir saqlash juda qiyin. Uch-to'rt kun o'tmay, Jan-Lyuk gap orasiga muhabbatning bema'nili-gi haqidagi jumlalarni qistira boshladi. Yana bir kundan keyin esa fikrini misollar bilan dalillashga va nihoyat, yana bir-ikki kundan keyin to'ppa-to'g'ri o'zining sarguzashtini gapirishga tushib ketdi.

Jan-Lyuk muhabbatining tarixi menga goh oldidan, goh o'rtasidan, goh esa oxirgi qismidan, xullas, betar-tib parchalar sifatida havola qilinardi. Boshida bu vo-quea meni ko'п qiziqtirmagani uchun unchalik e'tibor bermay eshitdim. Aniqrog'i, o'zimni eshitayotganga solib yurdim. Ammo keyin esa, bilmadim, hikoyachi-ning tirishqoq qat'iyati ta'sir qildimi yoki unga yordam bermoqchi bo'lqanimmi, yoki kechqurunlari xonam-ga kirganimda yashil qog'oz chiziqlaridan chalg'ib, nimalarnidir o'yashga majburligimmi, xullas, borib-borib, uning boshidan o'tganlari meni rom qila boshladi. Kechalari bilan o'ylab yotib, uning sarguzashtini xuddi chil-chil sindirilgan chinni parchalarini bittama-bitta ter-gandek terib, bir-biriga ulay boshladim. Orasida yetish-may qolgan qismlarini ertasiga o'zidan so'rab olardim va xayolan voqeani to'kislab qo'yardim. Oxir-oqibatda qiziqishim ortib, Jan-Lyuk bilan bahslashadigan, hi-koyasini shart kesib, unday qilish yoki deyish o'mniga mana bunday deyishing kerak edi, deb achchiqlangan-cha tortishadigan ham bo'ldim. Bechora Jan-Lyuk: axir xotin mening tanishim bo'lsa, uni yaxshiroq bilsam,

nima deyish kerakligini sendan tuzukroq bilsam kerak, derdi. Yoki bo‘lmasa, chetdan turib maslahat berish oson, deb o‘zini oqlardi.

Qizig‘i shuki, uch shisha vino ichilguncha cho‘zildigan mana shu tortishuvlardan keyin charchash o‘rniga ikkovimiz ham yengil tortib, xursand holda xayrlashardik. Chunki u dardini aytib, ko‘nglini bo‘shatar, men esa kechasi o‘ylash uchun mavzu olardim.

Undan-da qizig‘i esa, bu sarguzasht Jan-Lyukning boshiga tushganligi edi. Jan-Lyukni xunuk va to‘nkaga o‘xshagan beta’sir odam demoqchi emasman. Aksincha, u gavdasi yirik va baquvvat, jiddiy yuzi biroz oqarinqiragan, ko‘zları xotirjam boqadigan, xushbichim yigit. Shu bilan birga o‘zini bosib olgan va ichimdagini top, qabilidagi fe’li xo‘yi bor. Odati bo‘yicha kaftini kaftida siqib, ko‘zlarini qisib sizga tikilganda, beixtiyor, uni darsxona minbarida yoki sinf taxtasi oldida turibdi, deb o‘ylash mumkin. Inchunun, shunday o‘ylagan kishi xato qilmaydi ham. Chunki Jan-Lyuk tarix o‘qituvchisi edi. Uning o‘qituvchiligin ham ta’kidlamoqchi emasman. Gap shundaki, bu dunyoda hamma narsani batamom tushunib yetgan, sizga hamisha maslahat berib, o‘zi esa hech qachon beboshlik qilmagani, har xil sarguzashtlardan o‘zini tortgani uchun maslahatga muhtojlik sezmaydigan odamlar bo‘ladi. Bir qarashda Jan-Lyukni ana shunday deb o‘ylaysiz. Bu toifadagi odam uylanishni niyat qilib qolsa, albatta, o‘ziga o‘xshagan bosiq, tavakkalchilikdan narida yuradigan, Uyg‘onish davrining iqtisodiy negizlari haqidagi suhbatni maroq bilan tinglay oladigan qizlardan tanlagan bo‘lardi.

Nihoyat, bir necha kun davom etgan yomg‘irlardan keyin oftob ko‘rindi. Osmon teranlashib, ko‘m-ko‘k rang

oldi, shamol sekinlashib, mayinlashdi, dengiz esa yashil tusiga qaytib, osoyishtalandi. Plyajlarning qumloq qismalari qurib, oqardi, palmalarning qora barglari yelpig‘ich singari silkina boshladи. Xullas, hamma narsa asliga qaytib, risoladagidek tus oldi.

Afsuski, qishki ta’til tugab, Jan-Lyukning ketadigan vaqt kelgandi.

— Menga kelganda doimo shunday, — dedi Jan-Lyuk, — hamma narsa qaytish yoki ajralish chog‘i kelgandagina oydinlashadi.

— Hamisha emas-ku, — dedim men.

— E, sen anavi voqeaga ishora qilyapsan-da... qo‘y o‘shani, juda ko‘p chaynadik.

Jan-Lyuk dili vayronlikdan qutulish maqsadida yolg‘izlik izlagandi. Vaholanki, dardiga eng yaxshi davo: erinmay eshitadigan odam topish-u, to holdan toyguncha gapirish edi. Tasodif unga shu sharoitni yaratib bergandi. Chunki ko‘p gapirilgan narsa — ming qirrador bo‘lmisin, baribir siyqalashadi. Zeroki, siyqalashga til-dan mustahkam asbob bu olamda bo‘lmasa kerak.

Ehtimol, bir necha kundan keyin uning dil og‘rig‘i yana qo‘zg‘ar, yolg‘izlik va horg‘inlik chog‘larida hali ko‘p qiynar. Lekin hozir Jan-Lyuk juda xotirjam edi. Vokzalda xayrlesharkanmiz, butun fikr-u-xayoli uni Parijda kutayotgan maktab ishlari, bir gazeta tomonidan buyurilgan maqola, ta’til tufayli paydo bo‘lgan qarzlar singari tashvishlar bilan band edi. Biz bir-birimizdan minnatdor bo‘lib, do‘sht bo‘lib xayrleshidik. Bir-birimizdan juda yaxshi foydalandik. U dil izhorini to‘kdi, men yozishga mavzu terdim. Shuning uchun mehmonxona ga qaytgach, xonamning derazasini ochganda haqiqiy dengiz manzarasini, Jan-Lyukning sarguzashtida hikoya

qilingan manzarani ko'rdim. Chamadondan bir dasta qog'oz oldim-da, ishga rosmana oshiqqanda bo'ladi-gandek tayyorgarliksiz, „qalam charxlashsiz“ to‘g‘ridan to‘g‘ri yozishga tushib ketdim.

Jan-Lyuk o‘zining sarguzashtini uzuq-yuluq, parcha-parcha, oldinma-ketin aytib bergeniga qaramay, men allaqachon bosh-ketini ulab olgandim. Xuddi Jan-Lyuk xotirjam o‘tirib, bafurja so‘zlab bergandek chiqdi. Boz ustiga men uni birinchi shaxs tilidan yozdim. Ammo yana ta‘kidlab aytamanki, bu voqeа Jan-Lyukning boshidan o‘tgan. O‘zim uylangan, uy-joylik odamman, shuning uchun har xil voqealarni menga bog‘lab yurishlariga zig‘irchalik toqatim yo‘q.

\* \* \*

Kichkina kema odamga liq to‘lib kelyotgan bo‘lsada, men tiqilinchdan ko‘ra jaziramadan qiyinalardim. Ichimga Venetsiya havosi emas, qaynoq suv kirib-chiqayotganga o‘xshardi. Hali kun ertaligiga qaramay, oftob ayamay qizdirar, ko‘zni ochirmaydigan darajada qamashtirardi. Botsman kayutasining soyasidan joy egal-lagan bir necha odamga juda havasim kelganidan, har zamonda ularga qarab-qarab qo‘yardim.

Atrof shovqin va harakatga to‘la. Mum surilgan qora barjalar, qutilar ortilgan sap-sariq qayiqlar, sayqallangan yog‘ochdan ishlangan „vedetta“lar, sayyoohlар to‘lib o‘tirib olgan gondolalar kanal ichida g‘ij-g‘ij u yoqdan bu yoqqa qatnashardi. Kir oq ko‘ylak kiygan boshqaruvchilar po‘sh-po‘shlab baqirar, motorli qayiqlar esa bo‘g‘iq gudok chalishardi. Kemalardan xira, kulrang to‘lqinlar taralib, bizga urilganda kemachamiz qattiq og‘ib ketar va faqat olomonning tig‘izligigina meni yiqilishdan saqlar-

di. Uch kun mobaynida qayiqdan qayiqqa, kemadan kemaga o'taverib, chayqalishlarga ko'nikib qolgandim. Shunchalik o'rgangandimki, yerga oyoq qo'yganimda ham suv ustida turgandek bo'laverardim. Yo'laklarga yotqizilgan toshtaxta-yu restorandagi parket ham kema sahniga o'xshab chayqalardi. Hatto mehmonxonadagi karavotim ham muallaqlikka bo'ysungandi. Bora-bora bu narsa uyqumning muallaqligiga sababchi bo'lgandi.

Koza d'Oroda ko'p yo'lovchi tushgani uchun kayutaga o'tib olishimga imkon tug'ildi. Jonimga oro kirdi. Soyada miyam tiniqlashib, ko'zlarimning qamashishi ham to'xtadi.

Muyulishda tuyu o'rakchidek egri Rialto ko'prigi ko'rindi. Kemachamiz uning ostidagi namxush havoga kirganda hamma narsa birdan o'zgardi. Suv – to'q yashil tus oldi, qushlarning ovozi o'tkirlashib qo'ng'iroq jarangidek eshitila boshladi. Ko'prik ostidan chiqqach kemacha yana nurga sho'ng'idi-da, bekatga qarab burildi.

Yo'lovchilar chiptachining ko'magida birin-ketin sohilga tusha boshlashdi. Men ham, aslida, shu yerda tuishim kerak edi. Ammo ichimdagি nimadir soya joyni tark etishga yo'l qo'ymadи.

„Xo'sh, endi nima bo'ladi?“ deb savol berdim o'zimga o'zim, kemacha yana kanal o'rtasiga burilganda.

„Endimi? Endi dam olamiz, zerikarli rejalaringga quл bo'lib yuraveramizmi!?”

Men Venetsiyaga bir oy muddatga kelgandim. Bir oy esa rejAMDAGI ko'rmoqchi bo'lgan narsalarim uchun unchalik ko'p emasdi. Parijdayoq tuzib qo'ygan ro'yxatimga bir necha o'nlab qasrlar-u ibodatxonalar yozilgandi. Undan, tashqari necha-necha muzeylar va

ko‘rgazmalar bor, axir? Bularning barini ko‘rib-o‘rganib ulgurishim zarur edi. Negaki, tarix va san’at – mening kasbim, Venetsiyaga esa hushingga kelgan paytda ke-laverishning imkonи yo‘q. Boz ustiga oddiy o‘qituvchi bo‘lsang, bunday sayohatni ixtiyor qilish uchun uch yil pul to‘plashing kerak.

Ishtiyoyiqim zo‘rligidan Venetsiya vokzaliga tush-gan zahotim shaharning yo‘llanma xaritasini sotib olib, undan keyingina mehmonxona izlagandim. Baxtimga, oddiygina bezatilgan, arzongina, ammo Katta kanalning yoqimli manzarasi ko‘rinib turadigan xona ham topildi. Derazaning oldidagi stolga o‘tirdim-da, yo‘lnomani yoyvolib reja tuzishga kirishdim. Ulkan-ulkan obida-larga bir kundan ajratib, mayda-chuydalariga o‘n besh kun qoldirdim. Shunda, qolgan shu o‘n besh kunning har biriga uch-to‘rttadan mayda obidalarning tomoshasi to‘g‘ri kelgandi. Albatta, bu ko‘p edi. Ammo o‘sha birinchi paytlarda, derazadan kirayotgan sho‘rtang dengiz havosidan nafas olib, ranglari yorqin shahar yo‘lnoma-si ustida o‘tirganimda, bo‘lajak qiyinchiliklar qaytaga g‘ayratlantirardi meni.

Ertasiga ertalab qo‘limda xaritani ushlagancha. kichkina kemaga o‘tirib, ajoyibotlarni tomosha qilgani yo‘lga tushdim. O‘sha chog‘da o‘zimni baxtiyor sezardim. Chunki batamom yangicha dunyoda edim. Ko‘zlarim taassurotlardan hali charchamagan, ko‘cha va kanallar bo‘ylab esayotgan salqin shamol esa g‘aroyi-botlarni yanada go‘zallashtirardi. Qizil tortayotgan tong shafag‘i ostidagi yashil rangdagi salqin uylar, ularning kashtali arklari, nimqorong‘i bag‘ridan ufurayotgan mog‘or hidi, ayollardan taralayotgan atir ifori, baliq qovurdog‘ining bo‘yi, qahvaning quyuq va sal taxirroq isi,

sarg‘ayib ketgan poydevorlarga chapillab urilayotgan suv, San-Marko maydonidagi kaptarlarning unsiz parvozlar, gondolerlarning cho‘ziq baqirishlari, tilanchilarning akkordeonlaridan chaqayotgan mungli navo – bularning bari yangilik va o‘ta maroqli edi. Uzoq yillar faqat qiroat orqali o‘rgangan, lekin birinchi marta bunaqa „ko‘p miqdorda“ eshitilayotgan italyan tili esa yanada yoqimli va g‘aroyib eshitilardi.

Qayiqdan qayiqqa, maydondan maydonga o‘tib, arklar, yo‘laklar, zinalar, yerto‘lalar, yalang‘och ma’buddalar, zallar, ularning devor suratlaridan boquvchi besarajjom va bazo‘r ko‘zga tashlanadigan qiyofalarga to‘la shaharni kun bo‘yi kezdim. To oyoqlarim zirqirab, chidab bo‘lmaydigan darajada og‘riq turguncha izg‘idim. Mehmonxonaga qaytgach, ro‘yxatimni oldim-da, Dukale Palatssosini o‘chirdim. Shu Palatssodan boshqasi rejingga kirmagan narsalar edi.

Ertasiga del Arte galereyasini tomosha qildim. Indiniga esa San-Marko ibodatxonasidan qutuldim. „Qutuldim“ deyayotganimning boisi, hamma vaqtimni yeb qo‘yayotgan bu sayr-u sayohatlar me’damga tega boshlagandi. Shunga qaramay, har bir devor rasm oldida to‘xtardim, sinchiklab tomosha qilib, tushuntirishlar ni o‘qib chiqardim. Biroq qabul qilishdan bosh torta boshlagan miyamda turli kufrona xayollar g‘imirlab qolgandi.

„Qadama naqsh, – derdim ichimda shiftga tikilganimcha. – Ajoyib naqsh. Yaxshi saqlangan. Xo‘sh, nima qipti? Odamzodning naqshsiz ham kuni o‘taveradi“.

To‘g‘ri, bu kurakda turmaydigan fikr. Lekin o‘sha soniyada haqiqatdek bo‘lib tuyulardi. Men to‘ygandim. Qadama naqsh, devorga solingan suratlar, haykallar,

marmar va jezdan, peshtoq-u ustunlardan to‘yib ketgandim. Chunki bu shaharga yig‘ilgan go‘zallik aql bovar qilmaydigan darajada ko‘p edi. Chunki ulkan daholar asrlar bo‘yi yaratgan narsalarini uch kunda ko‘rib bitiram man deb o‘ylash g‘irt ahmoqlik edi.

Kemachamiz San-Jorjo orolini aylanib o‘tgach, uning motori jadallahib, yengil va bir maromda ishlay boshladi. Ko‘z oldimizda to Lidogacha yastangan moviy-yashil ko‘rfaz ko‘rindi. Ufqdan oshib o‘tishga ulgurgan bir necha motorli qayiqlar qoldirgan ko‘pikli izlar suv sahnida to‘lqinlanardi.

Shamol kuchayib, sal salqinlashdi. Kayutaning soyasiga o‘tganimdan ruhim tetiklandi. Afsuski, rejamdagagi ikki ibodatxona va bitta qasrni inkor qilgandim. Aks holda kayfim juda chog‘ bo‘lardi.

„Kyunma, – dedim o‘zimga-o‘zim. – Bu yog‘ini sal tig‘izlasang, bariga ulgurasan. Horib-charchaganda tomosha qilishdan nima foyda bor? Baribir miyangga hech narsa kirmaydi“.

Shu xayolda dengizdan shahar tomonga keskin buriqandim, yonimdagagi ayolga urilib ketdim. Ayol o‘qishga juda berilib ketgan shekilli, kechirim so‘raganimda qarab ham qo‘ymadi.

„Voy-bo‘, buning kekkayishini-chi!“ – dedim ichimda, unga ko‘z qirimni tashlab. Ayol kekkayarmidi yo‘q-mi, noma’lum, lekin atrofdagi hech narsaga e’tibor bermay mutolaa qilardi. Uning yuzi mahalliy ayollarnikidek yarq etib ko‘zni oluvchi toifadan bo‘lmasa-da, harholda chiroyli edi. Avvaliga uning chehrasini shunchaki be-korchilikdan kuzatdim. Keyin „U haqiqatan ham go‘zal ekan“, dedim o‘zimga-o‘zim. Yana biroz turib esa undan ko‘z uzolmay qolganimni jahl bilan tan oldim.

U juda yosh edi. Qiz bola bo‘lsa kerak, degan qarorga kelardim-u, ammo o‘zini tutishidagi qizlarga xos bo‘limgan jiddiylik va barkamollik bunga yo‘l qo‘ymasdi. Qimmatbaho pushtirang matodan tikilgan kashtali ko‘ylagi sarv qomatiga chippa yopishib turardi. Ametis ko‘zli uzuk bezagan bir qo‘lida jurnal tutgan, ikkinchi qo‘li esa oppoq sumkaning bambuk bandidan ushlab olgandi.

„Badavlat ekan, – dedim o‘zimga-o‘zim. – Kekkayishi bejizmas! Buning ustiga o‘zini hurliqo, odamlarni esa faqat unga tikilish bilan mashg‘ul, deb o‘ylaydi“.

Men, aslida, sergap emasman. Lekin kamgap odam ham ichida ko‘p gapiradi.

Ayolning o‘qiyotgani kinoroman bo‘lgani uchun unga nisbatan g‘ashligim tag‘in oshdi.

Nihoyat, u mutolaani tugatdi. Jurnalni yopib sumkasiga soldi-da, boshini ko‘tardi. Uning chag‘ir ko‘zlari mehribon va jiddiy boqardi. O‘ng-u so‘lga o‘q otib, „xo‘sh, qalayman, yoqimtoyginamanmi?“ deydigan ko‘zlardan emasdi. Ayolning dengiz shu’lasidan biroz qisilgan nigohi mening yuzimdan befarq sirg‘alib o‘tdi-da, kemaning ortida qolayotgan ko‘pikli „egat“da to‘xtadi.

– Havo yaxshi-a? – deb yubordim o‘zim ham kutmagan holda. Ayol javob bermadi.

– Lekin issiqrog‘-a, nima deysiz?

Bu safar ayol bamaylixotirlik bilan menga orqasini o‘girdi.

– Ba‘zi bir odamlar bilan suhbat qurish juda qiyin bo‘ladi, – dedi yonimdagи chol qulog‘im ostida po‘ng‘illab. – Ular o‘zlarini oddiy bandalardan ancha yuqori qo‘yishadi.

Cholning kichkina va namchil ko‘zлari menga xayriхoh boqardi. Biz u bilan ob-havo xususida gaplashib ketdik.

Kema Lidoga yaqinlasharkan, yoysimon shaklda burilib bandargohga yo‘l oldi. Passajirlar o‘rinlaridan turib bo‘sag‘aga to‘planishdi.

Yonimdagи ayol yuzini qirg‘oqqa o‘girdi-yu, joyida o‘tiraverdi. Men yana unga qarab olgandim. Sirasini aytganda, chol jazirama va yomg‘irlar haqida gapirogtganda ham ko‘zlarim u tomonda edi-ya, faqat u paytda ayolning qoracha bo‘yni, bo‘ynidagi tillarang nozik mo‘ylari va turmaklab ko‘tarilgan och jigarrang quyuq sochlарigina ko‘rinayotgandi. Endi esa to‘ppa-to‘g‘ri yuziga tikilib o‘tirardim. Chiroyini asta-asta, chiziqmacchiziq namoyon etadigan va oxir-oqibatda ko‘zingni uzdirmay qo‘yadigan go‘zal chehra edi bu.

„Umuman yomon emassan, – dedim ichimda. – Ammo alohida bir ajralib turadigan joying yo‘q. Peshonang ochiq va yorug‘, lekin keng emas. Rimcha nusxadagi burunchangning bichimi to‘g‘ri. Lekin bunaqa burun atrofda tiqilib yotibdi. Lablaringning takabburona‘ siyohini aytmasa, unchalik jozibalik emasligini shipshitib qo‘yishim mumkin. Yumaloqqina dahaning ham takabbur nusxada. Tering, to‘g‘ri – tillarang, ammo bu oftobning sharofati“.

Kemacha bandargohga biqinini to‘g‘riladi-da, do‘qillab urildi. Uning sahni titrab ketdi, suv yuziga esa mayda to‘lqinlar taraldi. Konduktor qirg‘oqqa arqon tashlagandan so‘ng yo‘lovchilar birini biri betoqtat turtkilab pastga tusha boshlashdi.

Pushtirang ko‘ylakli ayol oldimda borardi. Yo‘lakka tushganimizda u qayoqqa yursam ekan, degandek


bir zum to'xtadi. Men ham ortida turib qoldim. Astoy-dil ergashmoqchiligidan emas, shoshadigan joyim yo'qligidan to'xtadim. Negaki, bu kungi rejalarga qo'l siltab qo'ygandim-da.

Shu payt tuyulishdan avtobus chiqib keldi. Ayol qo'l ko'targandi, haydovchi yo'lakka yondashib to'xtadi. To men ikkilanishimni bir yoqli qilguncha ayol avtobusga chiqdi-yu ketdi.

„Masala hal bo'ldi, – dedim men o'zimni beparvolik-ka solib. – Har kim o'z yo'lidan ketadi“

Dunyodagi hamma ko'cha o'zimniki bo'lgani uchun, ko'rinishdan dengizga olib boradigan keng xiyobonni tanladim-da, xayolimni chalg'itishga urinib yo'lga tushdim. Ulkan chinorlar soya tashlagan bu xiyobon jimjit edi. Quyuq barglar orasidan o'tayotgan siyrak nurlar yashilga o'xshab ko'rinaldi. Restoranlar oldidagi stollar, limonrang soyabonli qahvaxonalar, yozlik kiyim sotadigan do'konlar – hammasi kimsasiz edi. Xiyobon-dan borarkanman, xuddi jaziramadan hozirgina qochib salqin daryoning tiniq suviga sho'ng'iganga o'xshardim. Venetsiya, albatta, yaxshi joy, lekin kanallari-yu suv yemirgan devorlaridan bo'lak nima qizig'i bor? Uning tosh ko'chalarida, tosh uylari ichida bir necha kun izg'i-gandan keyin Lidoga kelib qolsanggina, eng hashamatli marmar ham tong shabadasida silkinib turgan kichki-na yashil novdaning oldida hech narsaga arzimasligini tushanasan.

Xiyobon uzun emas ekan. Shu sababdan sekin yur-sam ham birpasda sohil bo'yiga chiqib qoldim. Ikki tarafimda ko'z yetguncha yorqinrang oftobpo'sh va odam tanalari „ekib“ tashlangan sap-sariq qumloq yas-tanib yotadi. Qumdan nariroqda sohilga urilayotgan



to'lqin ko'piklari, undan dengiz va dengiz ustida oftobda oqarinqiragan moviy osmon...

Men kazino ko'rinish turgan o'ng tarafga yurdim. Qirg'oq bo'yidagi bu ko'cha zamonaviy uylardan iboratligi uchun taassurotlarim oshib ketishidan xavotirlanmasam ham bo'lardi. To'rtburchak derazali bir xildagi beton qutilar, butalgan bir xildagi nimjon daraxtlar, neon lampa o'rnatilgan bir xildagi cho'yan fonuslar, o'rtada esa oftobda qizigan asfaldan iborat bu ko'chaning adog'i ko'rinmasdi. Issiqqa chidash qiyin. Eng aqlii ish dengizga qarab yo'l solish ekanligini tushunib, kazinodan keyin chiqib qolgan cho'milish liboslari sotiladigan do'konni ko'rdim-u, unga kirdim.

G'aznaning oldida ikki ayol bir-biri bilan sekin gaplashib turishardi. Ulardan biri esa pushtirang ko'ylak kiygandi. Ha, bu o'sha kemadagi hamrohim edi. Men salom berdim. U alik olmadi. Umuman tanishligimizni bir bahya ham sirtiga chiqarmadi. Uning o'miga do'kon xo'jayini bo'lgan ikkinchi ayol menga murojaat qildi.

— Avval xonimning hojatini chiqaring, — dedim. — Men kutib turaman.

— Kutishingizga zarurat yo'q, — luqma tashladi nota-nish sohibjamol beparvo ohangda. Uning ovozi mayin, ammo qiyo boqadigan siyoqi ko'rinmasdi.

— O'zingiz bilasiz, — dedim men.

So'ngra qimmat bo'lman tuzukkina bir narsa sotib oldim-da, ayollar bilan xayrashib chiqib keta boshladim. Do'kon bekasining iltifot ko'rsatib eshikkacha ku-zatgani meni xijolatdan biroz qutqardi.

Duch kelgan birinchi plyajga burilgandim, aksiga olib eng qimmatiga uchrabman. Bu plyaj „Eksselsior“ mehmonxonasining oromgohi bo'lib, undagi qumloq va

dengiz ham „lyuks“ narxida baholanar ekan. Soyabon, to’shak, xalat, yechinadigan xona uchun birin-ketin patta yirtib bergen g‘aznachi – pul sanab berayotganimda menga kulimsib qarab turdi. „Ha, qimmatlik qildimi? Nega bo‘lmasa bu yerga tumshug‘ingni tiqasan?“ degan istehzo bor edi uning nazarida.

G‘aznachining menga past nazarda qarashi xojalari dan yuqqan nazar edi. Aftidan, ko‘p yillardan beri xizmat qilsa kerakki, o‘zini ham xojalarining dunyosiga mansub degan g‘oya badaniga singib ketgandi.

Men kiyimlarimni yechib, soyabon tarqatadigan o‘s-pirinning ortiga tushdim. Bo‘sh joy topish uchun butun plyajni bosib o‘tib, eng chekkaga borishimiz darkor edi. Atrofda, rezina to’shak va yorqin rang xalatlarda qizil, tillarang, och-jigarrang, to‘q-jigarrang badanlar yotardi. Erkag-u ayol aralash. Bu yerda polvonsifat, mushaklari o‘ynab chiqqan, shuningdek, badaniga jir bitgan yigitlar, jikkak, shuningdek, kattakon qorinlari osilib tushgan semiz chollar ham bor edi. Ayollarning ham turli toifadan: sarvdek kelishganidan tortib tarvaqaylab ketganigacha topilar edi. Turli nusxadagi bu odamlar biri osmonga, biri yerga qarab yotar, biri yonboshlagan, biri o‘tirgan holda edi. Ammo tilla soatlari, bilaguzuklari, qimmatbaho gardishli qora ko‘zoynaklari, atroflarida sochilib yotgan modadagi xalat, ko‘ylak, short, kumush tamakidon va chaqmoqtoshlari bularning zodagon ekanligini ta’kidlab, oddiy odamlardan ajratib turardi. Buyumlaridan ham ko‘ra basharalaridagi zerikish, to‘yinganlik, bilinar-bilinmas istehzo, mangu o‘rnashgan behudud kiborlik nuqsi – bu oddiy qumloqda oliv tabaqa vakillari yig‘ilganligini ta’kidlardi. „Qaysi gunohlarimiz uchun biz yerda, oddiy fuqarolar ichida ya-

shashga mahkum etilganmiz“, derdi ularning yuzlari-dagi kekkayish nuqsi.

Oyog‘imni kuydirmaslik uchun omochga o‘xshatib qumni o‘yib o‘tayotganimda yotganlardan ba’zilari menga qarab qo‘yishardi. Nigohlarida „Buncha oppoq-san!“ degan ijirg‘anuvchi savol namoyon edi. Zeroiki, ularning nazarida yoz kuni oppoq badan bilan yurish ham odobdan emasdi.

Bo‘s sh joyi bo‘lgan plyajning oxiriga yetib borganimizda o‘spirin soyabonni ochib qumga tikdi. Men cho‘milgani tushdim. Suv kutganimdan ko‘ra salqin va qoramirroq ekan,sovug‘i badan-badanimdan o‘tib ketdi. Suv ichidan oyoqlarimni o‘ng‘aysiz ko‘tarib bosgancha shoshib chuqurroq joyga yotdim-da, sho‘ng‘idim. Muallaq holda qulqolarim shang‘illab, suvning o‘zi itarib chiqarmaguncha uzoq turdim.

Sohilga qaytganimda zangori soyabonimning ostiga to‘shalgan to‘shakni chetga surib, iliqqina qumning ustiga cho‘zildim. Qum o‘zining dag‘al kaftlari bilan har tomondan quchib, badanimdagi suv va charchoqni shimib olardi. Dengizning sho‘rtang havosini to‘yib-to‘yib simirdim. Lekin biroz turib havoga allaqanday og‘ir atir hidlari aralashib uni yoqimsiz qildi. Men bilan dengiz o‘rtasidagi bo‘s sh joyga qandaydir erkak va ayol kelib joylashishdi. Ularni ko‘rmasam ham suhbatlarini eshitib turardim. Xotinning ovozi injiq va ingichka bo‘lib, tez-tez nafas olganidan gapi bo‘linib-bo‘linib chiqar, erkakning ovozi esa bo‘g‘iq va erinchoq edi.

– Kelmasak bo‘lardi-da, – dedi xotin. – Soyada o‘tribman-u, baribir issiq yomon ta’sir qilyapti.

— Men aytdim-ku, bu jaziramada chiqmaylik, deb. Ishqilib yuraging bilan asablaringga zarar yetmasinda!

— Hah, muncha asablarimga yopishvogansan... Asablarining, asablarining... Gapingni eshitgan odam, xotini jinni ekan, deb o'ylashi mumkin.

— Nega jahling chiqadi? — so'radi er zorlanib. — Xo'p, asablarining juda yaxshi, faqat jahling chiqmasin.

— Men senga juda yaxshi deyotganim yo'q, — javob qildi xotin to'ng'illab. — Ammo, sen aytgandek, jinni emasman.

— Men hech narsa deyayotganim yo'q. Jahling chiqmasin, ishqilib.

— Rostini aystsam, asablarim buzilganiga sen aybdorsan. Eslatish ortiqcha bo'lsa kerak-a?

— To'g'ri. Ortiqcha.

— Xuddi ana shuning uchun asabimga tegmasdan, jimgina yur.

Er javob bermay, og'ir xo'rsindi.

Bir daqiqalik jimlikdan keyin xotin yana boshladи.

— O'zi rostdan ham chiqmasak bo'larkan. Issiq yomon ta'sir qilayotganini sezib turibman.

Er indamadi.

— Albatta, senga baribir. Shundaymi?

Er yana javob bermadi.

— Ha, albatta, xotining o'ladimi, qoladimi, senga baribir. Mening qiynalib azoblanayotganidan ich-ichingda suyunyapsan.

Xotin yig'lamsiray boshlagandi.

— Hoy, menga qara! Axir, chiqmagan deb maslahat berdim-ku, senga? Nega yana ta'na qilasan?

– Soyada o‘tirsam hech narsa qilmas, deb o‘ylagandim.

– Soya emish... Gap soyada emas – yodda. Bu yerning havosi yodga to‘yingan, shuning uchun bo‘g‘il-yapsan...

Ayol, rostdan bir narsa bo‘g‘ayotgandek shovqin bilan nafas chiqarardi.

– Yaxshisi, men qayta qolay, – deydi ayol noz bilan va eri indamaganini ko‘rib davom etadi:

– Men bilan birga qaytish xayolingga ham kelmasligi turgan gap.

– Iltimos, meni tinch qo‘y! Iltimos qilaman! Kechasi sahargacha seni kazinoda qo‘riqlab chiqdim. Sen – pul sochasan, men qaqqayib turaman. Bu yerga kelib endi yechinganda, yana kiyinamanmi... yo‘q...

– Bas! Sendan boshqa javob kutmagandim. Har doimgidek bir o‘zim qaytishimga to‘g‘ri keladi.

Ammo ayol darrov turib ketmadi. Er-xotin xiyla gaplashishdi. Ayol bufet bu yerdan ko‘ra salqinroqmin, deya taxmin qildi. Er esa, hech qanday farqi yo‘q, dedi. Shundan keyin ayol o‘rnidan turdi. Yarim yumuq qovoqlarim orasidan uning semiz gavdasini, yog‘upa surilganidan yaltirab turgan, shishinqiragan va qarimsiq yuzini ko‘rib turardim.

– Iltimos, Robertga aytib qo‘y: seni tashlab bu yoqqa qaytsin, – deb baqirdi uning orqasidan eri...

Mening notanish sohibjamolim ham mana shu, atrofimda yotganlar toifasidan bo‘lishi kerak. Pushtirang kashtali ko‘ylak, bambuk dastali sumka, oyog‘idagi olifta tufli – bari pul turadi. Ammo bu narsalardan tashqari kekkayma damdo‘zligi, es-hushimni bir og‘iz jumla bilan joyiga keltirib qo‘yishi – zodagonligini, boyagi chol

aytgandek, „oddiy bandalardan ko‘p yuqorida turishini“ yaqqol ko‘rsatardi.

O‘ziga o‘zi mahliyo bu ayol haqida o‘ylash g‘ashimi ni keltirdi. „O‘qishi kinoroman-u, zukko ko‘rinishga urinishini qara!“ O‘zimcha uni koyidim-da, „bor-e, tug‘ganingni oldiga“, deb boshqa narsalarni o‘ylashga qaror qildim. Qarorimdan yengil tortib ko‘zimni ochsam... naqdgina bo‘lib o‘sha qizni ko‘rib turibman-da... Bor-yo‘g‘i bir necha metr narida tizzalarini quchib, plyaj ashylarini sudrab kelayotgan o‘spirinni kuza-tib o‘tiribdi. Uning bir tekisda qoraygan badani miqt va pishiq bo‘lishi bilan birga, sportchi ayollarnikidek paydor emasdi. Do‘mbillagan, orasta, xuddi musiqadek muloyim, shakllari uyg‘un edi.

O‘spirin soyabonni o‘rnatgach, ostiga to‘shakni solib berib ketdi. Ayol o‘tirgan joyidan qimirlamadi. Plyajga kelgan odam, albatta, yon-veridagilarni ko‘zdan kechi-radi. U ham meni ko‘rgani aniq. Lekin o‘zini bu oftob ostidagi qumloqda yolg‘iz o‘tirgandek tutardi.

„Senga baqrayib o‘tirgan men ahmoq. Endi bo‘ldi. Baqrayyapti, deb gerdayishingga boshqa imkon bermayman“.

Men namoyishkorona teskari o‘girilib oldim-da, o‘x-tin-o‘xtin o‘g‘rincha ko‘z tashlab befarqligimning qanday ta’sir etayotganini tekshirib qo‘ya boshladim.

Qizga teskari o‘girilganidan keyin boyagi erinchqoq va xirildoq ovozli kishini kuzatish imkoniga ega bo‘ldim. Siyrak sochlarni yog‘ surib hafsalan bilan yotqizganligi, mosh-guruch mo‘ylovini olifta tarashlaganligi, qizil lozimchasi – bu kishining yosh ko‘rinishga urinishini yaqqol namoyon etardi. Uning yoshida bu ish oson emasdi. To‘q-jigarrang, serparvarish badani bir qarashda

baquvvat ko'rinsa-da, qo'ltiqlarining atrofi, shuningdek, orqasida – terining yig'ilib-buklanib turishlari uni fosh etardi. Toza qirilgan yuziga ham yillar o'zining qaytmas shafqatsizligi bilan iz solgandi. Ko'zlari ostidagi salqi halqalar uning nigohini ko'hna ikonalardagi avliyolarni-kidek og'ir va qahrli qilib qo'ygandi.

Bu kishi, go'yoki oftobga ko'kragini tutish uchun o'girildi. O'girilishi esa unga noma'lum ayolni bemalol kuzatish imkonini yaratdi. Alamimni jindakkina bosadi-gan narsa shu ediki, ayol menga qanday bo'lsa, u kishi-ga ham e'tibori shunchalik edi.

Oftobda isinib olgan ayol o'midan turib dengiza qarab yurdi. Bosaymi, bosmaymi degandek qadam tashlarkan, atrofidagilarga nisbatan mutlaqo befarqli-gi bo'limganda o'zini ko'z-ko'z qilyapti, deb o'ylash mumkin edi.

Tomosha qiladigan narsa qolmagani uchun haligi kishi darrov o'girilib oftobga orqasini tutdi. Lekin uning baxtiga qarshi dengiz tarafda tomoshaga arzigulik narsa qolmagandi. Negaki noma'lum ayol juda yaxshi suz-ganidan, uning tobora kichrayib borayotgan pushti qal-poqchasidan bo'lak hech vaqosi ko'rinasdi.

Ayol qirg'oqqa qaytgunicha ancha vaqt o'tdi. U soyabon ostiga kirib, qimmatbaho xalatini yelkasiga tash-ladi-da, yuzini sochiqqa arta boshladi. Shu asnoda uning xalati sirg'alib yerga tushdi.

„Turib obersam yaxshi bo'lardi-da“ – dedim o'zim-ga-o'zim. Shu xayol miyamdan o'tishi bilan boyagi semiz kishi o'ylaganimni bajardi-qo'ydi. Qiz xalatni undan oldi-da, jilmayishga o'xshagan ifoda orqali minnat-dorchilik bildirdi. Chol esa (shu soniyadan keyin unga chol deb laqab qo'ydim) qizning soyaboni ostida qolib,

suvning sovuq yoki issiqligi haqida gap boshladi. Nomalum qiz, suvning yoqimli ekanligini aytdi.

– Men ham shunday deb o‘ylovdim, – izoh berdi kishi. – Kunning ajoyibligini qarang!

– Ha, kun ajoyib.

„Axir bu chol ham ob-havoni siyqalayapti-ku. Nega unga javob berasan? Xalatingni obergani uchunmi? Juda katta ish qipti-da!“

Ular haligidek bema’ni gaplarni gapishtida davom etisharkan, chol o‘z joyiga qaytib kelishni xayoliga kel-tirmay qo‘ydi. Qiz hamon jiddiy edi. Ovozidan ko‘zi uchib turmaganligi sezilsa-da, baribir cholning gaplari-ga javob berardi.

Men suvga tushdim. Uzoqdan, cholning ufqni ko‘rsatib turib qizga durbin uzatayotgani ko‘rindi. Shunda cholning qo‘lidagi bilaguzugi bilan tilla soati yarqirab ketdi. Men qirg‘oqqa orqa o‘girdim-da, suzib ketdim.

Suvda uzoq cho‘milib qaytib chiqqanimda qiz ham, chol ham yo‘q edi. Xiyla vaqtadan keyin, ikkovini kiyin-gan holda restoran zinapoyalaridan yuqori ko‘tarilisha-yotganda ko‘rdim.

Yana biroz yotgach, men ham kiyindim-da, mehmonxonaga yo‘l oldim. Restoran taomnomasi zinaning oldida osib qo‘yilgan ekan. Undagi narxlarni ko‘rib ikkilangancha to‘xtab qoldim.

„Nima maqsadda kirmoqchisan? Ovqatlanish uchunmi yoki anavi ikkovini ko‘rish uchunmi? Niyat ovqatlanish bo‘lsa, andak yanglishyapsan“.

Bu gapim ayni haqiqat edi. Biroq uni xayolimdan o‘tkazarkanman, oyoqlarim beixtiyor zinadan ko‘tarilib, eshik bo‘sag‘asiga borib qolganini sezmay qoldim. Restoran og‘asi loqayd qarab, boshqa eshikka kirib

qolganini o‘zi anglab olar degandek indamadi. Anavi ikkovi restoranning to‘rida o‘tirardi. Oramizni qalin kanop dasturxon to‘shalib, guldonlar qo‘yilgan, billur va kumush idishlar bilan jihozlangan ko‘pgina stollar ajratib turardi. Stollarning ba’zilaridan erta kelgan mijozlar ham o‘rin oglandi. Erkaklar oq va niliyrang pidjaklarda, ayollar esa mayin, harir ko‘ylaklarda edilar. Garchi bu hashamatli jihoz-u mijozlarni bir tiyinga olmasam-da, ular orasidan o‘tib anavi ikkoviga yaqinroq joyga borib o‘tirish juda og‘ir ishdek tuyuldi.

„Mo‘ltirab turishing nimasi? Kirmoqchi bo‘lsang, kir“, degan fikr kechdi miyamdan. „Kirmoqchi bo‘lsang, kir“, deb to‘xtovsiz takrorlardim. Zinadan qaytib tushayotganimda ham, sal keyinroq sohil bo‘yidagi qumni kechib ketayotganimda ham. Ular tomon intilib, suvdan chiqarilgan baliqqa o‘xshab qolganimdan o‘zimga jahl qilardim.

Menga boshqacharoq muhit bo‘lsa. Oddiy katakkatak dasturxon, oddiy cheti uchgan taqsimchalar bo‘lsa. Hamishalik kartoshkasi bilan oddiy bifshteks bo‘lsa.

Alamim tez orada tarqadi.

Sohil bo‘yidagi qahvaxonaga kirib soyaladim-da, plyajda qilgan xarajatim jazosiga bitta buterbrod-u bitta pivo bilan chegaralandim.

Uzun va yumshoq kulchani kavshab o‘tirarkanman, kallam tiniqlashib, yana savobli niyatlargacha to‘la boshladi. „Tentaklik qilganing yetar, – dedim men, bu kun davomida uchinchi marta. – Hozir shaharga jo‘na. Ikkiti ibodatxonani ko‘rishga ulgurasan. Ertadan esa hech qanday tob tashlashsiz, rejani qattiq ushlaysan“

O‘rnimdan endi tura boshlagan edimki, anavi ikkovi ko‘rinib qoldi. Ular men tomonga qadam ranjida qilmoq-

da edilar. Qiz xo'mraygancha oldinroqda kelar, yalinchchoqlik bilan allanarsalar deyayotgan chol esa orqasida sudralib, qo'lidan ushlar moqchi bo'lardi. O'tirgan stolimning deyarli ro'parasiga kelishganda noma'lum sohibjamol cholga o'girildi-da, baqirgudek xitob qildi:

- Tinch qo'yasizmi-yo'qmi meni?
  - Menga qarang, menga qarang... – shivirladi chol.
  - Tinch qo'yasizmi-yo'qmi?
  - Voy tavba, bir daqiqaga axir...
- „Ilk mojarolar“, – dedim ichimda.

Shu payt atrofga yordam so'ragandek alanglagan qizning nigohi menda to'xtadi. Nigohida qanday ma'no borligini bilmayman-u, ammo o'rnimdan turib cholga asta yaqinlashdim.

- Xonimni o'z holiga qo'ying, – dedim unga. – Shu issiqda ham xotinlarning ortidan quvadimi odam?
- Kimsiz o'zi? Men sizni tanimayman! – to'ng'il-ladi u.
- Men ham sizni tanimayman. Lekin baribir bunaqa issiqda, ayniqsa, sizning yoshingizda dam olib yotgan ma'qul, – deb maslahat berdim...

So'ng uning tirsagidan yuqorirog'ini ushlab, to qizning tirsagini qo'yvorguncha siqa boshladim. Qahvaxona eshidiga turgan ofitsiant mudragancha mojaromizni tomosha qilardi.

- Bu xonim mening tanishim, – dedim, o'sha ofitsiantga qarata. – Marhamat, xonim, mening stolimga o'tirasizmi?

Qiz andak o'zini yo'qotib bir qaradi-yu, so'ng men taklif qilgan stulga o'tirdi. Yonidagi stulga men ham cho'kdim. Chol serraygancha yo'lakda turib qoldi. Uning nigohi ikonalardagi avliyolarnikidan ham battar

qahrlanib ketgandi. Nihoyat, u hech qanday ilinj qolmaganini tushundi. „Yaramas“ degan ma’noda to’ng‘illab, burilib qaytib ketdi.

– Xayr, yaxshi yotib turing! – dedim uning ortidan, so’ng qizga o‘girildim:

- Sizga nima buyuray?
- Hech narsa.

Chol bilan bo‘lib o‘tgan mojaroning ta’siri chehrasidan ko‘rinib turardi.

– Bir narsa buyurish kerak, axir. Modomiki mening taklifimni qabul qildingiz...

– Bilasizmi, afandim... Men hech kimning taklifini qabul qilganim yo‘q. Men faqat bir xira hamrohdan qutulmoqchi edim. Biridan qutulib ikkinchisiga duch kelmagandirman har holda?..

- Xotirjam bo‘ling. Xo‘s, nima buyuray?
- Pivo...
- Garson, bitta pivo!

Turqim badxoh va istehzoli qiyofa kasb etgani uchun qiz xavotirlanib menga sekin qarab qo‘ydi.

– Meni kechirasiz, bu yerda surbetlardan qutulolmay siqilib ketasan.

– Qutulishning iloji bor, – dedim men keskin ohangda.

- Qanday iloj ekan?
- Yolg‘iz ovqatlanish.
- Bu sizning ishingiz emas.

– Juda to‘g‘ri. Lekin gap men haqimda emas, siz haqingizda boryapti. Chiroyli ayollar boshlariga tushgan baloning uchdan ikki qismiga o‘zları aybdor bo‘ladilar.

Qiz mening orqavarotdan keltirgan maqtovimga be-farq qarab, pivodan bir ho‘plam ichdi:

– Ularning o‘zлari erkaklarni ilashishga undaydilar, demoqchimisiz?

– Shunday tushunish ham mumkin. Bundan tashqa-ri, ilashmoqchi bo‘lmagan odamni ham ilashyapti, deb havolana dilar.

– Bunaqa gapni birinchi eshitishim.

– Kelajakda e’tiborga olib qo‘ying.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi qiz o‘rnidan turib. – Rahmat.

Pivo uchun ham, maslahat uchun ham.

– Arzimaydi. Kuzatib qo‘yishga ruxsat etasizmi?

– Yo‘q, tashvish tortmang. Yo‘lim yaqin.

– Mayli, o‘zingiz bilasiz.

Men u bir ho‘plagan krujkaga ma’nisiz tikilib pi-cha o‘tirdim. Qizning labi tekkan joydagи ko‘pik andak pasaygandi. Hech ichgim kelmasa-da, undan qolgan pivoni bir ko‘tarib simirvorishdek ahmoqona istak qur-shadi meni.

„Qiziq...“ – o‘yladim men.

„Nimasi qiziq?“

„Bu ayol bugunning o‘zida to‘rt marta ro‘baro‘ keldi“.

„To‘g‘ri... Demak, taqdir o‘zi seni go‘zal tomonga qarab itaryapti. Sen esa bunday ajoyibotdan og‘zingni ochib hayron qolyapsan, Lidodek zaminning kichkina bir parchasida odamlar bir-birini o‘n martalab ko‘rishsa-da, hayron bo‘lishmaydi“.

„Bo‘pti, o‘chir ovozingni“.

„Ha xo‘p, to‘rt marta ro‘para kelsang nima qip-ti. Qirq marta ro‘para kelmaysanmi! Uning o‘zi senga hech bo‘lmaganda bitta uchrashuv va’da qilmadi-ku, to‘g‘rimi?“

„Bo‘pti, bas“, dedim va yana krujkaga tikilib qol-dim.

Shaharga tushdan keyin qaytdim. Rejalarimni amalga oshirmayotganidan vijdonim azoblanib mehmonxonaga yaqin joylashgan Koza d'Oroni tomosha qildim. Ko'hna obidaning marmar to'shamalari, zamon ta'sirida uvadalana boshlagan nim qorong'i zallarini shoshilmay aylanib chiqdim. Har bir gobelen, har bir surat oldida to'xtab, haqiqatan ham sinchiklab o'rganishga qancha vaqt kerak bo'lsa shuncha sarf qilardim-u, aslida, hech narsani ko'rmasdim, tushunmasdim, xayolim butunlay boshqa yoqda edi.

Ko'chaga chiqqanimda quyosh bota boshlagan va uzunchoq binafsharang bulutlar qoplagan osmon qora-yib kelardi. Oq marmarlar yashillashib sovuqlashgan, kanalning suvi ham qop-qora edi. Hatto Venetsiyada ham yolg'izlik og'ir qismat ekanligini tushundim.

Ertasiga ertalab kemachani uzoq kutdim. To'g'ri, shunday tumshug'imning ostidan ketma-ket uchta kemacha to'xtab o'tib ketdi. Lekin ichida men kutgan qiz bo'lmagani uchun ularga chiqmadim. Nihoyat, qiz to'rtinchi kemada keldi. U kayutaning soyasida o'tirardi.

– Tasodifni qarang, – dedim men uning oldiga borib. – Sog'liqlaringiz yaxshimi?

Qiz bilinar-bilinmas bosh irg'ab, qisqagina „yaxshi“ deb qo'ydi.

Gap qovushmadi. Men bir necha marta suhbat boshlashga urindim, lekin qiz ko'zini jurnalga qadab olgancha „ha“ yoki „yo'q“ degan javobdan nariga o'tmadni. Qirg'oqqa tushganimizda esa kuzatib qo'yish haqidagi taklifimni keskin rad qildi.

Qizni cho'miladigan joyda ham uchratmadim. Kechagi joyda cholning bir o'zi o'tirardi. Ikkovimiz bir-

birimizga qaramaslikka urinib uzoq kudzik. Ammo qiz kelmadidi.

„Takasaltanglikni yig‘ishtir, ertadan boshlab ishga kirish“ deb buyurdim o‘zimga o‘zim. Lekin darrovgina esim kirib qolishiga aqlim yetmasdi.

Ertasiga ertalab men yana bekatda turib, qiz keladigan kemani kuddim.

– Tasodifni qarang! Sog‘liqlaringiz yaxshimi?

Tamom.

Hamisha ertalab qizni uchratishga muvaffaq bo‘lardim. Ammo u hamisha yotsirar, butun vujudi bilan: „O‘z holimga qo‘y. Vaqtingni behuda ketkazma“, deb turardi. O‘zim ham harakatlarim behuda ekanligini sezardim-u, lekin etak qoqib ketolmasdim. Qizig‘i shunda ediki, nega unchalik o‘jarlik qilayotganimni o‘zim ham tushunmasdim. O‘zimga-o‘zim savol ber-ganimda esa ichimdagি boshqa „menim“ ish orttirib qo‘yib tan olgisi kelmayotgan boladek, miq etib javob bermasdi.

Qiz mendan yuz o‘girmas, o‘zini obqochmasdi. Ammo undan battarini qilardi. Ya’ni xuddi men yo‘qdek, meni ko‘rmayotgandek tutardi o‘zini. Hozir xotiramda yo‘q, beshinchimi-oltinchi kuni oramizda suhbatga o‘xshagan bir narsa bo‘lib o‘tdi.

U kun kemada odam kamroqligi uchun yelka va tirsaklarimni ishga solmasdanoq uning yonidan joy olishga muvaffaq bo‘ldim. Qiz ko‘k-oq yo‘lli kofta va to‘q-ko‘k, dazmol-g‘ijim yubka kiygandi. Umrida arzon mol olmaydigan qizning egnida bu kiyimlar juda kamtar ko‘rinardi. Nima bo‘lganda ham uning tillarang badaniga, to‘q-jigarrang sochlariiga ko‘k rang juda yashgandi.

– Mopassan... – deb g‘o‘ldiradim qo‘lidagi kitobni ko‘rib. – Juda zo‘r. Ammo kinoroman bilan Mopassanning farqi yo‘q. Unisi ham, bunisi ham sevgi haqida, to‘g‘rimi?

Ixtiyorimdan tashqari gaplarim kinoyali chiqardi. Chunki uning dimog‘dorligidan tug‘ilgan achchiqlanishim sababini bilib ololmasdim.

Qiz ham past tushmay kinoyaga monand javob berdi:

– Sizga muhabbat haqida gapirilsa bas, qolganining farqi yo‘q, shundaymi?

– Nega endi? Men kinoromanlarni umuman o‘qimayman.

– Kinoroman o‘qib unga ishonmaslik odamning o‘z ixtiyorida, – dedi vazmin ohangda qiz, peshonasiga tushgan soch tolasini tuzatib. – Ammo Mopassanni o‘qib turib tushunmaslik ham mumkin.

– Siz uni tushunayotganingizdan umidvorman.

– Men ham.

Qiz to‘rsillab shunday dedi-da, yana kitobini ochdi. Suhbat ko‘ngilsizlik ko‘chasiga burilgani uchun davom ettirish befoyda edi.

Kemaning motori qattiqroq tarilladi. Biz Dukale Palatssosi bekatiga yaqinlashayotgan edik. Motor o‘chib, chiptachi arqon tashlagach, bir xil odamlar tushdi, boshqalari chiqib joylashdi. Motori yana tarillab bekatdan uzoqlashgan kema, izi bilan sokin qo‘ltiqda keng yoy yasab Lido tomon yo‘l oldi. U suvni keng egat olgandek kesib ketarkan, oldida paydo bo‘ladigan katta to‘lqinlarni umr bo‘yi itarib yurishga mahkum etilgan maxluqqa o‘xshardi.

Qiz mutolaada davom etardi. Kitobning o‘qilmagan sahifalaridan ozgina qolgandi-yu, lekin o‘qib borsa Lidogacha yetardi.

– Qizni o‘g‘irlashgan joyigacha borgandirsiz? – dedim men, kemaning orqasida qolayotgan egatdan ko‘z uzmay.

– Xuddi shu joyni o‘qiyapman, – deb javob berdi u va boshini ko‘tarib jilmaydi.

– Bu jonginamning ablahligini qarang-a? – dedim men, xuddi gap tanishimiz ustida borayotgandek qilib.

– Boshqa ko‘pchilik erkaklardan farqi yo‘q, – javob berdi qiz hissiz ohangda.

– Ko‘pchilik erkaklar ham shunaqa, deb o‘ylaysizmi?

– Ha, men shunday deb o‘ylayman.

Qiz yana kitobga engashdi. Hammasidan ham uning mana shu o‘ziga ishonganligi jig‘imga tegardi.

– Siz bunday deyishingiz bilan ko‘pchilik erkaklar emas, o‘zingizning tanish-bilishlaringiz yomon odamligini bildirasiz, xolos. Ko‘pchiligi emish! Siz qayerdan bila qoldingiz, a?

Qiz javob berishni ravo ko‘rmay o‘qishda davom etdi.

– Sirasini aytganda, haq bo‘lishingiz mumkin. Ha, aslida, ham haqsiz. Chunki siz ma’lum davra odamlari haqida gapiryapsiz. U davrada esa har bir erkak nimadir yilib qolishga, boshqasidan yuqoriroq ko‘tarilishga tirishadi. Turgan gap, u davrada xotinlar ham muvafqiyat qozonishning bir vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Men qizning eshitmayotganligiga komil ishonch bilan yuqoridagidek mazmunda yana biroz falsafa so‘qidim. Kutilmaganda qiz menga qaradi-da, biroz tikilib turib so‘radi:

– Sizning davrangiz deyapsiz... Boshqa davra ham bormi o‘zi?

— Albatta bor. Bir kunmas-bir kun kelib, davralar emas, butun jamiyat ham boshqacha bo‘lib o‘zgaradi. Xudbinlik bilan ochko‘zlik esa tushuntirish xatlari bilan muzeylarga qo‘yib qo‘yiladi.

— Qachon? Bir yil qoldimi? Yoki ikki yilmi?

— O, xavotir olmang! Menimcha, bu unchalik tez ro‘y bermaydi va ota-onangizning mol-mulki ham ho-zircha daxlsiz qoladi.

U istehzoli jilmaydi:

— Ota-onamning mol-mulki meni xavotirga solmaydi. Ammo uzoq kelajak zamonlarda nimalar bo‘lishi ham qiziqtirmaydi. Chunki biz hozirgi zamonda yasha-yapmiz, to‘g‘rimi?

Qiz shunday deb yana kitobga muk tushdi.

Lidoga borganimizda biz bitta avtobusga o‘tirdik. Plyaj bekatiga yetganimizda yo‘l bergandim, u bosh chayqab, tushmasligini bildirdi.

— Cho‘milgani bormaysizmi? Chekkaroqda bo‘sh joylar bo‘lishi mumkin.

— Hozir borolmayman. Ehtimol, kechroq kelarman.

„O‘zing bilasan, — dedim ichimda avtobusdan tushib plyaj g‘aznasi tomon yo‘l olarkanman. — Meni sen emas — dengiz qiziqtiradi. Dengiz esa joyida turgan-dir...“

Avvalgi kunlardagidek plyajning chekkasidan joy oldim. Menden quyiroqdan chol joy olgandi. Jigarrang badani qat-qat yig‘ilib turgan bu kishi havodagi yod to‘yinmasi bilan xotinini o‘lgudek qo‘rqitib yuborgan shekilli, hamisha bir o‘zi keladigan bo‘lib qolgandi. Men oftobda kuyib qolganim uchun ko‘proq soyalardim yoki cho‘milardim.

Qiz ko‘rinmasdi. Sohilning to‘lqin yuvib turadigan

yeridan yurgim kelib qoldi. Niyatimni amalga oshirib, bir-bir qadam bosib ketarkanman, qumning zich va salqinligi, ko‘pikli to‘lqinning kelib urilishi oyoqlarimga xush yoqardi. Suv bilan birga oyoqlarim ostidan qum zarralari ham sirg‘alib o‘tardi.

Plyaj har doimgidek, xuddi tig‘iz ekilganga o‘xshab inson badanlariga tiqilib ketgandi. Odamlar meni loqayd kuzatadilar.

Aftidan, uzoq yurdim, shekilli, dengiz bo‘yida tizzalarini quchib o‘tirgan qizga ko‘zim tushdi. U ham meni ko‘rdi.

„Qochib yuribman, de? Yaxshi. Yashirinib yo‘q bo‘lib ketmaysanmi!“ Indamay o‘tib ketishga qaror qilgandim, mendan ko‘z uzmay turganini ko‘rib, aynidim. Uning yuzi jiddiy, ammo ko‘zlar kulimsirab turardi.

– Tavba, – dedim yurishdan to‘xtab. – Juda yaxshi joyni topibsiz. Men yo‘q bo‘lgan joyni demoqchiman.

– Joyni men emas, xizmatkor bola tanlaydi. Men uchun joyning joydan farqi yo‘q.

Qizning o‘zini obqoqchishidan, „joyni joydan farqi yo‘q“ deganidan xafa bo‘lishim kerak edi. Yo‘limda davom etishim kerak edi. Lekin burilib yoniga o‘tirdim. Vujudimda ahmoqona sevinch ko‘pirardi.

– Kitobni o‘qib bitirdingizmi? – so‘radim nimadir deyish uchun. Qiz orqasidagi soyabon tarafga ishora qildi.

– Bitirdim. O‘qiyman desangiz berib turishim mumkin.

– Ming bor tashakkur. Jonginamingiz bilan shug‘ul lanishga zarracha xohishim yo‘q.

– Nega endi meniki bo‘larkan?

– Chunki erkaklarning hammasini shunday tasavvur qilasiz. Men esa oddiy odamlarni xush ko‘raman.

– Qanaqa bo‘ladi u – oddiy odam deganingiz?

– Qanaqa deysizmi? – Men javob berishga qiynalib, kiftimni uchirdim. – Masalan... menga o‘xshagan.

– Siz qanaqasiz?

„Shu daqiqada qanaqaligimni senga gapirib o‘tirmayman. Qarz joyim yo‘q“.

– Xo‘sh, oddiy odamingiz qanaqa bo‘lishini aytинг?

Uning savolida sabrsizlik, qiziquvchanlik emas, odamni mazax qilish ohangi bor edi.

– Men sizga aniq ifodasini aytolmayman. Ammo oddiy odam bir ayolga faqat sevib qolsagina iltifot qildi. Boshqa hech qanaqa tamasi bo‘lmaydi. Men sizga yengil-yelpi ko‘ngil ochish haqida emas, jiddiy tuyg‘u haqida gapiryapman.

– E-ha, tushundim, ulkan muhabbat tuyg‘usi, – dedi qiz kinoyali ma’noda bosh chayqab. – Demak, sizning-cha, oddiy odam Mopassanning emas, kinoroman qahramonlariga loyiq ekan. Chunki ularda hamisha ulkan muhabbat haqida gapiriladi. Qiziq, unda nega siz kinoromanlarni yomon ko‘rasiz?

– Qo‘ysangiz-chi! Kinoromanlar ahmoqona narsa! U yerda muhabbat haqida gapiriladi, xołos. Voqealar esa, aslida, pul atrofida rivojlanadi. Yigit o‘lgudek oshiqlib tasvirlanadi. U oshiqligidan tashqari, o‘lgudek go‘zal va boz ustiga nihoyatda boy. Mabodo kambag‘al bo‘lsa ham sevgilisining puli ikkoviga yetadigan qilib tasvirlanadi.

– U holda, agar qarshililingiz bo‘lmasa, yuring bitta cho‘milib kelaylik.

Qiz o'rnidan turdi. Dono fikrlarim zig'irchalik qiziqtirmayotganining namoyishi edi bu.

— Borasizmi cho'milgani? Oftobda o'tiraverish sizga foyda keltirmaydi.

Haqiqatda ham terim kuygandi. Qizil dog' bosgan badan bilan unga mos juft bo'lib yurishdan uyalib ketdim.

Biz uzoq vaqt suzib yurdik-da, mening soyabonim oldidan chiqdik. O'z joyida yotgan chol, yonidan o'tib ketayotganimizda qizga hurmat bilan ta'zim qildi. Qiz uni ko'rmaslikka oldi.

— Soyaga o'tiraylik, — dedim men soyabonimni ko'r-satib.

— Soat necha bo'ldi?

Men javob berdim.

— Vaqtim tugadi. Buguncha yetar.

— Bo'lmasa birga ovqatlansak bo'larmidi?

Qiz befoyda urinishimga hayron qolib qaragandi, yana jahlim chiqdi:

— Albatta, sizga manzur bo'lsa...

Chol bizga yarim o'girilib o'tirar va, aftidan, gap poylayotgani ko'riniib turardi. Qiz u tarafga bir ko'z tashladi. Keyin menga bosh irg'adi.

— Mayli. Chiqaverishda kutib turing.

Qiz bir necha qadam bosishga ulgurmay, chol kul-gili ravishda dikonglab chopib unga yetib oldi. Uning gaplarini eshitmasdim-u, ammo yalinchoq va uyalgan qiyofasini hamda „Nahotki, siz meni shunday deb o'yladingiz“, ma'nosini bildirib ko'ksida turgan qo'lini ko'rib turardim. Qiz unga ensasi qotib bir qaradi-yu, yonidan o'tib ketdi. Men narsalarimni yig'ishtira boshladim.

Qizni uzoq kutganimga qaramay, bu safar achchiqlanmadim.

Nihoyat, xotirjam, durkun, sochlari sarishta taralgan holda paydo bo'ldi.

– „Eksselsior“gami? – deb so'radim jindek shirinsuxanlik bilan.

– „Eksselsior“ga borish shartmi? Ikkovimiz o'tirgan joyga bora qolaylik.

– Qahvaxonagami?

– Ha. Nima qipti? Taomning xilma-xilligi meni mutlaqo qiziqtirmaydi.

Ayollar sezgir bo'lishadi. Aftidan, u mening unchallik puldor emasligimni tushungan, shekilli.

– Menga qarang, – dedim sal dag'aldoq ohangda. – Agar „Eksselsior“ yoki shunga o'xshagan biron ta restoranda ovqatlanish meni xonavayron qiladi, deb o'ylasangiz...

– Hech narsa deb o'ylayotganim yo'q. Buterbrod bilan bir krujka pivoni ko'nglim tusab qoldi, xolos. Qomatni asrash, degan gapni tushunarsiz?

– Bir necha kun davomida qomatingizni saqlash haqida qayg'urmadingiz chog'i?

– Demak, endi ikki karra ko'proq qayg'urishim kerak.

Bir necha daqiqadan keyin biz allaqachon qahvaxonaning sap-sariq soyaboni ostida o'tirib buterbrod yerdik. Tanovulni tugatayotgan paytda o'tirgan peshayvonimiz oldiga chol yaqinlashdi. U bizlarga, aniqrog'i, hamrohimga qarab hurmat bilan ta'zim qildi-da, o'tib ketdi.

– Agar bu chol jig'ingizga tegayotgan bo'lsa, ayting, basharasini bejab tashlay.

U birinchi marta xuddi yosh qizaloqdek ochilib, qo'ng'iroq ovozda kulib yubordi. Uning jiddiy, hamisha qovoq uyub yurishini ko'rgan odam bunday kulishi mumkin deb hech tasavvur qilolmasdi.

– Birovning basharasiga tajovuz qiladigan sabab ko'rmayapman men.

– Lekin u sizga o'z qalbini taklif etish ma'nosida nimalardir dedi menimcha?

– Ha endi, shunga o'xshagan, – dedi qiz mavhumroq qilib.

„O'z xotini bu yoqda turgan bu churuk ahmoq!“ deb aytmoqchi bo'ldim-u, maydakashlikka o'tib ketmaslik uchun:

– Ko'rinishdan puldorga o'xshaydi, – deb qo'ydim, xolos.

– Ha, boy bo'lishi kerak.

– Hamma narsani pulga sotib olish mumkin, deb o'ylaganlari uchun ham bunday nusxalarни yomon ko'raman...

Shu mazmunda yana nimalardir demoqchi bo'ldim-u, lekin birdan qizning ham o'sha davraga taalluqli ekanligini o'ylab qoldim. Buterbrod chaynab o'tirib, masalaning bu tomoni yodimdan ko'tarilgan ekan.

– Pul bilan rostdan ham ko'p narsaga erishsa bo'la-di, – dedi qiz quruqqina qilib. – Sizning jahlingiz esa – pulingiz yo'qligi uchun chiqadi.

– Pulim bor-yo'qligini qayerdan bilasiz?

Qiz menga yengil istehzo bilan boqdi:

– O'zingizni o'ta sirli odamdek tutmang. Shishadek hamma sir-asroringiz ko'rrib turibdi, – qiz shunday derkan o'zining bo'yalgan tirnog'i bilan katta qadahni

beparvo chertib qo‘ydi. – „Eksselsior“ plyajida ko‘nglingizga sig‘gancha sayr etishingiz mumkin. Biroq baribir, u yerning tub mijozlari bilan hech qachon qo‘shilolmaysiz.

Siz ulardan boshqachasiz.

– Nega endi?

– Xuddi ana shu savolningizning o‘zi ham bunga isbot. Savolningizning javobini tushuntirib bo‘lmaydi, u o‘zidan o‘zi ko‘rinib turadi. Boy, aslzoda odamning gap-so‘zi, o‘zini tutishi, kiyimining bichimi – hamma-hammasi siznikidan boshqacha bo‘ladi, tushunyapsizmi? Bu bilinib turadi. Siz esa uni sezolmaysiz ham. Siz yo anarchist, yo kommunist, yo shunga o‘xshagan bir odamsiz. Bu yerlarga esa qandaydir chalkashlik tufayli kelib qolgansiz.

– Shu darajada past nusxa bilan bir stolda o‘tirishga jazm qilganingiz g‘alati...

– Boylarni yomon ko‘rib, ertadan kechgacha ularning orasida o‘ralashib yurishidan ko‘ra g‘alati emas shekilli?

– Meniki oddiy qiziqish, – dedim men.

– Tasavvur qilingki, meniki ham shu – oddiy qiziqish.

– Tasavvur qilolmayman-da! Siz har qanday qiziqishdan yuqori turasiz. Siz – olimp ‘ma’budasidek xotirjam va kimsa yetisholmaydigan, atrofida ivirsib yurganlar go‘yoki qurt-qumursqadek zarracha e’tiboriga arzitmaydigan odamda oddiy qiziqish bo‘lishi mumkinligini tasavvur etolmayman!

– Menimcha, sizga oftob yomon ta’sir qilibdi, – dedi u muloyim ohangda. – Ortiqcha hayajonlanmang. Chunki gapingizdan adashib ketyapsiz.

Tajang bo'lib unga qaradim. Lekin rostdan ham qizib, boshim g'uvullay boshlagandi. Oftob urgani rostga o'xshardi.

Qiz stulini orqaga surib, o'rnidan turdi.

– Men boray.

– Ruxsat bering, kuzatib qo'yay?

– Hojati yo'q, yo'lim yaqin.

Qiz bu gapni e'tirozga o'rin qoldirmaydigan quruq ohangda aytdi.

– Hech bo'lmasa ertalab uchrashaylik?

– Nazarimda, hojati yo'q.

– Hech bo'lmasa oddiy qiziqish yuzasidan. Ertaga soat o'nda, bo'ptimi.

– Mehmonxonangizga qaytganingiz tuzuk, – dedi qiz mayin jilmayib. – Menimcha, oftob sizga chindan ham yomon ta'sir qilibdi.

U ketdi.

– „Qaytganingiz tuzuk... qaytganingiz...“ kemada ketar ekanman, uning xotirjam, lekin kinoyaga to'la ovozi quoqlarim ostida jaranglab turardi. O'zini dono, atrofidagilarni aqli zaif bola hisoblab pastga urishini qarang bu ayolning.

Dukale Palatssosi oldida tushib, Santa Zakariya ibodatxonasini tomosha qilgani bordim. Modomiki, noma'lum sohibjamol bilan ish pishmayotgan ekan, rejingga qaytib, boy berilgan imkoniyatning hissasini chiqarishim kerak. Ibodatxona ichi nimqorong'i bo'lib, ulkan va zax devorlari sovuq ufurardi. Hademay bu sovuq suyak-suyaklarimgacha o'tayotganini sezdim. Birozdan keyin badanimda qaltiroq turdi. Darhol ko'-chaga chiqdim. Lekin yoz oftobida ham qaltirashim to'xtamasdi. Bezzgak zo'raydi. „Rostdan ham borib yot-

ganim tuzuk, shekilli“, deb o‘yladim vujudim qaqshab og‘riyotganini yengishga harakat qilib.

Mehmonxonaga zo‘rg‘a yetib bordim, qo‘limga ni-maiki ilingan bo‘lsa, hammasini ustimga tashlab o‘ranib oldim. Yana biroz qaltirab yotganimdan so‘ng isitmam ko‘tarilib ketdi. Miyam chalg‘ib, unda har xil oldi-qochdi fikrlar g‘ujg‘on o‘ynay boshladi. Fikrlarimni harchand yig‘ishga urinmay, harakatim zoye ketdi. Eng muhim fikr esa shunday atorofimda aylanar, lekin sira tutqich bermasdi. Ana shu ayqash-uyqash o‘y ichida qizning kinoyalı kulib turgan ko‘zlarì lip-lip o‘tib qolar-di. „Uchrashamiz, deysizmi? Kasalsiz-ku...“ degan nafis ovozi eshitilardi.

Keyin chalkash fikrlar ichidan izlaganim qalqib chiq-di. Bu qizning chehrasi edi. Avvaliga uning yuzi xira ko‘rinib, so‘ng tiniqlashdi. Ko‘zlaridagi kinoya o‘rnini mehr va muloyimlik egalladi. Mayin ovozi esa: „Keling uchrashaylik... Faqat kechikmang, xo‘pmi?“ derdi.

Men alahsiray boshlagandim.

– Ahvollaringiz yaxshimi? – so‘radim men kayutanning soyasiga o‘tirib. – Tasodifni qarang, sizni yana shu yerda uchratibman-a?

– Rost aytasiz, – dedi qiz. – Tasodifni yaratish uchun ko‘p kutmadingizmi ishqilib?

– Yo‘q, uchta kemani o‘tkazdim, xolos.

Venetsiyaga kelganimdan beri birinchi marta qu-yoshning ertalabdan boshlanadigan jaziramasi ozgina pasaygandi. Uch kun ko‘rpa-to‘sakda yotganim sababli oyoqlarim madorsiz titrar, hayot esa boshqatdan boshlanayotganga o‘xshardi. Uning belgilari bo‘lmish – turli xil bo‘ylari, shamoli, rang-barang jilolari, oftob-u soyasini tashnalik bilan simirardi. Qiz birinchi ko‘rgan kunim-

dagi pushtirang ko‘ylagidaligi uchun tanishuvimiz ham yangitdan boshlanayotganday tuyulardi. Nazarimda, endi oramizda kesatiq va pichinglar bo‘lmaydigandek, qiz esa avvalgidek dimog‘dorlik qilmaydigandek tuyulardi.

Men ham o‘zim bilan o‘zim mushuk-sichqon o‘ynashni yig‘ishtirib, sovuqqonlik bilan shaydo bo‘lib qolganimni va bu shaydoligim qanchalik ahmoqona, boz ustiga qanchalik umidsiz bo‘lib ko‘rinmasin – chin ekanligini mardona tan oldim.

Men ilm ketidan quvgan odamman. Ko‘ngil va his-tuyg‘ularidan ko‘ra aql mezoniga qarab ish tutishga o‘rganib qolganman. Tarki dunyochiman, demoq-chimasman-ku, ammo shu kungacha ayollar bilan munosabatlarim o‘zaro rizolikda, osoyishta va xotirjam boshlangan va xuddi shunday xotirjam rozi-rizolikda yakunlangandi. Hozirgi boshga tushgan sevgi savdosi tamomila boshqacha edi. Ehtimol, bunga boshqacha muhitga tushganim sababchidir. Chunki xira tusli Parijga solishtirganda bu yerda olam ranglari ko‘zni qamashtirardi. Ehtimol, bir maromdag'i ish kunimdan, maktab, kutubxona va Parij qahvaxonalaridan iborat bo‘lgan mustahkam odatlarimdan uzilib, o‘zgacha, kema sahnidek chayqalib turuvchi, muallaq va serjilo muhitga tushib qolganim sabab bo‘lgandir, bilmadim. Balki, o‘sha – peshonamdag'i yolg‘izimni uchratgandirman? Axir har birimizning peshonamizga yozilgan, dunyoning qaysidir burchagiga tashlangan, uni topish esa hammaga ham nasib qilavermaydigan yolg‘izimiz bo‘ladi-ku? Bilmayman. Hech narsani bilmayman. Bilish uchun tuyg‘ularimni kavlashtirishni ham xohlamasdim. Har bir farangida bo‘luvchi dekartona<sup>1</sup> aql mezoni

<sup>1</sup>R.Dekart – fransuz faylasufi.

hech qanday belgi va sado bermasdi. Ko‘chada yurgan eng ahmoq tentakdek oshiq-u shaydo bo‘lib qolgandim – tamom-vassalom! Alahsirab yotgan paytimda anglab olgan yagona narsam shu bo‘ldi.

„Rosmana jigar kabob bo‘lib ketibsiz-ku, – dedi mehmonxona shifokori. – Yuragingiz baquvvat ekan. Juda baquvvat ekan. Bo‘lmasa...“

Men esa, aksincha, eng kasal joyim – yuragim, deb hisoblardim. Vujudimni qiynayotgan isitma-yu damqis-maga qalbimning azobi qo‘sishimcha bo‘lardi. Qizning bor-yo‘g‘i uch yuz metr naridagi kemachada suzib o‘tayotganligini, men esam bekatda turmaganligimni o‘ylaganimda nafasim qaytib ketardi. Axir meni ketib qolgan deb o‘ylashi, o‘zi ham bu keng dunyoning allaqaysi burchagiga yo‘qolishi, keyin uni behuda izlab umr bo‘yi topolmay o‘tishim mumkin edi-da! Yashashning nima qizig‘i bor? Usiz o‘tadigan kunlarimda nima ma’no bor? O‘sha kekkaygan, badxulq, azob-uqubatlarimning chashmasi bo‘lmish – jononimsiz?!

Bezgak paytidagi ayqash-uyqash xayollarim kaleidoskop shishachalaridek bir-biriga to‘qinib-to‘qinib oxirida: „Qiz meni yoqtiradi, ahmoqlik qilib yo‘qotib qo‘ymasam bo‘ldi, hammasi joyiga tushib ketadi“, degan fikr tug‘ilib qolgandi. Isitmam biroz tushib, do‘xtir turishimga qat‘iy yo‘l qo‘ymagan keyingi ikki kunda, men bu savdomdagi „kirim“ va „chiqim“larni hisoblab yotdim. Bezgak yo‘qolib, kallam tiniqlashgani uchun avvalgining aksicha, „chiqim“lar tog‘-tog‘ edi-yu, bironata ham „kirim“ topilmasdi. Topilganda ham barmoq bilan sanarli edi.

Xullas, o‘zim bilan o‘zim suhbatlashib yotarkanman, tasavvurimdagи qizning yuzida paydo bo‘lgan

mehr yana sovib, kiborli tus olgandi. Hozir kemada yonma-yon turgan paytimizda ham u xuddi o'shanday kiborli va sovuq edi.

Kemacha tumshug'ini yashil-jigarrang suvgaga botir-gancha unda aks etayotgan saroylarni, ko'm-ko'k osmon, umuman, serquyosh kun tasvirlarini kesib borardi. Men esam qizning beparvo va begona qiyofasidan ko'z uzmas ekanman, ishqiy savdoyimning oxiri „voy“ligini o'ylab borardim. Lekin shunga qaramay, qizning oldida madorsiz oyoqlarimda chayqalib turarkanman, deyarli baxtiyor edim. Chunki, boyaga aytganimdek, dekartona aqli ovozim o'sha kunlarda in-iniga kirib ketgandi.

– Xo'sh, bezgagingiz o'tib ketdimi? – so'radi qiz.

U menga bor-yo'g'i bir marta ko'z qirini tashlagan bo'lsa ham aftimning za'faronligini, ko'zlarim osti salqiliginu ilg'agandi, shekilli. Umuman, bu qiz ko'rmasa ham hamma narsani sezardi.

– O'tdi. Rahmat, – dedim men. – Yaxshilarning yaxshisi bo'l mish bu dunyomizda hamma narsa o'tkinchi. Kasalga chalinasan, qiynalasan, keyin sog'ayasan va xotirjam bo'lasan.

– Siz uchun hamma narsa xotirjamlik bilan tugar-kan-da?

– Albatta, hamma narsa.

– Oxiridagi muvaffaqiyat yoki mag'lublikning ahamiyati yo'qmi?

– Aslida ham shu-da! Aks holda hayot davom etmasdi va umuman bo'lmasdi.

Qiz bu safar ham o'zi bilan kinojurnal olvolgan ekan, oq sumkasini qo'ltig'iga tiqib, qo'lini bo'shatdi-da, jurnalni ikki bukladi. O'qishga sho'ng'ishdan oldin gap tashladi.

- Siz baxtli ekansiz.
- Nega faqat men. Hamma ham shunday.
- Hamma emas, katta orzu bilan yashamaydigan bazi birovlar shunday.

„Ha, albatta, faqat siz ulkan orzular bilan yashaysiz. Oddiy bandalar xuddi shu zamburug‘ yoki maysaga o‘xshab orzusiz o‘tadi“.

Agar bir necha kun avval bo‘lganda bu gapni shartta basharasiga aytib tanobini tortib qo‘ygan bo‘lardim. Lekin hozir aytolmasdim. Tilimni tiydim. Munosabatlarimiz yangitdan boshlanayotgani uchun buzib qo‘ymaslik lozim edi.

Gapimiz uzilib qoldi. Qiz jurnalga egildi, men esa uning musaffo va mayin yuzini, qalamda chizilgandek tekis qoshlarini, bejirim va xushbichim burnini, lablarini tomosha qila boshladim.

Telbalik bilan oshiqlikni farqi kam deyishadi. Lekin men, o‘sha kuniyoq shunaqangi ayyor, zukko va hisob-kitobli bo‘lib qolgan edimki, shu tobgacha bunday holatni o‘zimda his etmagandim. Hushimga yoqadigan ishni emas, teskarisini qilardim.

„Ehtiyot bo‘l, — derdim o‘zimga. — U yoningda, eng muhimi uni qo‘ldan chiqarib yubormaslik. Qizni begonalashtiradigan, o‘zingdan nari suradigan harakat qilma. U yog‘ini bir amallasa bo‘ladi. Yaxshilarning yaxshisi bo‘lgan bu dunyoda hamma narsani uddadash mumkin“. Bu gaplarimdan meni rol o‘ynagan yoki sun’iy qiyofada oliftagarchilik qilyapti, deb o‘ylash xato bo‘ladi, albatta. Men ehtiyotkor odam edim. Qiz bilan ikkimizning munosabatimiz nozik rishta bilan bog‘langanligini sezganim sababidan rishtaning uzilishini istamasdim.

Bu qiz shilqimlik bilan iltifot ko'rsatganni yoqtirmaydi. Mening unday emasligimni ko'rsin. Bu yerlarda yolg'iz qolganim, u esa yoqimli qiz bo'lgani uchun ortidan yuribman. Buning nimasi yomon? His-tuyg'ular haqida gapirmayman, nokamtar savollar bermayman. U izhori dilni yoqtirmaydi – men ham xuddi shundaylar toifasidanman. Puldor ahmoqlarga qarshi qaratilgan falsafiy karomatlarimga ham chek qo'yaman. Nima ishim bor ular bilan? Meni bu dunyoda qiziqtiradigan yakka-yu yagona narsa shu qiz. Uning kimligi, qayerdanligi mutlaqo ahamiyatsiz.

Qiz yo'l bo'yi indamay jurnal o'qidi. Men yo'l bo'yi o'zim bilan gaplashib, uning barkamol, tiniq, kundek uyg'un qiyofasini yon tomondan tomosha qilib keldim. Faqat avtobusga chiqib, Lidoni kesib o'tib „Eksselsior“ plyajining darvozasida tushganimizda beparvolik bilan:

– Plyajga kirasisizmi? – deb so'radim.

– Birozdan keyin kelaman.

– Meni ko'rmaslik uchun kelishni kechiktirayotgan bo'lsangiz, to'g'risini aytavering. Ishoning, sizga ulfat bo'lishdan o'zimni soqit qilaman. Meni deb quyoshda toblanishdan voz kechmang.

U menga bir qarab, qoshlari chimirildi:

– Bu haqda umuman o'ylamagandim. Ko'ryapsizmi, cho'milish liboslarim ham yo'q? Shundoq borolmayman-ku.

Men har doimgi joyimni egalladim. Bir necha qadam narida oftobga tob bergancha chol yotardi. Terim ko'chib tushgach biroz qoraygan bo'lsa-da, har ehtimolga qarshi soyabon ostiga o'tirdim. Havorang soyabonning soyasi ham havorang bo'lib, yanada salqin va rohatbaxsh tuyulardi.

Soyabonimni o‘rnatayotgan bola uni sharaqlatib ochgan paytda chol o‘girilib, kimnidir izlab, intiq bir nigoh tashladi. Yolg‘izligimni ko‘rgach, ko‘zlarini loqaydlik egalladi. Menga go‘yoki bir buyumga qaragandek qaradi-da, orqasini o‘girib yotib oldi.

„Qizni kutyapsan-a, qarib quyulmagan to‘nka. Kut, kutaver. Kelsa ham seni deb kelmaydi, – dedim ichimda. – Bilaguzukli soatingni, yuxtob ko‘zlarining yaltiratib, ortimizdan o‘laksaxo‘r shoqoldek iz quvib yuribsan. Lekin senga o‘lja yo‘q. Qiz kelsa ham, bilib qo‘y, seni deb kelmaydi. Afsuski, kelishi ham gumon. Ko‘nglim sezib turibdi, kelmaydi“.

Qiz yarim soatlardan keyin keldi. Bolaga mening yonimni ko‘rsatib, muloyim buyurdi:

– Narsalarni shu yerga qo‘ya qoling.

„Shu yerga, – deb qaytardim ichimda. – Mumkin qadar yaqinroq“.

Chol biz tomon o‘girilib, qaddini biroz tikladi-da, hurmat va nazokat bilan ta’zim qildi. Qiz o‘zini ko‘rmaganga soldi.

– Bugun ancha aqlingiz kirib qopti, – dedi qiz qumga cho‘zilib. – Quyosh vannalarini ana shunday boshlash kerak.

– To‘g‘ri aytasiz, afsuski, qanday ish tutishni bir marta teskarisini qilib ko‘rgandan keyin tushunamiz, – mo‘mingina javob qildim men va biroz sukutdan so‘ng qo‘shib qo‘ydim. – Aslida, odamlar ikki marta yashashi lozim edi. Birinchisida yashashni o‘rganib, ikkinchisida amalga oshirardi.

Qiz yengil jilmaydi-yu, fikrimga qo‘shilmadi. Umuman, birovning fikriga qo‘shilish uning fe’liga zid edi.

– Menimcha, hayotni necha martaligi emas, qanday imkoniyatlar bilan boshlapping, qo'lingda dastmoya bormi-yo'qligi muhim.

– Eng qimmatli dastmoya, aslida, tajriba. Afsuski, tajriba odamga kerak bo'lmay qolganda keladi.

– Dastmoya, tajriba – quruq gap, – yana e'tiroz bildirdi qiz.

– Pul demoqchimisiz?

– Aytaylik pul ham...

„Sen va senga o'xshaganlar hamma narsani pulga chaqadi. Bizning xudoyimiz ham, mezonimiz ham boshqa“, ichimda qizni shunday ma'noda tergab, tashimda boshqa gap aytdim:

– Orzular ham demoqchisiz, to'g'rimi?

„Haligi, menda yo'q ulkan orzular“.

– Ha, orzular ham, – dedi u irg'ab. – Nimagadir erishish uchun unga qattiq intilish kerak.

Qizning ovozidagi qandaydir qat'iyat meni beixtiyor o'ziga qarattdi. U kafti bilan oldidagi qumni silab, tekislardi. Uzun-uzun bug'doyerang barmoqlari, pishiq qo'llari nigohimni sehrlagandek bo'ldi. Xotirjam va erinchoq harakatlarida aql ilg'amaydigan, lekin teran mazmun borga o'xshaydi.

– Qiziq, – dedim men. – Siz rostdan ham yuksak va kuchli intilishga ega bo'lgan odam ohangida gapiryapsiz!

– Hech qiziq joyi yo'q.

– Menimcha, bu intilishni o'zingizda ataylab yaratayotganga o'xshaysiz. Siz istash mumkin bo'lgan hamma narsaga egasiz, endi bu yog'iga turmushingiz qanday bo'lishini kutish-u tanlashdan o'zga ishingiz yo'q-ku, axir.

– Siz esa kuchli istagingiz yo‘qligidan uning nima-ligini bilmaysiz, shuning uchun baxtiyorsiz, – dedi qiz yengil istehzo bilan.

Keyin qum silashdan to‘xtab, to‘satdan so‘rab qoldi:

– Xo‘sh, bilsam bo‘ladimi, siz, aslida, kimsiz?

„Nega endi men bilan qiziqib qolding? Shishadek ti-niq bo‘lsam, nega so‘rab-surishtiryapsan?“

– Yozgi ta’tilini Venetsiyada o‘tkazayotgan, yang-lishib nojoiz joyga tushib qolgan oddiy o‘qituvchi.

– Hammasi tushunarli, siz kambag‘alsiz. Ammo ki-shini yerga uradigan och va yupun darajada emas. Yetish-movchiliklarga sabot bilan chidash berib, maoshingiz-ning navbatdagi oshish yoki...

Qiz, juda oshirib yubormadimmikin, degandek to‘xtab qolgani uchun o‘zim unga yordamga keldim:

– Xo‘sh-xo‘sh? Yoki?

– Yoki kambag‘al o‘qituvchilardan boylar tortib ol-gan narsalarni qaytarib beradigan inqilobni kutib ya-shaysiz.

U yoshiga nomunosib ravishda kattagap va cho‘rt-kesar edi. Aftidan, boy tabaqadagilarning bari shunday yaratiladi, shekilli.

Qizning bu gapidan keyin portlab ketishimga oz qol-di. Qo‘limni qumga tiqib, ostidagi nam záxlikda biroz ushlab turdim-da, so‘ng sun’iy beparvolik bilan so‘-radim:

– Xo‘sh, siz-chi? Siz nimani kutasiz?

– Bugun izhori dil bilan shug‘ullanamiz, shekilli? – dedi kulib u. – Yuring cho‘milamiz! Qo‘rqmang, sizga zarar qilmaydi.

Keyingroq, cholning og‘ir nigohi kuzatuvida kiyina-

yotgan paytimizda men yana qizni birga ovqatlanishga taklif qildim.

– Mayli, – rozi bo‘ldi u. Faqat o‘sha birinchi marta ovqatlangan joyimizda.

– Ko‘krak qafasimga quvonch to‘layotganini tuydim. Chunki bugungi kun hisobida kichkina bo‘lsa-da, ikkinchi g‘alabaga erishgandim.

Limonrang soyabon ostidagi qahvaxonada ovqatlanar ekanmiz, qizning hayotidan u-bu narsalarni bilib olmoq maqsadida boyagi mavzuni boshlamoqchi bo‘lgandim, u suhbatni boshqa yoqqa burib yubordi. Men o‘sha kuni juda ehtiyyotkor bo‘lganim uchun ortiq tixirlik qilmadim va biz mayda-chuyla narsalar xususida gaplashdik. Qiz, Parij va uning modalari haqida surishtirar va mendek bir o‘qituvchining modani tushunmay bergen javoblaridan miriqib kulardi. Shunda birdan esiga bir narsa tushib qolib, so‘radi:

- Soat necha bo‘ldi?
- Ikkiga yaqinlashdi...
- Vaqt bo‘pqopti.

Uning ortidan turmoqchi edim, qiz ilova qilib to‘xtatdi:

- Kuzatishingizning hojati yo‘q. Yo‘lim yaqin...
- Xo‘p, shaharga qachon qaytasiz.
- Kechqurun.
- Tasodifni qarang, menam kechgacha shu yerda yurmoqchi edim, birga qaytsak bo‘ladimi?
- Birga bo‘lsa – birga-da, – kului qiz. – Tasodif boba bida omadingiz bor ekan.

Xullas, men yarim kun biron ish qilmay Lidoni aylanib yurdim. Yashil, zangori, sariq soyabonlar ostida bir necha marta qahva ichib, do‘kon ko‘rgazmalarini tomosha qilib yurarkanman, o‘zimning kichkina muvaf-

faqiyatlarimni taroziga solib o‘lchardim. Bandargohga kelib, ancha vaqt kuttidim. Lekin bekorchilikdan hech zерикмасдим. О‘йладиган мавзу битта бо‘лса-да, о‘йлашдан чарчамасдим.

Noma’lum sohibjamolim bilan kemaga o‘tirganimizda dengiz ko‘k-binafsha, osmon esa och-yashil tus olib, Veroneze tasvirlagan osmonining ayni o‘ziga aylangan-di. U shunday mayin va tiniq ediki, yuragim hovriqib, Veroneze ham o‘z osmonini chizganda oshiq bo‘lgan deb o‘yladim.

Kemadan Dukale Palatssosida kun g‘ira-shira qorong‘ilashgan paytda tushdik. Odam tovushlariga, neon chiroqlari-yu soyalariga to‘la bo‘lgan tor ko‘chalarda hech qanday maqsadsiz uzoq sayr qildik. Keyin kichkina bog‘ida odamlar raqs tushayotgan bir qahvaxonanining ustidan chiqdik. Orkestr qadimiyo sho‘x bir kuyni chalar, daraxtlarga osilgan qog‘oz fonuslar esa chayqalib turardi.

Bo‘sh stol topib o‘tirdik. Stollar shunchalik kichkina ediki, qizning nafas olishini his qilib, hayajonlanardim.

Biz ham hamma qatori raqs tushdik. Pivo ichdik va yana raqsga tushdik.

Qiz nigohini menga qaratib, sarosimaga tushganim-dan biroz afsuslangandek bo‘ldi, nazarimda.

– Nima qilib turibsiz? – kului u. – Raqsga tushmay-sizmi!

Shu kuni miriqib raqsga tushdik, kunimiz juda ko‘ngilli o‘tdi.

\* \* \*

Mana shu kabi, tungi raqs maydonidagi birgalik-da o‘tgan oqshom men uchun yangi bir olam edi. Uni o‘yab kechasi allamahalgacha uxmlay olmadim. Xona-

ga tushayotgan oy shu'lasi-yu ochiq derazadan eshitilayotgan suvning shildirashi, devorlarga gupullab urilishi – yetib bo'lmas orzudek ko'ringan narsaning shu soniyada yaqin va tabiiy tuyulayotganiga guvoh edilar. Orzumga yetishda hech qanday to'siq yo'q. Tong otib yangi kun kelsa bas. Yangi kun kelmasligi mumkinmi, axir.

Tong saharda turib nonushtani xonaga keltirishlarini buyurdim-da, toshoynaning oldida juda uzoq qolib ketdim. Yuvinib, soqol olgach, tunim bedor o'tganiga qaramay, kechagiga nisbatan ancha odambashara bo'lib qoldim. Oppoq ko'ylak kiyib, uchta galstugimdan eng chiroylisini taqdim. So'ng, kulrang kastumim haqida qizning yaxshi fikr bildirmagani esimga tushib, tangridan kunning salqin kelishini tilab-tilab, to'q-ko'k kastumimni kiydim.

Soat sakkizga zang urganda men allaqachon bekatda kemachaning kelishini kutib turardim. Birinchi kemada qiz yo'q edi. Ikkinchisida ham kelmadi. Uchinchi kemada ham ko'rmadim. Bu la'natni jimitdek kemachalar har chorak soatda qatnar, lekin qiz hamon ko'rinas edi. Naq kunning tig'ida turib, terlab-pishib ketganimdan yoqalarimni bo'shatdim. Turqi-tarovatimning rasmiylici endi birovga kerak emasligi uchun bo'yinbog'imni cho'ntakka solib o'tiraverdim. „Kasal bo'lib qolgandir“, – derdim o'zimni yupatish niyatida. Keyin u Lidoga boshqa – katta kemada ketgan deb qaror qildim.

„Lidoga borib uni axtarib topish kerak“, – dedim bo'shashib.

„Hoy, nimalar deyapsan sen ahmoq? Agar rostdan ham boshqa kemada ketgan bo'lsa, demak, buni sen

bilan uchrashmaslik uchun qilgan. Xo'sh, unda ketidan izg'ib-elanib yurishning nima hojati bor?"

Issiqdan azoblanib, boshimda yana og'riq turdi. Hech kim, hattoki o'zim bilan o'zim ham gaplashgim kelmasdi. Shuning uchun mehmonxonaga qaytib, o'zimni o'ringa tashladim.

„Birinchidan, bo'shashma, ikkinchidan, gimnazi-yachi bola singari masxarabozlik ham qilma, – dedi menga ichimdagi ezma maslahatchi. – Pastga tushib ovqatlangin-da, avvalgi rejani amalga oshir. Kechgacha ikkita qasrni ko'rib ulgurasan. Bu sarguzashtga chek qo'y. Lidoga qatnashni bas qil. To'yib ketdim shu Lidodan“.

Lekin men hasrat va alamga to'lib, o'mimdan qimir-lamasdim. Hech qayoqqa borgim ham, biron ish bilan shug'ullangim ham kelmasdi. Uxlasam, derdim-u, ud-dasidan chiqolmasdim. Yana xastaligim esimga tushdi. Qani endi kasalim qo'zg'asa! Chin dildan shuni istardim. Faqat bir kunga qo'zg'asa-da, ertasiga qiz bilan yana uchrashsam. Balki, u mehribonroq bo'lar. Balki, u menga shunchaki, yuzaki nazar tashlamay, yoqtirgan odamiga ayollar qaragandek qarar va „mendan xafamasmisiz?“ deb savol berar...

Tushlik paytining soyalari devor bo'ylab yuqoriga siljir, menga esa bu harakat mangu davom etayotgan-dek tuyulardi. So'ng oqshom shabadasi esib, deraza pardasini hilpiratdi-da, qorong'i tusha boshladi. Pastdagi restoran ayvonida orkestr muzika chala boshladi. Kuy juda ko'hna va siyqasi chiqqan bo'lib, boshimga tushgan savdoni, umuman, odamzodning bir-biridan ajralishi va unga bog'liq alamlari singari mangu voqealardan hikoya qilayotganga o'xshardi.

Ertasiga o‘rnimdan turishdan avval uzoq to‘lg‘onib yotdim. Shunda ichki ovozim, es-hushingni batamom yo‘qotib, shu qizning qo‘lida o‘yinchoqqa aylanib qoldingmi yoki shart uzib ketishga hali qurbing yetadimi, deb so‘radi.

Yo‘q, qurbim yetmasdi. Chamadondan yangi ko‘ylak chiqardim, to‘q-ko‘k kastumimni kiydim-da, bekatga yo‘l oldim.

Qiz beshinchi kemada keldi. Odatdagidek u kayuta soyasida o‘tirardi.

– Tasodifni qarang, to‘g‘rimi? – dedi u yoniga borib turganimdan keyin.

– Kecha ko‘rinmadingiz? – dedim alamim kuchlili-gidan hazilini qabul qilmay.

– Ha, kecha ko‘rinmadim.

– Sizni bekatda tushgacha kutib o‘tirdim...

Garchi men bu jumlanı xabar ma’nosida aytgan bo‘lsam-da, ovozimda ta’na bor edi.

– Rostdanmi? Kuting deb sizga aytmagandim-ku.

Uning ovozi mayin bo‘lsa-da, so‘zlaridagi qo‘pollik aslo yumshamasdi.

O‘zimni kemamiz bilan yonma-yon ketayotgan, apelsin yuklangan qora barjani qiziqib kuzatayotgan qiyofaga solib indamadim. Garchi sevinchdan dikonglab sakrash uchun sabab bo‘lmasa-da, alamzada ko‘rinishni ham istamasdim.

Ta’na-yu dashnomga qolamanmi, deb xavotirlangan qiz ham jimb qolgandi. Lekin biroz turib, xavotiri behuda ekanligini tushundi, shekilli, cho‘zilib ketgan sukunatni o‘zi buzdi:

– Men sizni xafa qilmoqchi emasdim, – dedi u past ovozda. – Ammo boshidanoq yaxshi bilasizki, bachkana

shilqimlikni yoqtirmayman. Ikkimizning oramizda hech narsa bo‘lmagan va bundan keyin ham bo‘lmaydi.

Bundan ham tushunarliroq lo‘nda izoh topish mumkin emasdi.

– Oramizda hech narsa bo‘lmaganligini uqtirib qo‘yish uchun kecha kelmagan ekansiz-da.

Qiz javob bermadi. Uning go‘zal va menga nisbatan loqayd chehrasiga qarab turib: „Seni o‘sha kuni rostdan ham bag‘rimga bosdimmi yoki menga shunday tuyuldimi?“ deb so‘radim o‘zimdan o‘zim.

Qiz mening savolimni sezgandek gap qotdi:

– Nima deb izohlasangiz – ixtiyorингиз. Ammo o‘sha kungi tasodifiy, hech narsaga arzimaydigan munosabatlardan katta xulosalar chiqarmassiz, deb umid qilaman.

– Xotirjam bo‘ling. Umuman, men siz o‘ylaganchalik shilqim va surbet emasman.

„Shunday qilib, o‘sha kungi voqealar – bir tiyin. Hammasini miyadan sitib chiqarishing kerak ekan“.

Garchi menda „Eksselsior“ istiqomatchilaridagidek takabburlik bo‘lmasa-da, o‘z qadrini bilmaydiganlar toifasiga ham mansub emasman. Agar ilk daf'a qizning shu gaplarini eshitganimda, yengil ta‘zim bajo aylab jo‘navorgan bo‘lardim. Lekin hozirgi savdoda ojizlik qilardim. Ming karra jahlim chiqsin, o‘zimni ming karra koyimay, oyoqlarim beixtiyor qizning qoshiga yetaklab kelaverardi.

Kunning yarmi plyajda, keyin ovqatlanish, kechqurun esa shahargacha kuzatib qo‘yish: mana shu tartibda yana bir necha kunni o‘tkazdik. Har shomda, ikkinchi bekatga bormayman, Venetsiyaga kelishdan asosiy maqsadimga o‘taman deb so‘z olardim-u, ertasiga yana bekatda kema kutib turaverardim. Qiz hayotimdan juda

mustahkam o‘rin olgan va bu holga qarshi kurashishga qudratim yetmasdi.

Yana ehtiyotkor odamga aylandim. Tuyg‘ularimni unga bildirmas, hech narsada jig‘iga tegmasdim. Savollarim nimasi bilandir yoqmayotganini sezsam, darrov mavzuni o‘zgartirardim. Qizga esa, ayniqsa, o‘zi haqidagi, oilasi va davrasi haqidagi savollar yoqmasdi. U hamon men uchun noma'lum: kun bo‘yi birga yuradigan noma'lum sohibjamol edi.

Shunga qaramay, garchi men orzu qilgan mazmunda bo‘lmasa-da, munosabatlarimiz tabiiy ravishda tobora yaqinlasha borardi. Qiz o‘ziga taalluqli masalalarini chetlab o‘tarkan, soddalik bilan mening hayotimga oid tafsilotlarni surishtirib olardi. Universitetga uyg‘onish davri tarixi bo‘yicha o‘qituvchi bo‘lib ishga kirishga ko‘p va behuda uringanimni so‘zlab berganimda u hayron bo‘ldi:

– Qarang-a! Sizni bunaqa ishlarga noqobil deb o‘ylarkanman!

– Siz, umuman, meni tentakdan beriroq, deb hisoblaysiz, to‘g‘rimi?

– Hech ham undaymas. Faqat, baxtli odam deb o‘ylardim. Axir o‘zingiz aytgandingiz-ku, hamma narsada xotirjamlikka erishaman deb... Keyingi gapimizdan xulosa chiqadiki, unaqa emas ekan-da.

– Yo‘q, baribir o‘shanday.

– Nima, siz orzularingizdan voz kechib, taqdirga tan berdingizmi?

– Juda unchalik emas. Hech qachon tan bermasam kerag-u, ammo boshda bo‘ladigan achchiq alam baribir o‘tadi-da. Bilasizmi, avvallari shuni o‘ylab kechalari uxlamasdim, maqsad sari intilish va kurash yo‘llarini

izlardim. Keyin asta sovidim. Seni noloyiq ekanliging uchun emas, g‘oyalaring, mafkurang uchun olishmayapti, g‘oya va mafkura esa sening mohiyatingni tashkil etadi, ularni paltoga o‘xshatib yechib qo‘yish mumkin emas, dedim o‘zimga o‘zim va kafedradan voz kechdim.

– Demak, hozir xotirjamsiz?

– Deyarlik shunday. Har holda men bilan universitet orasida devor borligini tushundim va bu devorni boshim bilan urib teshmoqchi emasman.

Qiz biroz indamay turdi-da, keyin xulosa chiqardi:

– Yo‘q, yanglishmagan ekanman: siz rostdan ham baxtiyor odamsiz.

– Qanchalik baxtiyor yoki baxtiyor emasligini faqat odamning o‘zagina biladi, – dedim men mavhum-roq ohangda va suhbatimiz qahvaxonada bo‘layotgani uchun yana ichimlik buyurtirdim.

Oddiy o‘qituvchi hayotining bu qizga nima qizig‘i borligini tushunolmasam ham, u ko‘pincha suhbatni shu tomonga burganda qarshilik qilmasdim. Aksincha, qiz uchun notanish bo‘lgan hayot haqida xursand bo‘lib hijkoya qilardim. Qizig‘i shuki, o‘z hayotim Lidoning oltin qumlari, ko‘m-ko‘k osmoni, quvnoq quyoshi ichida hijkoya qilingani uchun o‘zimga ham begona va g‘aroyib bo‘lib ko‘rinardi. Bulutli kuz tonglari, hayoda muallaq osilib qolgandek turuvchi Parijning mayda yomg‘iriga to‘yingan tuman, sinfxonalardagi sap-sariq lampochka yorug‘idagi o‘tadigan tarix darslarim, sakkizta salb yurishini aks ettirgan va Nikeya bilan Quddusi Sharif o‘rtasida teshigi bor eski xarita, burchak restoranchadagi bir stakan vino bilan yeyiladigan qovurilgan kartoshkali bifshteks, tushlikdan keyingi qiroatxonadagi o‘qishlarim, qo‘shni o‘rtoqlarim bilan bilyard o‘ynashlar,

kechqurun yana sariq lampochka yorug‘ida mashg‘ul bo‘ladigan Italiya uyg‘onish davriga oid qo‘lyozmam, tun – bularning bari tanish va shu bilan birga xuddi birov hikoya qilayotgandek notanish bo‘lib tuyulardi.

Ayni zamonda, qiz bilan suhbatdan olayotgan uzuquyuluq axborotlar tufayli, begona olamga battar kirib borayotgan edim.

Tungi qimorxona-kazinolar, u yerdagi korchalonning xitoblari-yu suyakdan ishlangan soqqalarning bo‘g‘iq taraqlashi; uyg‘onish davrining liboslarida shampan vinolari suvdek oqiziladigan ballar, Venetsianing ko‘hna qasrlarini samolyotda Afrikadan keltiriladigan orxideyalar bilan bezab o‘tkaziladigan raqs kechalari, konsertlar va muborakbod tashriflar bilan kechadigan Rimning qish mavsumlari – bularning bari tasavvurimga yangitdan kirib g‘ujg‘on o‘ynardi.

Noma’lum sohibjamolim yosh bo‘lgani uchun bu narsalar hali joniga tegib ulgurmagandi. Men esa bu tomosha bazmlarning barida takabburona ahmoqlikdan boshqa narsa ko‘rmasdim. Shu sababdan ham uning, ham o‘zimning dunyomdan bir xilda ajralib qolgandim. Qizning osoyishta chag‘ir ko‘zlariga, qiyosi yo‘q go‘zal yuziga mujassamlashib, meni o‘ziga tobora maftun etayotgan kichkina olamdan bo‘lak atrofimda bironta suyanchiq, tayanadigan bironta aniq narsa yoki tirik jon topolmasdim.

Qiz hamon men uchun mavhum bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, kundan kunga kichik-kichik tafsilotlar orqali uning hayotini bilib borar va u haqda tasavvurim-dagi tumanga asta-sekin oydinlik kiritardim. Qiz kitob o‘qishni yaxshi ko‘rardi. Ko‘p lekin tartibsiz o‘qirdi. Genri Jeymsning romanlarini mayda-chuyda tafsilot-

larigacha aytib bera olardi-yu, ammo bir soatdan keyin „Bovari xonim“ni ochib ko‘rmaganligini tan olishi mumkin edi.

Uning fikr-mulohazalari men uchun juda muhim edi. O‘ylari yoshiga mutlaqo nomutanosib ravishda juda teran, sinchkov va aqlli odamnikiga o‘xshardi. Bu aqlli dunyoqarashi meni lol qoldirar, shu bilan birga yoqmasdi ham. Ba’zilar sog‘ aql deb ataydigan bu dunyoqarash, odamlarga ochiqdan ochiq ishonchsizlik, bemehrlikdan iborat edi.

– Xo‘s, nima istaysiz? – derdi u mening yuqoridagi mazmunda e’tirozlarimga qarshilik bildirib. – Rahmdil tangri bu dunyoni sizga, boz ustiga sizning orzularingiza moslab bichmagan. Mana – u ko‘z oldimizda turibdi. Marhamat qilib, qanday yaratilgan bo‘lsa shundayligicha hazm etishga majbursiz.

– Axir hamma narsaga o‘xshab kishilik dunyosi ham taraqqiy etmoqda!

– Hech narsa taraqqiy etayotgani yo‘q. Hammasi aylanib, qaytarilib yotibdi: quyosh, sayyoralar, odamzod. Yuzaki qaragan kishigagina taraqqiyot ko‘rinishi mumkin. Aslida esa barisi qachonlardir yuz bergen va yana yuz beradigan hodisalar bo‘lib, bu jarayon toki hamma narsa yo‘q bo‘lib changga aylanguncha davom etadi. Tabiat qonuni shu. Qonunni esa siz aytganingiz, paltoga o‘xhatib yechib, bir chekkaga qo‘yib qo‘yish mumkin emas.

– Siz „Sorbonna“ qahvaxonasidagi mutaassib reaktionerga o‘xshab gapiryapsiz.

– Ehtimol. Chunki men har joyda o‘qib olgan narsalarimni gapiryapman. Fikrlarim tesha tegmagan deb da’vo qilmayman-u, ammo to‘g‘riligiga aminman.

Biz shu alfozda cho‘miladigan joydami, norinjrang soyabon ostidami suhbatlasharkanmiz, qiz quyosh sistemasidan kuzgi modaga, pulning yengilmas qudratidan kinoroman uydirmalariga sakrab o‘taverardi. Men esa o‘sha kunlari juda qiynalsam ham unga moslashishga, uningdek yengil-yelpi fikr yuritishga, uningdek beparvo va xotirjam ko‘rinishga harakat qilardim. Qizning ohangdor, xush yoquvchi, iliqqina ovozini tinglarkanman, qolgan kunlarimni hisoblar, hali ham ojiz umid bog‘lab yurgan mo‘jizam yuz bermasligini va yuz berishi mumkin bo‘lgan yolg‘iz narsa oxirgi kuni mehmonxonaga pul to‘lashim, poyezdgta o‘tirishim-u jo‘nab ketishim ekanligini o‘ylardim.

Qiz bilan o‘rtamizdagagi yaqinlikka o‘xshab tuyuluvchi munosabat qalbimni qattiq azoblardi. Chunki bu yaqinlik dunyodagi mayjud bo‘lgan eng yoqimsiz va behuda munosabat edi. Qiz menga o‘rganib, ko‘nikib bormoqda edi. Lekin bu ko‘nikma suhbatdoshga, plyajdagagi yuzaki va bachkana tanishuvga nisbatan edi. Meni rasmli jurnal yoki Mopassan romanlari singari bir narsa deb qabul qilardi. U ko‘ngil ochar, men esa qo‘lida o‘yinchoq edim. U hamma huquqni o‘zi egal-lab, menga bekatda yoki plyajga kiraverishda kutib turish, e’tiroz bildirmaslik, ko‘nglimga yoqadigan gapni gapirmaslik, kechqurun yoki ertalab „Meni kutmang“, „Kelmayman“ deb, quruqqina buyurganda xo‘p deb, bosh irg‘ash singari vazifa va majburiyatlarning hammasini goldirgandi.

Qiz har kuni tushlikdan keyin o‘zining oliy tabaqa-siga oid rasm-rusumlarini bajarish uchun yo‘qolardi. Ba’zan oqshomlari ham kelmas, ba’zan esa kun-uzzukun ko‘rinmay ketardi. Ikkimiz uchrasholmay qolishimizga

zarracha achinmas, yangi uchrashuv istab oshiqmas, lekin shu bilan birga, albatta uchrashajagimizni bilar, mening xuddi tabiat qonunida yozilgandek, kema beka-tida yoki plyaj bo'sag'asida paydo bo'lishimga aniq ishonardi.

Tunlari o'z xonamda ko'zimni moshdek ochgancha parovoz signalini, yuragimning gupullashini, suvning ko'hna toshdevorlarga shaloplab urilishini eshitib yotarkanman, har kuni o'zimga o'zim „bas“ derdim. Uni boshqa ko'rishni istamayman, ertalab ko'ngliga sig'gancha meni kutsin, boshqa birov yoniga kelib: „Yaxshimi-siz? Tasodifni qarang!“ deb aytsin, derdim...

\* \* \*

Mening malikam, aslida, kambag'al bo'lib chiqdi. Zolushkadan ham kambag'al ekan.

Men buni tasodifan bilib qoldim. Bir kuni qiz, meni kutmang, deb aytdi. Men shaharga qaytib keldim-da, o'zi shundoq ham yolg'izlikdan yuragim siqilib yur-ganimdan ibodatxona va qasrlarning nimqorong'iligiga bardosh berolmasligini o'ylab, gavjum savdo rasta-larini bemaqsad keza boshladim. Shunda narxi tushiril-gan mollar do'konida pushtirang matoga ko'zim tushib qoldi.

Men bu matoni ming xil pushtirang va kashtali ma-tolarning ichidan ham tanib olgan bo'lardim. Chunki qiz shu matodan tikilgan ko'yak kiyib yurardi.

„Mumkin emas, u bunaqa do'kondan narsa sotib ol-maydi!“ Ammo u mato, modadan chiqqan, kim biladi necha mavsumdan beri yotgan boshqa narsalar ichida yaxlitgina ko'zga tashlanib turar va uni soatlab baqrayıb kuzatganim bilan o'zgarib qolmasdi.

O‘z xayollarimga g‘arq bo‘lib, gavjumlik ichida tur-tinib-surtinib borarkanman, ko‘zim yarq etib ochilib, ilgari sezmagan narsalarim birdan ravshanlashdi. Axir qizning bor-yo‘g‘i ikki xil: pushtirang ko‘ylak va ko‘k kofta-yubkasidan boshqa kiyimi ko‘rinmadidi-ku. O‘n kun ichida faqat ikki xil kiyimni bo‘g‘jomasi juda kamtar bo‘lgan ayolgina kiyishi mumkin. Hamisha taqib yurgan ametist toshli uzugi ham unchilik qimmat uzuk emas. Boy xonimlar Lidoga yaltirab turgan shaxsiy ve-dettalarida suzib borishganda u hamisha oddiy xalqqa mo‘ljallangan kemachadan foydalanadi. „Eksselsior“da va o‘sha yerdagi boy plyajlarda nima uchun uning bironta ham tanishi yo‘q. Chunki u „Eksselsior“ning mijozi emas, chunki u ham menga o‘xshagan begona.

Bu dalillarni taroziga solarkanman, shuncha vaqt dan beri qizni oliv tabaqaga mansub deb o‘ylab yurganim o‘zimga qiziq tuyulardi. Faqat menga o‘xshagan ko‘zi ko‘r tarix o‘qituvchisigagina u aslzoda xonim bo‘lib ko‘rinishi mumkin edi.

Keyinroq, o‘zimni bunchalik ayblashim noto‘g‘riligini tushundim. Qiz meni kiyim-kechagi bilan emas, Lidoning mijozlaridan o‘zlashtirib olgan damdo‘zligi, kiborligi bilan chalg‘itgan edi. Qiziq, bu maynavozchilik-ning unga nima keragi bor ekan? O‘ziga yot, kekkaygan va sovuq davradan nima izlab yuribdi?

Har tomondan bostirib kelayotgan savollar changalidan aniq yo‘l topishim uchun yana ozgina yayov yurib o‘ylashim lozim edi. Ammo bu shaharda yo‘l yurishning imkonni yo‘q. Qadamingni jadallashtirsang kanalga taqalasan, o‘ngga yoki so‘lga burilsang, yana kanal chiqadi. Xira-yashil kanallari ichida siqilib qolgan ilonizi tor ko‘chalardan, devorlaridan nam va mog‘or ufurib turgan

yerosti yo'laklardan tentirab yurarkanman, bu olamning hammasi ham kallamdag'i girdob singari chalkashlikka o'xshab ko'rinaridi...

– Bufetga borib biron yaxna ichimlik ichmaymizmi? – deb so'radim men, ertasiga plyajda o'z joyimizga o'rnashganimizda.

– Juda chanqagan bo'lsangiz mayli...

– Gap chanqashdamas, anavi nusxa jig'imga tegyapti.

Qiz jilmayish bilan rozilik berdi. O'rnimizdan turib cholning yonidan o'tib ketayotganimizda, yana uning surbetlik bilan kutib yotgan ko'zlariga nazaram tushdi.

– Murdasini baribir g'ajiyman, deb payt poylab yurgan sirtlonga o'xshaydi, – dedim men g'o'ng'illab.

– Ancha bachkana o'xshatish qildingiz, – dedi qiz. – Ayniqsa, murda deganingizda meni nazarda tutgанингизни hisoblasa...

Vaqt erta bo'lgani uchun bufetda deyarli hech kim yo'q ekan. Ofitsiant ikki shisha koka-kola bilan limon va muz bo'laklari aralashtirib solingan ikkita qadah ham olib keldi. Koka-kolaga limon qo'shib sotib, odamni besh baravar shilishardi.

– O'ynoqlab ko'pirishini qarang! – dedi qiz yod rangidagi suyuqlikning vijillashini ko'rsatib. – Naq shamptonning o'zginasi-ya!

O'sha kuni qizning kayfiyati chog' edi.

Men esam boshqa, muhim va hozir oydinlashtirib olish zarur bo'lgan masalani o'ylaganim uchun indamasdim. Qadahimdag'i ichimlikdan bir necha qultum ichib, qizga qaradim. U jilmaydi.

– Esingizdami, – deb astagina va beparvo ohangda

gap boshladim men. – Siz bir kuni menga: „Ekselsior“ mijozlari orasida yurganingiz bilan na ko‘rinishingiz, na odatlaringiz-u qiliqlaringiz ularga o‘xshamaydi, deb aytgandingiz.

– Aytgandim. Xo‘sh, nima bo‘pti?

– Menden farqli o‘laroq, ko‘rinishingiz, odat va qiliqlaringiz ularga o‘xshagani bilan siz ham ularning davrasiga kirmaysiz.

Men yana qadahimdan bir necha qultum ichdim. Qizning yuziga yana damdo‘zlik o‘rnashib, indamay boshqa tarafga qarab oldi. Men gapimda davom etdim:

– Ha, sizning ular davrasiga hech qanday aloqangiz yo‘qligi aniq ko‘rinib turibdi. Lekin nega komediya ko‘rsatib yurganingizga tushunolmayman...

– Hech qanaqa komediya ko‘rsatib yurganim yo‘q, – dedi u xotirjam ohangda. – Biroz turib yana qo‘shimcha qildi: – Ustiga-ustak sizga hisobot berishim shart emas. Hech narsada – bilib qo‘ying.

Agar qiz bu gapni kecha aytganda indamay ichimga yutgan bo‘lardim. Lekin bugun men har qanday ehti-yotkorlikni, hisob-kitobni uloqtirib tashlagandim. Atrofimizda yaslanib yoki sayr qilib yurganlarga qizning aloqador emasligi haqida gap ochganim meni tushovlardan ozod qilib, o‘zligimga qaytargandi.

– Gapimga quloq soling, Menga hech qanday hisob berishingiz shart emas – bu to‘g‘ri. Ammo o‘zingizga hisobot berishga majbursiz. „Bu la’nati joyda nima jin urib yuribman, nima izlayapman? Birovga berishni emas, birovdan urib olishni kasb qilgan bu odamlar menga jilovini tutqazib qo‘yarmidi?“, degan savollarni o‘zingizga bermaysizmi?

– Nima qilishim kerakligiga aralashmay, o‘zimga qo‘yib qo‘ya qoling, – dedi u sovuqqina ohangda.

– Xo‘p, roziman. O‘zingiz hal qiling. Lekin bir narsani bilib qo‘yishingizni istardim. Men sizning qo‘qilishingizni poylab, shartta tashlanmoqchi bo‘lgan murdaxo‘r gazanda emasman. O‘n kun, nari borsa ikki haftadan keyin bu yerdan ketaman. Ammo sizni sevaman, sizning baxtli bo‘lishingizni juda-juda istayman. Modomiki sizga savollar berayotgan ekanman, kelajagingiz uchun qayg‘urayotganimdan, bu yerdan uzoqqa ketib qolganimda, hayotingizni chilparchin qilib qo‘yishingizni o‘ylab qo‘rqqanimdandir...

U menga shoshib qarab, so‘radi:

– Xo‘sh, kelajagim qanday bo‘ladi? Shu cholni ravo ko‘ryapsizmi?

– Cholmi, cholga o‘xshaganmi, buning ahamiyat yo‘q. Umuman, shu to‘daning panjasiga tushib qo‘lishingizdan qo‘rqaman. Nahotki, ularning qanaqaligini bilmasangiz? Agar bir kimsa yoki narsa bilan qiziqib qolsalar, demak, uning o‘zlariga foydali ekanini o‘ylashadi. Foydadon bo‘lak boshqa mezoni yo‘q ularning. Xo‘p, siz go‘zalsiz deylik, ular bir qarashdayoq chiroyingiz restoranda bitta o‘tirishga arziydimi yoki qorako‘zan shubagami, yoki avtomobilgami, darrrov pulga chaqishadi. Ishlari bitgandan keyin sovg‘ani qaytib olish yo‘llarini ham chamarlab qo‘yishadi. Hisob-kitob – ularning xudosi. Bu ularga shajaralarining boshida turgan qassob yoki do‘kondor bobokalonlari dan o‘tgan.

– O‘zingizni bosing, – dedi u mayin ohangda. – Gapingizdan kamroq adashasiz.

– Hazil qilmang. Men jiddiy gapiryapman.

— Ko‘ryapman. Lekin aytayotgan gaplaringiz faqat bu yerdagilarga emas, hamma odamlarga taalluqli. Bu yerdagilarmi, Venetsiyaning iflos, kir mahallalaridami — odamlarning hech farqi yo‘q.

— Farqi bor va juda katta. Bu yerda yalpayib yotganlarning puli ko‘p. Puli jud-d-a ko‘p. Shu sababdan o‘zlarini kuchli, hamma narsaga qodir, hamma narsa mumkin deb o‘ylaydilar...

— Puli yo‘qlar esa, pulsizlikning o‘rnini surbetlik, aldamchilik, zo‘rlik bilan to‘ldirsa bo‘ladi deb hisoblaydilar. Ayol u yerda ham, bu yerda ham o‘lja. Agar, albatta, ahmoq bo‘lsa.

— Yo‘q, noto‘g‘ri. Siz o‘zingizni oqlamoqchisiz, xolos. Menga qulq soling...

Lekin u gapimni betoqatlik bilan kesdi:

— Yo‘q, qulq solishni istamayman.

Qizning andak qizargan yuzlaridan birinchi marta xotirjamlik o‘chgandi. Chag‘ir ko‘zlariga tajanglik o‘rnashib, birinchi marta menga serryayib tik boqardi.

— Mayli, — dedi u xotirjam sovuqqonlik bilan. — Siz meni yoqtirasiz deylik. Do‘stona maslahat beryapsiz ham deylik. Lekin bu maslahatingizning menga nima foydasi borligini o‘yladingizmi? Nima qilaman maslahatingizni? Tarixdan referatmidi sizga. Bu yerda limonad ichib o‘tirib, balandparvoz ohangda gapi rayotgan gaplaringizni men turmushda sinab ko‘rganman. Bolaligimdanoq ko‘p marta boshimdan o‘tkazganman. Shuning uchun bularni sizdan ko‘ra men yaxshi bila man. Boy erkaklarni ham, kambag‘al erkaklarni ham, o‘sha siz aytgan qassoblarni ham juda yaxshi bilaman va xudoga shukrki, shu paytgacha pand-u nasihatla ringizsiz ham ularning adabini berib yurganman.

Men jim o‘tirardim. Jim o‘tirishdan boshqa nima ham qila olardim? Haqiqatda, o‘zim yaxshi bilmaydigan, orqavarotdan eshitib, umumiylasavvurga ega bo‘lgan mavzuda falsafa so‘qigandim-da. Keyin, qiz haqida qayg‘urayotganim rostmi o‘zi? Birovning qayg‘urishiga zor odamga hech o‘xshamaydi-ku? U men bilmagan to-monga suzib ketyapti, lekin juda yaxshi suzib ketyapti, cho‘kadigan siyoqi yo‘q.

– Chanqog‘ingizni qondirdingizmi? – so‘radi qiz. – Turaylik bo‘lmasa. Menimcha, bir shisha koka-kolaga yetaricha vaqt ajratdik.

U yana xotirjam holiga qaytgan bo‘lsa-da, kayfiyati buzilgandi.

Bufetchi bilan hisob-kitob qilgach, sohil bo‘yidagi nam va oyoq botmaydigan qum chizig‘idan qayta boshladik.

– Indamay qoldingiz? – dedi qiz. – Nima balo, mening tashvishlarim tinch qo‘ymayaptimi deyman?..

– Boshqa ilojim yo‘q axir! – men ham uning ohangiga moslab javob berdim.

U kulib yubordi. Lekin kulgisi nosamimiy edi.

– Iqror bo‘ling, sizni mening qayg‘um emas, o‘zingizning sinchkovligingiz qiynayapti. Sizni shishadek tiniqsiz, deganim jahlingizni chiqaryapti. Xohlang-xohlamang, lekin to‘g‘ri izoh shu. Siz hamma narsani tokchalarga tartib bilan terib qo‘yishga odatlangan odamsiz. Tanish-bilishlaringizni ham xuddi o‘quvchilaringizga o‘xhatib: bu yaxshi, bu o‘rtacha, bu yomon deb allaqachon saralab qo‘ygansiz. Meni esa qaysi tokchaga qo‘yishingizni bilmayapsiz. Shundan jahlingiz chiqyapti. Agar qo‘lingizdan kelsa bir tarsaki tortib yoki qulog‘imdan cho‘zib jazolagan bo‘lardingiz.

Qiz yana kului-da, suvgaga tusha boshladidi.

— Balki, rostdan ham jahlim chiqqandir, — dedim men uning ortidan borib. — Lekin jahlimning sababi boshqa yoqda. Men tiniq bo‘lishim mumkin, lekin siz ham juda sirli shaxs emassiz. Sinchkovlik ham qilayot-ganim yo‘q, chunki odam biron narsani bilmasa sinchkovlik qiladi. Men esam sizni boshdan oyog‘ingizgacha bilib oldim. Bilmagan joyimni taxmin qilaman. Xullas, siz haqingizda nimayiki qiziqtirgan bo‘lsa — barini bilib olganman.

Qiz to‘xtab, menga o‘girildi:

— Shunaqami? Bari deganingiz nima, bilsam bo‘-ladimi?

Men undan beriroqda to‘xtab, shu holatda biron narsani tushuntirish juda kulgili bo‘lsa kerak deb o‘yladim. Lekin kulgili ekanligini odam chetdan turib kuzatsagina biladi. Menda esa kuzatishga imkon yo‘q edi.

— Bo‘pti. Modomiki siz talab qilar ekansiz, orani ochiq qilish uchun to‘g‘risini aytaman-qo‘yaman. Siz o‘zingizning barcha rol o‘ynashlaringizga qaramay, miyasi ahmoqona kinoromanlar bilan to‘ldirilgan sodda, go‘l va kambag‘al qizsiz. Siz, taqdir meniga chiroyli chehra ato etgani sababli hamma narsaga birdaniga erishishim mumkin deb o‘ylaysiz. Siz, o‘z tabaqangizdagi odamlardan — ular qo‘pol va surbet bo‘lgani uchun emas, kambag‘alligi uchun, kinolarda-gi havoyi go‘zallarni maftun etadigan narsalarga o‘rab-chirmab tashlashga, boy liboslar olib berishga pullari bo‘lmagani uchun hazar qilasiz. Xullas, nazar-ringizda oliy tabaqaning kiyimiga o‘xshagan libosga o‘ranib, aslida, narxi hemiri matodan ko‘ylak tikib, yirik o‘ljani qo‘lga kiritish ilinjida bu yerdagi boshqa

olamga tashrif buyurasiz-da, o‘zingizni yolg‘iz va kalondimog‘ go‘zal qiyofasiga solib yurasiz. Shunday-mi? To‘g‘ri topdimmi?

Juda qo‘pol gapirogtanimni bilardim, ammo bu qizni yaxshilab silkib o‘ziga keltirmoqchi, osmondan yerga olib tushmoqchi va nihoyat o‘ralib olgan kalondimog‘lik devorini yanchib tashlamoqchi edim.

U mendan achchiq gap eshitishni kutmaganidan, rangi bo‘zarib, og‘zini ochgancha qotib qoldi.

– Unaqamas... unaqamas... – deb takrorladi titroq ovozda. U yana nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, ammo madori yetmadimi, teskari o‘girilib, mening qahrli ovozimdan najot istagandek dengiz tomon keta boshladi.

Uning ortidan borishim befoyda edi. Soyabon ostiga qaytgan zahotim, gapni me’yordan oshirib yuborganim uchun o‘zimdan xafa bo‘ldim. Kecha – kanal, ko‘prik va mahobatli devorlar siquvidagi gavjum ko‘chalarda yurib o‘ylaganimda yig‘ilgan bari gapni to‘kib solibman-da o‘ziyam. „Shu qizni tavba qildirmoq uchun eng alamli aybnomalarni yog‘dirish riyokorlik emas-mi? – deb o‘yladim. Nega uning jig‘iga tegib, sir-asrorlarini kavlashtirasan?“ Yomoni shu-da! Bir odamni sevib qolsak, o‘zimizga ko‘proq joy ochish uchun uning qalbini ag‘dar-to‘ntar qilib, ichidagi tuyg‘ularni boshqatdan joylashtiramiz. Modomski, biz uni sevarkanmiz, u bus-butunicha, o‘zining orzu-istiklari, tuyg‘ulari va o‘tmish xotiralari bilan biznikidir deb o‘ylaymiz va yangi uyga ko‘chib o‘tayotgandek jihozlarni o‘zimizga moslashga haqqimiz bor deb hisoblaymiz.

Noma’lum sohibjamolim qaytib kelganda yana ilgarigidek xotirjam va sovuq qiyofada edi. U xalatiga o‘ra-

nib, biroz dengizga qarab turdi. Keyin xalatini yechib, narsalarini yig‘ishtira boshladi.

– Ketasizmi? – so‘radim men.

U javob bermadi.

– Plyajdan chiqishda kutib turaman.

– Keragi yo‘q. Sizning kutib turishingizni istamayman.

Qiz ketdi. Men narsalarimni yig‘ishtira boshladim. Janjal pishib yetilayotganini sezgan chol, qat-qat va semiz gardanini men tomonga burdi.

„Shoshilma, qari gazanda, – dedim ichimda. – Hali sening vaqting kelgani yo‘q. Balki, senga umuman fur-sat kelmas. Ishingni qilaver“.

Yarim soatdan keyin noma’lum seviklim plyajdan kiyinib, taranib chiqqanda yo‘lini to‘sdim.

– Keting, – dedi u jahl bilan. – Sizni ko‘rishga ko‘zim yo‘q.

Qiz quyoshda yaltirab turgan asfalt yo‘lakdan keta boshladi. Iziga tusharkanman, birinchi kungi cholning ahvolida ekanligimni ko‘z o‘ngimga keltirdim. Qiz jahl bilan indamay ketar, men esa yalinchoqlik bilan gap tashlab unga ergashardim.

– Bir nafas quloq tuting, – dedim qadamimni tez-lashtirib. – Jig‘ingizga tegmoqchi emasman. Ko‘rgingiz kelmayotgan bo‘lsa, umuman yo‘qolib ketishga ham so‘z berishim mumkin. Faqat siz bilan shu ahvolda gi-na-kudurat, yurakda adovat bilan ajralishni istamayaman. Odamga o‘xshab ajralish uchun bir-ikki og‘iz gap aytishga ruxsat eting...

– Aytadiganingizni juda qoyilmaqom qilib aytib bo‘ldingiz! Avvalgi gaplaringizga hech o‘xshamas ekan. Kuni kecha: „Bu qiz oliy tabaqadan, unga nazokatli

muomala qilishim kerak“, deb o‘ylagansiz. Bugun esa, past tabaqadan ekanligimni bilib qolib, mulozamatlar ni itqitib tashlasa ham bo‘laveradi, deb hisobladingiz, shekilli.

– Yo‘q! Yo‘q! Bunday emasligini o‘zingiz ham bila-siz. Bunday qilishim mumkin emas. Bu gaplaringizni boyagi aytganlarimga qasdma-qasdlikka, jahlimni chiqarish uchun aytyapsiz, ha, to‘g‘ri qilyapsiz. Lekin gapimga quloq soling, keyin nima xulosa chiqarsangiz ixtiyorингиз!

Ammo qiz juda qahri kelib ketganidan gap uqolmas va qadamini tobora jadallashtirar, men esam undan ortda qolmas va ikki oradagi luqmalarimiz yuqoridagidek achchiq-tiziq edi. Nihoyat, qiz char-chadimi, rahm qildimi yoki ahvolimizning noqulayligini tushundimi – to‘xtadi. Yarim o‘girilib, tajang ahvolda dedi:

– Ha, bo‘pti. Gapiring, sizdan bir yo‘lasiga qutulib qo‘ya qolay.

– Ko‘chada shundoq turib-a? Birpasga qahvaxonaga kiraylik.

– Qahvaning hojati yo‘q!

– Hech bo‘lmasa soyaga o‘taylik, oftobni qarang!

U haligidek tajang ahvolda namoyishkorona uf tortgach, biz orqaga qarab yurdik. Qimorxonalarining oqkublari, uzun va zerikarli ko‘rgazma zali, allazamon-dagidek tuyulayotgan birinchi uchrashgan do‘konimiz yonidan o‘tib, „Eksselsior“ oldidagi keng kanal bo‘ylab tushgan salqin xiyobonga burildik. Bu yerda – osmono‘par chinorlarning soyasida xotirjam suhbatlashish mumkin edi. Lekin mening gapiradigan gapim qolma-gandi. U bilan ajralishni istamayotganimdan, ya’ni hozir

mutlaqo nojoiz bo‘lgan gapdan boshqa aytadigan gapim yo‘q edi.

Kanal bo‘yidan bir o‘rindiq egallab o‘tirdik. Shunday oyoqlarimiz ostidagi suvda yozgi osmon, yashil daraxtlar, oq imoratlar aks etardi.

– Xo‘s?

– Bilaman, sizga ahamiyati yo‘q, lekin men sizni sevib qolganman. Bir ko‘rishdayoq, telbalarcha sevib qolganman...

– Zig‘irchalik ahamiyati yo‘q...

– Bo‘lmasa ortingizdan izma-iz tentirab yurmasdim. Ming chiroyli bo‘ling, mingta boshqa ortig‘ingiz bo‘lsin, menga yot davraga mansubligingiz uchun, aniqrog‘i, men shunday o‘ylaganim uchun g‘iring demay yonimgizdan o‘tib ketardim. Sizni kemada birinchi uchratgan kunim rostdan ham men uchun baxti qaro kun...

– Boshqa kunlarning undan nimasi yaxshilagini tushunmayapman.

– Men ham tushunmayman. Haqiqatda, kechagidan boshqa hamma kunlar baxtiqarolik edi. Kechagi kungacha butun vujudim qo‘zg‘olon qilib: shu qiz tufayli es-hushingni yo‘qotgan bo‘lsang qip-qizil jinni ekan-san, deb faryod chekardi. Sizning boyligingizga ta’mal bilan emas, ijirg‘anib qarardim. Bugundan boshlab esa ko‘nglim xotirjam. Sizni ikkilanishsiz, vijdon azobisiz sevaman. Chunki sizning ham o‘zim kabi kambag‘al ekanligingizni bilib oldim.

– Yo‘q, – dedi u sovuqqina qilib. – Men sizdan ham kambag‘alman.

– Bu qaytaga yaxshi-ku!

– Jim bo‘ling! Bu juda yomon! Shunchalik yomonki, undan battar narsa bo‘lishi mumkin emas!

Qiz uchun kambag‘allik haqiqatan ham dahshatli narsa ekan. U so‘zlarkan, chehrasida azob, xo‘rlik akslandi. Shu soniyada yuzi butunlay nochor, achinarli holatga kirgandiki, bir qaradim-u, xuddi ta’qiqlangan ishni qilgandek darrov ko‘zimni obqochedim.

– Siz o‘zingizcha, kambag‘allik nimaligini bilaman deb o‘ylaysiz, shekilli. Bekor aytibsiz, hech narsani bilmaysiz. Chunki siz erkak bo‘lib tug‘ilgansiz va siz bilgan kambag‘allik butunlay boshqacha. Dunyoda har qanday noilojlik chegarasidan ham o‘tib ketgan kambag‘alliklar bor... odamni yer bilan bitta qiladi... boshqalarga oyoqosti qiladi... seni nochor, qo‘lingdan hech narsa kelmaydigan, huquqsiz qiladi...

Qiz suvga qaragancha o‘sha, o‘ziga odat bilgan xotirjam va ohista ohangda gapirsa-da, zaminida asabiy taranglik borligini bilganidandan qulog‘imga faryoddekk eshitilardi. Uzoq vaqt ushlab turilgan ko‘zyoshlar achchiq yig‘iga aylana boshlagandek, uning so‘zлari ham tobora to‘lib-toshib kelar, tobora tezlashardi.

– Odamlarga o‘xshab, oliftagarchiliksiz, oddiy kiyining keladi-yu, lekin ag‘darib tikmoqchi bo‘lganindayloq yirtilib ketadigan onangning eski-tuskisini ilib yurishga majbur bo‘lasan. Kechqurun biron narsa o‘qiyman, deysan-u, lekin butun oila a‘zolaring bitta iflos katakka tiqilgani uchun otang chiroqni o‘chirib qo‘yadi. Maktabda o‘qizing keladi, lekin pul yo‘qligi uchun o‘qiyolmaysan... Kattaroq odam, masalan, artist bo‘lging keladi, lekin Rimga borish uchun yo‘lga puling bo‘lmaydi. Kunlardan bir kun senga: „Janob Tosining oldiga bor. Janob Tosi artistlarni shu yerning o‘zida yaratadi“, deb maslahat berishadi. Sen borasan. Janob Tosi o‘ziga o‘xshagan yana ikki kishi

bilan bir qovoqxonada o‘tirib, sahnada raqs tushayotgan beshta o‘yinchini tomosha qilib o‘tirgan bo‘ladi. „Etagingizni ko‘taring, – deydi beparvolik bilan janob Tosi. – Balandroq, balandroq va chaqqonroq ko‘taring! Uyatchang odam mening idoramga to‘g‘ri kelmaydi“. Sen titrab-qaqshab, ko‘zlarining yashirgani joy topolmay, uning aytganini bajarasan. „Yaxshi, – deydi janob Tosi – Endi yechining!“, „Yechingim kelmayapti, men artist bo‘lmoqchiman“, – deysan bazo‘r ovozingni chiqarib. „Artist. Julyettalarni o‘ynamoqchimisiz?“ Sen soddalik bilan bosh irg‘aysan. Janob Tosi osmondan tushgandek qaraydi-da, xaxolab kuladi. Sheriklari esa unga qo‘siladi. „Ha-ha-ha, gapiga qarang. Bu qizcha Julyettani o‘ynar emish. O‘lib qolasan, buning gapi-  
dan...“ Keyin jiddiy qo‘shib qo‘yadi: „Nimani kutyapsiz o‘zi? Vaqtim oz. Yo yechining, yo xonani bo‘shatib qo‘ying. Menga oyoq kerak. Oyoq! Boshqasi – Milandagi La Skalaga sovg‘a bo‘lavarsin“.

Qiz boshini quyi eggancha indamay qoldi. Hikoya-sining davomini esa o‘ziga o‘zi ichida gapiroayotganga o‘xshardi. Chunki erkaklar oldida yechinganini, churuk ich kiyimlarini namoyish etganini, nomus va uyatdan o‘zini qo‘yarga joy topolmaganini gapiishi kerak edi bu yog‘iga.

– Xullas, janob Tosi meni ishga oldi. Julyetta roliga emas, hatto sahna uchun ham emas: qora rangli kombinatsiya, qora rangli paypoq kiyib, stollar orasida sigaretali patnislarni ko‘tarib yurib, mehmonlarga xizmat qilish uchun oldi. Birinchi tundayoq, korxonasi yopilgan paytda janob Tosi meni yechinish xonasida quchoqlab: „Oh, qushcham, hali tajribang yo‘q. Lekin menga yoqasan. O‘zim seni qayiqda uyingga oborib qo‘ya-

man“, dedi. Janob Tosining semiz gavdasidan tamaki va ter hidi kelardi.

Birga ketarkanmiz, u mening qayerda turishimni so‘ramadi ham. Qayiqni San-Simeozu tarafdagи uylardan birining oldida to‘xtatdi. Men darrov qayiqdan sakrab tushdim. Janob Tosi esa semiz bo‘lgani uchun ancha hayalladi va men bundan foydalanim qochib qoldim. Korong‘ida bir o‘rindiq topib, o‘tirib rosa yig‘laganim esimda. Chunki, endi kabarega qaytib bormasligimni va hech qachon artist bo‘lomasligimni bilardim.

Qiz yana jim bo‘lib qoldi. Men ham indamasdim. Endi uning gapiradigan payti kelgandi. Faqat – asl fikrni yashirish uchun aytildigan quruq gaplarning navbatini tugagandi.

– Hamma joyda haqorat va xo‘rlik ko‘rardim. Ayol sifatida menga kim birinchi bo‘lib ko‘z olaytirganini bilasizmi?

Qiz savoliga javob kutib qoraygan chag‘ir ko‘zlarini bilan bir zum qaradi:

– Hech xayolingizga kelmaydi: o‘gay otam. U bir kuni kechasi mast holda qaytdi-da, ertalab barvaqt turdi. Xonani yig‘ishtirayotgandim, yopishib tegajoqlig qildi. Men baqirdim. Onam kelib qoldi-da, otamni butunlay haydab yubordi. Yaramas, ablah va mayxo‘r odam edi. Oh, qani endi bu dunyodagi yaramaslar bitta o‘scha bilan cheklansa! Ijara haqining qimmatligi to‘g‘risida uy egasiga gapirsam: „Agar kelishsak, siz uchun juda ham arzon qilishim mumkin“, deb javob berardi. Molidan uni yoki buni ko‘rsatib, necha pul turadi deb baqqoldan so‘rasam, ko‘zini qisib: „O‘zingizga bog‘liq, tekin bo‘lishi ham mumkin“,

deb javob berardi. Betamiz so‘z, sur nigohlar hamma joyda seni ta’qib qiladi. Kinoga tushsang, albatta, birov kelib qo‘lingdan ushlaydi. Bularning hammasi chiroyli bo‘lganim uchun emas, asosan, kambag‘aldan chiqqanim uchun yuz beradi. Kambag‘al bo‘lgandan keyin ko‘nikish kerak, dimog‘-firog‘ni kim qo‘yibdi, deb o‘ylashadi. Men kirib-chiqmagan ish qolmagan bo‘lsa kerak. G‘aznachi, do‘konda sotuvchi, ofitsiant, kinoda chipta sotuvchi – hamma ishni qilib ko‘rgaman. Lekin birontasida tinch ishlagani qo‘yishmas, butun suvingni siqib olgudek ishlatish bilan qoniqmay, yana shilqimlik qilishardi. Qo‘limda ishlayapsanmi, ko‘nglimdagini bajarishing kerak, deb hisoblashardi. Bir xili birinchi kuniyoq tashlansa, boshqasi odamgar-chilik yuzasidan uch-to‘rt kun yoki bir hafta chidab turardi. Shuning uchun, qayerda bo‘lsa ham uzog‘i bilan uch kun yoki bir hafta ishlardim. Yangi ishga joylashganimdayoq, uzoq ishlolmasligimni bilardim va bir joyga kirgan zahotim boshqa e’lonlarni o‘qib, keyingisiga tayyorgarlik ko‘rib turaverardim. „Yeva, derdilar onam menga, sen juda mag‘rursan. Bizlar ga o‘xshagan kambag‘allarga mag‘rurlik yarashmaydi. To‘g‘ri, chiroylisan. Lekin buning nima foydasi bor? Qiz bola husni tez so‘ladigan narsa. Men ham bir paytlari chiroyli bo‘lganman“. Onam bechora baqqolning yoki shunga o‘xshaganlarning og‘iz solishiha ko‘nishimni istar va buni hamisha ta’kidlab turishni kanda qilmasdilar. Ammo men ko‘nmasdim va bu ko‘nmasligim mag‘rurligimdan emasdi. Modomiki, hayot bir marta berilarkan, u meniki. O‘z bilganimcha yashashim kerak. Birovning aralashishga, xalaqit qilishga haqqi yo‘q, deb hisoblaganimdan edi.

Onam bechoraning miyasiga esa ijara haqi bilan pista yog‘idan boshqa narsa kirmasligi uchun hadeb o‘sha gapni takrorlayverardi va bir kunmas bir kun aytganlariga ko‘nadiganga o‘xshardim. Ammo bir kuni kechqurun o‘gay otam mast holda uyga bostirib kirib, sandiqlarni titkilay boshlaganda, onam uyg‘onib qolibdi. O‘gay otam unga tashlanibdi-da, rosa do‘pposlabdi. Shunday qattiq uribdiki, onam sho‘rlik ikki kunga bormay qazo qildi...

Qiz qo‘llarini ko‘ksida chalishtirgancha suyanchiqqa suyandi-da, iflos xotiralardan forig‘ bo‘lishni kutgandek jim qoldi. Shu soniyada gapirishmas, eslashning o‘zi jirkantiradigan narsalarni ko‘z oldidan o‘tkazayotganini sezib turardim. Biroz turib xayolidagi tug‘yon bosildi, shekilli, gapini davom ettirdi.

– Bir kuni dugonam Emiliya bilan oddiy chit matodan, lekin andazasini fransuz moda jurnalidan olib ko‘ylak tikdi. Ko‘ylakni kiyib ko‘rgandim, nazarimda uni mahallamizdagى chiptasi yuz lira turadigan kinoteatrga kiyib chiqish uvoldek ko‘rindi. Shunda Emiliya, „Lidoga bormaymizmi?“, deb qoldi. Lidoning zo‘r joyligini eshitgandim-u, hech ko‘rmagandim. Xullas, bu yerga keldik. Bu yerdagi ozodalik, sokinlik, kenglik menga juda kuchli ta’sir qildi. Agar siz, „Ha, tushunaman“ yoki „Tasavvur qilaman“ désangiz, g‘irt yolg‘onchi bo‘lasiz. Umri kir-chir va iflosliklar ichida o‘tgan qizaloqqa Lidoning qanday ta’sir qilganini siz hech qachon tushunolmaysiz. Yo‘l-yo‘l pidjak kiygan, hamisha oliftagarchilik bilan miyig‘ida kulganidan labi bir yoqqa qiyshayib turuvchi, og‘zidan faqat so‘kish-u shaloq so‘z chiqadigan go‘rso‘xtalar bu yerda yo‘q edi. Erkaklar bizga hurmat bilan qarashar, gap otishmas-

di. Qahvaxonadaga ofitsiant esa menga „xonim“ deb murojaat qilardi. „Bularning hammasi ko‘ylagimiz tu-fayli“, derdi Emiliya. – Bizni oyimchalar deb o‘ylash-yapti hurmatli „xonim!“ Lidoga qilgan safarimiz uning uchun oddiygina yakshanba hazili ekanidan Emiliya tinmay piqillab kulardi. Men esa aqlim lol qolib, butunlay boshqa xayollarga g‘arq bo‘lgandim va birinchi marta ko‘rganim bu kutilmagan go‘zallik va yangilikdan bebahra qolishni hecham istamasdim. Shushu, biroz pul jamg‘arib bo‘sht vaqt topdim deguncha, bu yerga kelardim. Mahallamizning badbo‘y hididan, qo‘pol yigitlaridan qochib, sohil bo‘yidagi xiyobonda sayr qillardim yoki plyajda o‘tirib dam olib ketardim. Oradan biroz vaqt o‘tgach, bu yerdan ish topishga, boz ustiga vaqtinchalik emas, doimiy ish topishga muvaf-FAQ bo‘ldim. Chunki xo‘jayinim ayol kishi chiqib qoldi. Bor gap shu...

Qiz yana ko‘zlarini yumdi. Uning chehrasiga yana kiborlik alomatlari o‘rnasha boshladи. Iflos xotiralar ni ortda qoldirib, yuzini dengiz shabadasiga tutgancha dam olayotganga o‘xshardi. Meni unutib ham yubordi deb o‘ylagandim, bir payt o‘zi savol berib qoldi:

– Xo‘sht, ko‘nglingiz to‘ldimi?

Men nima deyishni bilmay talmovsiragandim, qiz davom etdi:

– Siz dilingizga yig‘ilgan hamma savol-u gumon-laringizga birdan javob oldingiz. Yoki bularning barini o‘zingiz oldindan bilarmidingiz? Albatta, sizdek sinchkov va zukko odam bilishi ham mumkin.

– Yo‘q, bilmas edim. Tan olaman, hech narsa bilmas edim. Ko‘rshapalakka o‘xshagan ko‘r ekanman.

– Endi-chi?

– Nima „endi?“

– Mana endi ko‘zingiz ochildi, hammasini bilasiz?

Qiz ko‘zlarini qisibroq, yuzini shabadaga tutgancha tik o‘tirardi. Holatini ko‘rib ko‘kragimga iliqlik yoyildida, nozik yelkalarini, mag‘rur bo‘ynini quchib, tasalli bergim keldi.

– Nima deyishimniyam bilmayapman, – chaynaldim men dilimdagi istakni bazo‘r yengib. – Yarim soat ichida esimni teskari qilib yubordingiz. Qanday qilib sizni sevib qolganimga hayron bo‘lib o‘tiribman...

O‘zim sezmagan holda ikki xil ma’no chiqadigan gap aytib yuborganimdan keyin qizning yuzida kinoyali jilmayish paydo bo‘ldi. Men gapimni tuzata boshladim:

– Aytmoqchi edimki, shu paytgacha bolalik qilibman. Shu paytgacha men uchun o‘ta sirli ayol edingiz. Siz haqingizdagি taxminlarim noto‘g‘ri chiqdi. Sizni endi ko‘rayotgandekman, endi inson sifatida kashf etgandekman...

– Xo‘sh?

Qizning yuzidagi kinoya yo‘qolib, kulgining o‘zi qoldi. Meni mazax qilayotganini sezib, to‘nimni teskari kiydim.

– Nimasi xo‘sh?.. Hech narsa, – dedim gap ohangimi ni o‘zgartirib. – Xo‘p, mayli, siz mag‘rursiz. Lekin boshqalarda ham ozmi-ko‘pmi g‘urur borligini unutmang, xo‘pmi?.. Men sizga mazax bo‘lish uchun sevgi izhor qilmoqchi emasman.

Qiz kulib yubordi. Bu safar u yayrab, erkin kulardi. Men esam uni shu soniyada ham bag‘rimga bosgim... ham urgim kelardi.

– Juda yaxshi bo‘pti, – dedi qiz kulgidan to‘xtab. –

Endi yaxshi odamga aylandingiz. Bilasizmi, izhori muhabbat eshitish menga yoqmaydi. Buning ustiga hozir sevgi izhor qilishni ham qotirmasangiz kerak.

– Demak, fikrimiz bir joydan chiqdi. Demak, qahvaxonaga kirib ozgina o‘tirishdan o‘zga ilojimiz qolmadidi, shundaymi?

– Hozir mutlaqo iloji yo‘q, – dedi qiz mening soatimga ko‘z tashlab.

– Yana o‘yin qilyapsizmi?

– Non topishni o‘yin hisoblasangiz... Bir joyda ishlashimni tushunishingiz mumkinmi?

– Ishlash? Qayerda ishlaysiz?

– Siz birinchi kuni plyaj liboslarini sotib olgan do‘konda. Yoz paytida ta’til o‘rniga yarim kun – tushlikdan keyin ishlayman.

– Juda zo‘r! – xitob qildim men. – Siz bilan birga boraman.

– Mutlaqo mumkin emas.

– Nega mumkin emas ekan? Men xarid qilaman. U-bu narsa sotib olishga haqqim bormi-yo‘qmi? Menilmontandagi qorovul xotinga cho‘miladigan libos, amakinga poxol shlapa sotib olaman.

– Maynavozchilikni qo‘ying.

– Xo‘p, mayli. Bo‘lmasa bilib qo‘ying, do‘kon oldida bo‘sashingizni qaqqayib poylab turaman.

– Yana maynavozchilik qilyapsiz. Muyulishgacha kuzatib qo‘ying-da, keyin aqli bola bo‘lib orqangizga qayting. Kutmang. Bugun kechqurun bandman.

– Bo‘lmasa ertaga ertalab kutaman, – dedim bo‘sh kelmay.

– Mayli. Faqat rostdan ham ertaga bo‘lsin, bugun emas.

O'rnimizdan turib, qum sepilgan yo'lakdan orqa-ga qaytdik. Shabada biroz kuchaygan, daraxt soyalari quyuqlashib, yashil tusga kirgandi. Bizni allaqanday sirli shivir-shivirlar ko'mgandek edi. Xiyobondan qaytar ekanmiz, shuncha kundan beri birinchi marta qalbimga xotirjamlik o'rashganini his etardim. Qiz yonimda, xohlasam, kiftim kiftiga tegadi. Oldinda va'da qilingan ertanggi uchrashuv bor.

\* \* \*

„Ertanggi uchrashuv“ga shunchalik ishongan ekanmanki, bekatda zoriqib bir necha soat kutganimdan keyin ham qizning kelmasligiga ishonmasdim.

Kimsasiz bandargoh asta-sekin gavjumlasha boshladi. Vokzal tarafdag'i keng zinapoyadan sumka va chaman-don ko'targan olomon oqib kelar, liq to'la kemachalar dan esa tushlikka qaytgan erkaklar shoshilib tushardilar. Tiqilinch va turtkilar ichida qolib ketdim.

Orqamga o'girila-o'girila, kanalga termila-termila mehmonxonaga qaytdim.

Ertasiga ertalabdan to peshingacha yana bandargoh-da sarg'ayib turdim, biroq qizdan darak bo'lmadi.

„Bu qiz soddaligingdan foydalanib, seni kala-ka qilyapti, – derdi hali batamom uchib ketmagan aql-hushimning qoldiqlari. – Yoki sendan qutulmoq-chi. Axir Lidoda senga o'xshaganlarni deb tentirab yurmasa kerak? Butun xatti-harakatlari shuni ayтиb turibdi-ku?!

Lekin qizdan ko'ngil uzib ketishga qurbim yetmasdi. Boz ustiga o'rtadagi izhori dil suhbatdan keyin.

„Bo'pti, – dedim o'zimga-o'zim. – Ora ochiq. Ammo rostdan ham o'zini mendan olib qochayotganiga amin

bo‘lish uchun avval uni bir ko‘rishim kerak. Ana o‘shanda haqiqatan ham tamom!

Uchinchi kuni ertalab bekatda uzoq kutganimdan keyin kemaga o‘tirdim-da, Lidoga qarab ketdim. Qizigan qumda bolaning izidan ketarkanman, nazarimda, qizning soyabon ostida chol bilanmi yoki boshqa birov bilanmi, o‘tirishi mumkin bo‘lgan tarafga atayin qaramasdim.

Chol o‘z joyida, ammo bir o‘zi o‘tirganini ko‘rib ko‘nglim sal joyiga tushdi. Chol menga bir qarab, shoshilmay orqasini o‘girib oldi.

Narsalarimni soyabonning ostiga qo‘ydim-da, sohil bo‘ylab ho‘l qumni bosib bir tarafga keta boshladim. U yer-bu yerda pushtirang cho‘milish libosi ko‘zimga tashlanar, lekin ular noma’lum sohibjamolimniki emasdi. To‘g‘risini aytsam, qizni uchratmaganimga unchalik betoqatlik sezmasdim. Plyajning deyarli oxiriga borganimda qayerdandir kelgan kulgi ovozini eshitdim-da, kulgi egasini qaramasdanoq tanidim. Agar mingta ayol kulganda ham ularning orasidan uning kulgisini bexato ajratib olgan bo‘lardim.

Men boshimni ko‘tardim.

Qiz mendan bir necha qadam narida, izhori dil qilgan so‘nggi kunimizdagidek holatda, suvning ichida turardi. Ammo bu gal chehrasi kulgidan ochilib ketgan va xuddi shunday xandon otib turgan oldidagi erkakka qaratilgandi. Baquvvat, polvonsifat bu erkak kulganda tishlari oppoq va chiroyli yaltirardi. Bir necha soniya hushim boshimdan uchib, xo‘rlangancha ularga qarab qoldim. Qiz ham meni ko‘rdi.

Men darrov ko‘zimni obqochib, shosha-pisha yo‘lga tushdim. Ming afsus bo‘lsinki, bu yerda plyajning

chegarasi tugarkan, yo'limda temir panjara paydo bo'ldi. Ahmoqona, kulgili vaziyatda qolib, orqamga o'girildim-da, shakarguftorlik qilayotgan juftlikning oldidan o'tishga majbur bo'ldim. Yerga qattiq tikilgan ko'zlarimga qumda qilayotgan izlarim ko'rinardi xolos.

„Mana senga isbot, – derdim kiyimlarimni kiyayotganimda ham, kemachaga o'tirib shaharga ketayotganimda ham, keyinroq mehmonxonada u yoqdan bu yoqqa yurayotganimda ham. – Isbot talab qilayotganding, mana isbotning eng zo'rini ko'rding. Shunaqangi zo'rki, ortig'i ortiqcha“. Shu masaladan boshqa narsani o'ylolmasdim. Bu bir tomondan yaxshi. Chunki his-tuyg'ularimni tahlil etishga tushib ketsam, boshim yorilib ketishi ham mumkin edi.

Ertasiga ertalab barvaqt turdim. Shoshilmay, ustara ning bir xildagi yurishini va bironta ham tukni qoldirib ketmasligini qattiq nazorat qilib uzoq soqol oldim. Ki-yinishim ham uzoq davom etdi. Kiyinarkanman, mana bu kastumning tugmasi uzilibdi, mana bu ko'ylakni yana ko'pi bilan ikki marta kiysam bo'ladi, degan mayda-mayda tafsilotlarni ovoz chiqargancha fikrimdan o'tkazardim. Keyin qahva ichish uchun pastga tushdim. Gazeta olib ko'zdan kechirdim, ofitsiant bilan navbatdagi velopoygada Fausto Kopining g'olib chiqishiga imkoniyati bormi-yo'qligi haqida uzoq gaplashdim. Ofitsiant suhbatga berilib ketgan ekan, xojasi chaqirib esini joyiga keltirdi.

Ofitsiant ketib, qahvam tugab, men yolg'iz qoldim. Mehmonxonadan chiqibbekatga bir qaradim-da, teskarri tarafga ketdim. Qadimiylarkusxa ko'priordan o'tib, do'konlarga, ularning sotuvchilariga va bozor-

ga chiqqan xotinlarga liq to‘la uzun ko‘chadan yo‘lga tushdim.

„Buni qara, – dedim o‘zimga o‘zim. – Grande Kanalidangina ko‘rgan Venetsiyang Venetsiya emas. U boshqacha. Kemada sandiroqlash bilan cheklanib xato qilyapsan. Ko‘zingni ochib yaxshilab ko‘rib ol. Bu chumoli uyasining muzeylaringdan kam joyi yo‘q. Qiziqarli“.

Shundan keyin, garchi bizning Menilmontandagi bozorimizdan unchalik farq qilmasa-da, rangli karam do‘konlariga, ezilgan va arzon ko‘ylak kiygan xotinlar ning sertashvish yuzlariga tikilib, sotuvchilarning bo‘g‘iq ovozda chorlashlarini eshitib, barini esimda olib qolishga urina boshladim.

Shu ahvolda ko‘chadan ko‘chaga o‘tib, uzoq yurdim. Aslida, ko‘cha emas, yo‘lakdan yo‘lakka deyish to‘g‘riroq bo‘lardi. Chunki nazarimda, ko‘chalar birdan qorong‘ilashib, torayib ketgandek edi. Osmonni ko‘rish uchun tik tepaga qarashga to‘g‘ri kelar, shunda ham arqonga osilgan kirlar xalal bermasa ko‘rishing mumkin bo‘lardi.

Nihoyat, keng va quyoshdan nurafshon maydondan chiqdim. Ichkarisida „Jovani e Paolo“ ibodatxonasi qad ko‘targan bu maydonning o‘rtasidagi baland shohsupada bir suvoriyning jez haykali o‘rnatilgandi. Yo‘laklarda stol-stullar bor ekan, ulardan biriga o‘tirdim-da, nimadir buyurib, soatimga qaradim.

„Bo‘pti, maynavozchilikni bas qilaylik, – dedim o‘zimga o‘zim. – Soat to‘qqiz bo‘libdi. Hozir ming yugurganing bilan bekatga kechikasan“.

Lekin shunday deyishim bilan shart turib, bozor ko‘chalar va yo‘laklar ichra yugurib, bekatga borib qol-

gim keldi. „Axir bugun ham uning Lidoga borishi aniq. Ba’zan u juda kech yo‘lga tushadi. Bundan bir hafta oldin shunaqa kech o‘tgandi-ku, hozir turib yugursang, uchratasan. Faqat shu zumdayoq turishing kerak“.

Lekin men o‘rnimdan qimirlamadim. Boshimni xiyol orqaga tashlagancha kondoter<sup>1</sup> Koleonening jez haykalliga tikilib o‘tiraverdim. Ot sag‘risini baquvvat oyoqlari bilan siqib olgan suvoriyning turish-turmushi pay va mushakdan iborat bo‘lib, yuzi qahrli boqardi.

„Shundan o‘rgansang bo‘lmaydim? – tanbeh berdim o‘zimga o‘zim. – Yaxshiyamki hamma erkaklar senga o‘xshagan xotinchalishmas“.

Har kuni ertalab uyg‘onganimda uzoq vaqt soqol olardim. Umuman, asosiy dardimni o‘ylamaslik uchun o‘zimni har narsaga chalg‘itishga urinardim. Mehmonxonadan chiqib, bekatga qarama-qarshi tomonga burilar vasovun bilan pista yog‘i hidiga to‘la ko‘chalardan o‘tib, maydonga yetib olardim. Qahvaxonanining ko‘chadagi stollariga o‘tirib, butun jism-u tanim bekatga intiladigan chorak soatni o‘tkazardim. Dunyo ko‘zimga qorong‘i, tuban ko‘rinar, shu sababdan butun achchig‘imni kondoterga to‘kib solardim.

„Albatta, senda iroda kuchli, – derdim unga qarab. – Tund basharangdanoq ko‘rinib turibdi. Xo‘s, qani aytchi, bu irodangni pishirib yeysanmi? Sen faqat jang-u jadalni o‘ylaysan. Axir, dunyoda bulardan boshqa, misol uchun sevgi, mehr, yurak qo‘ri degan narsalar ham bor. Sen ularning fahmiga yetasanmi?“

Ofitsiant ayol qahva keltirgandan keyin men suvoriy ni unutardim-da, yana dard girdobiga sho‘ng‘irdim. Ishqim savdosini yana kunma-kun dilimdan o‘tkazib,

---

<sup>1</sup>Kondoter – yollanma otliq jangchi yoki ularning boshlig‘i (*Tarj.*).

kunma-kun, uchrashuvma-uchrashuv taftish qilar ekanman, chiqargan inkor xulosamni bekor qiladigan bironbir tafsilotmi, esimdan ko'tarilgan hodisami izlardim. Ammo bunday tafsilot topolmasdim, xulosamni o'zgartiroldim.

Bu ayol zodagon emas. Biroq zodagon bo'lish orzusida. Bundan boshqa narsani o'ylamaydi, qiziqmaydi ham. O'z bahosini juda yuqori qo'ygan, vaqtim ko'p deb hisoblab yuribdi. Cholni chol bo'lgani uchun yoki uylanganligi uchun inkor qiladi-yu, anavi tishlari yaltirab turganga o'xshagan jazman uchrasa, darrov iltifotli bo'lib oladi.

„O'sha kungi kulishlarini qara! U senga hech qachon shunday kulmagan edi. Balki, sening ustingdan kulgandir, a? Ha, sening ustingdan kulgan. Sen – bo'sh paytida ermak qilib yuradigan sodda erkak sifatida o'yinchoq bo'lgansan, xolos. Ammo o'yin tugadi. Umuman, ermag'i bunchalik uzoq cho'zilgani ham ajablanarli“.

Shu ahvolda peshin bo'lishini kutardim. Tushlikda quymoq va eskiroq achchiq-chuchukni chimxo'rlik bilan uzoq tanovul qilar, so'ng yaqindagi kioskadan olin-gan jurnalni varaqlar yoki kondoter bilan ichimda so'kishardim. Bu narsa yana noma'lum qizning dardi butun vujudimni qoplaguncha davom etardi.

G'ira-shira qorong'i tusha boshlaganda mehmonxonaga qaytib, restoranda kechki ovqat tanovul qillardim. Uyqum kelarmikin, degan umidda may ichar, lekin uyqum kelmagani uchun restoranda to stol-stullarni yig'ishtira boshlashguncha o'tirardim-da, vaqtinchalik boshpana vazifasini o'tayotgan xonamga qaytardim. Bu yerda meni dilixufton yolg'izlik, ko'hna poydevorlarga urilayotgan suvning mudroq chalpillashidan o'zga narsa kutmasdi.

Bir kuni ertalabdanoq havoni bulut qopladi. Maydondagi kondoter haykali yanada tund va qahrliroq qiyofaga kirdi. Men o‘z joyimni egalladim. Qo‘shti stolda shaharning yo‘llanma xaritasiga engashib, yirik mallasoch juvon o‘tirardi. Ko‘rinishidan nemisga o‘xshagan bu ayol, oyoqlarini chiroylı deb hisoblaydigan hamma ayollarga o‘xshab ularni chog‘ishtirib olgandi. Aslida, gavda bichayotganda tabiat jindek saxiylik qilganini qo‘shma, ayol chiroylı edi.

Juvon mening nazar tashlayotganimni sezdi. O‘z navbatida u ham menga nigoh tashlay boshladi. Avval shunchaki, bir qur ko‘z tashladi. Keyin: „Xo‘s, rostdan ham sizga ma’qulmanmi?“ degandek tikildi. Ammo u menga ma’qul emasdi. Aytmoqchimanki, o’sha soniyada menga ma’qul bo‘lishi gumon edi. Bu fikr, yana noma'lum sohibjamolimning qanchalik yuragimdan urganligini, u tufayli boshqa hech narsa yoqmay qolganligini o‘ylashimga majbur etdi.

Nemis juvon yana bir qaraganda mening ko‘z olib qochayotganimni ko‘rди-da: „Nega bo‘lmasa baqrayib tomosha qilasan“, degan zarda bilan xaritaga engashdi. Sal o‘tmay yomg‘ir yog‘a boshlagandi, juvon ofitsiant bilan hisob-kitob qilib o‘rnidan turdi. Men ham Dukale Palotssosi tomon yo‘l oldim.

Qandaydir ikki cheti qator arklardan iborat zax ufurib turgan ko‘chadan borarkanman, to‘satdan noma'lum sohibjamolni ko‘rib qolsam bo‘ladimi. Ko‘rib qoldim ham emas – go‘yo bir narsaga urilgandek butun vujudim bilan his etdim. U ko‘rgazma oldida turarkan, men xuddi uni ko‘rmagandek bo‘lib yonidan o‘tib keta boshladim.

– Endi biz bir-birimizni tanimaymiz-a, shunday-mi? – so‘radi qiz.

Men uning gapini eshitmaganga olib ketayotgandim, poshnalari shunday yonimda to‘qillab, mehribon ovozi esa bir paytlari unga aytgan gaplarimni tegajoq bilan qaytardi:

– Menga qarang, sizni ta‘qib qilish niyatim yo‘q. Lekin mana shunaqa gina-kudurat va alam bilan ajralish yaxshimikin?

Ortidan esa boshqa ohangda so‘radi:

– Mendan jahlingiz chiqdimi?

– Yo‘q, jahlim chiqishga yetgulik iltifotga sazovor bo‘lgan emasman.

– Jahlingiz chiqibdi.

– Hech ham jahlim chiqqani yo‘q, ishoning men-ga. Faqat sizning ko‘nglingizni xira qilmaslikka qaror qildim.

– Ko‘nglimni xira qilyapsiz deb sizga aytmaganman.

– Lekin sha’ma qildingiz. Ertaga kelaman deb qo‘yib, kelmaslik, indiniga, indinning ertasiga ham ko‘rinmaslik – bir ma’noni bildiradi, shekilli?

– Siz haqsiz, – dedi u. – Lekin men ataylab emas, im-konim bo‘lmanidan kelolmadim. Gapim rost, ishoning.

– E-e, qo‘ysangiz-chi, bilaman!

– Hech narsani bilmaysiz.

„Ko‘zim bilan ko‘rganim yetarli“ – demoqchi edim-u, o‘zimni bosdim.

– Menimcha, oldinda yo‘l yo‘q. Bu ko‘chaning boshi berk.

– Ramziy ma’noda gapingiz kuchli chiqdi, – deb to‘ng‘illadim men. Haqiqatan ham to‘q-yashil suvli kanal oldimizda jimgina ko‘ndalang bo‘lib yotardi.

Biz orqaga qaytib boshqa ko‘chaga burildik. „Bu qizning mendan qutulish niyati bo‘lsa nega hozir ergash-

yapti, agar qutulish niyati bo‘lmasa, u kungi ko‘rsatgan hunarlarida ne ma’no bor?“ degan savollar xayolimda g‘ujg‘on o‘ynardi.

Yomg‘ir tinib, uylarning tosh peshtoqlari orasidan qora bulutlar har tomon tarqalayotgan osmon ko‘rindi.

– Havo ochilyapti, – dedi qiz. – Bizning esa hamon qovog‘imizdan qor yog‘yapti.

„Havoning ishi oson, – deb o‘ylardim ichimda. – Birrov bilan g‘ijillashmaydi, o‘zi xon – ko‘lankasi maydon. Yolg‘iz o‘zi mavjud“.

– Xo‘p, siz o‘ta qaysar ekansiz, buni inkor etish mumkin emas, – deb gap boshladi yana qizning o‘zi. – Tushunmovchiliklarning bariga chek qo‘yish uchun esa aytib qo‘ya qolay: o‘scha kuni shaharda qolishim kerak edi. – Xonim bankaga borishimni tayinladi. Ana u cho‘milayotgan yerdagi kishi masalasida siz allambolarni o‘layotgan bo‘lishingiz mumkin, albatta. Boshqa xayolga bormang. Oramizda hech gap yo‘q. Xo‘sh, endi xursandmisiz?

– Xursandman, – dedim bosh irg‘ab va birinchi marta unga tik qaradim. – Lekin izohlaringizdan emas. Ular ni sariq chaqaga olmayman. Xursandligim ikkimizning yana birga ekanligimizdan. Ruxsat bering, qo‘ltiqlashib olsak?

– Shu tiqilinchda qo‘ltiqlashib yurish qanday bo‘larkin?

Qiz burnini nozli jiyirib, tirsagini jindek ko‘tardi va men, xuddi rasm-rusumni ado etayotgandek qilib, uni qo‘ltiqlab oldim.

Biz yana savdo-sotiq ko‘chalari sultanatida qoldik.

Qiz qizil-sariq rangli shaftoli sotilayotgan do‘koncha oldida to‘xtab, mahliyo bo‘lib qoldi.

– Rosa shaftoli yegim kelyapti, – dedi u xuddi yosh bolaga o‘xshab.

– Oling, yeng.

– Ko‘chada-ya?

– E, shu oliftagarchilikni qo‘ysangiz-chi, – dedim men. – Shaftoli yegisi kelgan joyda yeishi kerak.

– To‘g‘ri. Keling, olamiz.

Biz shaftoli sotib oldik-da, bir ko‘prikning oldidagi xoliroq burchakka o‘tdik. Shaftolilarni dastro‘mol bilan artib yeya boshladik. Ular yirik-yirik bo‘lganidan suvini oqizmaslikning iloji yo‘q edi. Shuning uchun biz bir-birimizning qarab qotib-qotib kularidik.

– Tarix o‘qituvchisining ahvolini qarang? – dedi qiz. – Ko‘rganlar nima deydi? Odam ham shunchalik past ketadimi? Ko‘chada shaftoli yesa-ya?

– Boz ustiga „eksselsior“lik xonim bilan.

Nihoyat, shaftolini sob qildik. Qiz sumkasidan ko‘z-gucha bilan labbo‘yog‘ini olib pardozini joyiga keltirgach, yana avvalgidek kiborli qiyofasiga qaytdi. Och-sa-riq yomg‘irpo‘shdagи sarvqomati uni boshqalar uchun yetishib bo‘lmas go‘zalga aylantirdi. Lekin bu ifoda men ga taalluqli emasdi. Kamina uni qo‘ltiqlab olgan baxtiyor odam edi.

Yurib-yurib, kondoter Kodeone haykali o‘rnatilgan maydonga chiqdik. Kondoter qovoqlarini uygancha to‘g‘riga tikilarkan, sendaqa ipirisqiga ham, kimnidir qo‘ltiqlab olganingga ham tupurdim, deyayotgandek bo‘lardi. O‘z navbatida men ham bo‘sh kelmay:

„Kuchli va irodali bo‘lganining bilan sen yolg‘izsan“, dedim unga qarab.

\* \* \*

- Demak, siz kutib yuribsiz?
- Har kim ham nimanidir kutadi, – javob berdi qiz o‘ychanlik bilan.
- Lekin hozir siz haqingizda gaplashyapmiz.
- To‘g‘ri, men kutyapman.

Biz kichkina bufetning qamish soyaboni ostida limonad ichib o‘tirardik. Yuzimizga qamish orasidan chiziq-chiziq ingichka quyosh nuri tushar, oyoqlarimiz salqin qumga ko‘milgandi. Ammo bu qum „Eksselsior“ plyajiniki emasdi. Biz u yerga bormay qo‘ygandik.

– Menga qarang, – degandi bir kuni qiz. – Cho‘miladigan yerni o‘zgartirsak bo‘lmaydimi? Cholni ko‘rish jig‘imga tegyapti. Buning ustiga hamma narsa o‘lgudek qimmat.

– Chol masalasida fikringizga qo‘shilaman. Lekin qimmat degan gapingiz meni xafa qilyapti. Hali qup-quruq bo‘lganimcha yo‘q.

Xullas, biz qimorxonalar mahallasini tark etib, g‘arb tarafdagи kichikroq cho‘miladigan joyga, oddiy odamlar orasiga ko‘chdik. Munosabatlarimizdagi bu o‘zgarish yagona o‘zgarish emasdi. O‘sha yomg‘irli kundan keyin qiz menga nisbatan rol o‘ynamas, shu sababli kundan kunga fe’lidagi yangi-yangi qirralari ochkilib, kundan kunga odamshavanda, kundan kunga yoqimliroq bo‘lib borardi. Qiz o‘zining bechoraligi bilan menga maftunkor tuyulaverardi.

Do‘stlashib qolganimiz uchun u meni kalaka qilishni, har xil sinovlardan o‘tkazishni to‘xtatgandi. Yuzimga boqqanda – oddiy, ochiq chehra bilan boqardi.

- Siz kutayotgan odam qanaqa bo‘lishi kerak?

– Nima qilasiz ahmoqona savollarni berib? Qayerdan bilay uning qanaqa bo‘lishini?

– Umumiy bir qiyofasini tasavvur qilarsiz, har holda.

– Tasavvur qilaman. Lekin qanaqaligini bilmayman.

– Bo‘lmasa qulq soling, men aytib beraman, – dedim. – U boy, juda ham boy bo‘lib tug‘iladi tasavvuringizda. Xuddi anavi plyajdagiga o‘xshagan kelishgan, polvonsifat, oppoq tishlari yarqirab turgan bo‘ladi...

Qiz kulib yubordi:

– Essiz, o‘sha siz aytayotganingiz uylangan ekan.

– Shuning uchun ish pishmabdi-da?

Qiz qo‘shni stoldagi ikki bolakayga qaradi. Bolalar xuddi muhim ish qilayotgandek oldilaridagi sharobni naycha orqali ichib o‘tirishardi. Qiz birozdan keyin norozi ohangda javob berdi:

– Odamni qiynashni biram yaxshi ko‘rasizki! O‘shanda sizga rahmim kelganiga pushaymon bo‘p ketaman.

– Qachon menga rahmingiz kelgan ekan?

– Plyajning panjarasiga urulgudek bo‘lib, orqangizga qaytuvdingiz-u, o‘shanda.

– Rahmingizga muhtoj emasdum.

– Siz tushunmayapsiz. Umuman, siz hech narsani hech qachon tushunmaysiz. O‘shanda ko‘zimga siz yolg‘iz va suyanchiqsiz qolgandek ko‘ringaniningiz uchun achingandim. Chunki bu dunyoda tanho, hech kimsiz qolish nima ekanligini o‘zim sinab ko‘rganman.

– Ehtimol, – dedim men yo‘talib. – Lekin yolg‘izlingiz manguga emas-ku. Orziqib kutgan shahzodangiz baribir keladi va u o‘sha plyajdagagi nusxaga o‘xshagan bo‘ladi, shundaymi?

– Kimga o‘xshashining nima ahamiyati bor? – dedi qiz xiyol tajanglashib. Biroz jimlikdan so‘ng esa davom

etdi: – U kuchli bo‘lishi kerak, bildingizmi? Ayol kishi uchun buning ahamiyati katta. Birga ekansan, hech narsaning tashvishini chekmasang, emin-erkin yursang, ko‘ngling tusagani muhayyo bo‘lsa...

- Demak, puli ko‘p bo‘lishi kerak...
- Pul, pul. Nuqul pulni gapirasiz. Ha, birinchi navbatda boy bo‘lishi kerak. Chunki bu dunyoda faqat puli ko‘p odamgina kuchli.

– Menimcha, siz muhim masalada jindek xato o‘yayapsiz, – dedim e’tiroz bildirib. – Aniqroq aytganda, siz pul bilan yaroqni chalkashtiryapsiz. Chunki pul juda ko‘payib ketsagina qurol-yaroq bo‘la oladi. Qurolyaroqli bo‘lish – kuchli bo‘lish degan gap emas. Buning ustiga, – shunday deb sohilbo‘yi xiyobonni qo‘lim bilan aylantirib ko‘rsatdim. – Hatto, mana shu yerda ham pul eng ishonchli qurol va hurmatga sazovor narsa bo‘la olmaydi. Sizning o‘rningizda bo‘lsam, men – iroda, bosh ichidagi miya suyug‘ining faoliyati, halollik va yana shunga o‘xshagan boshqa narsalarni ham hisobga qo‘sghan bo‘lardim.

– Xo‘p, yaxshi, – dedi chuqur xo‘rsinib qiz. – Keling, kelishib olamiz: men kutgan odam – aqli, irodali, halol, iqtidorli va buning ustiga badavlat bo‘ladi. Shunday odam sizga yoqadimi?

– Har holda, boyagidan ko‘ra chidasa bo‘ladi, – javob berdim mujmal qilib. Chunki men undan boshqa gaplar kutar va u ham shu gaplarni kutayotganligimni bilardi. – Lekin, jonli qizning bir ro‘yonи, to‘qib chiqarilgan soxta odamni sevishi mumkinligiga chidab turolmayman.

– Ho, nega endi „to‘qib chiqarilgan, soxta“ ekan. Siz o‘zingizni soxta emas deb hisoblamayapsizmi? Xudo

haqqi, agar uchtrashmaganimizda, sizdaqa odamning borligiga, yana Lidoda yurishi mumkinligiga hech qachon ishonmagan bo‘lardim.

– Bu bilan nima demoqchisiz?

Qiz „bu bilan nima demoqchiligi“ga javob bermay kulib yubordi.

Biz mana shu ahvolda bir-birimizni hazil-mazax qilib cho‘milardik, qumda ag‘anab yotardik. Ba’zan bolalar singari, ko‘chadagi sotuvchidan plyaj panjara-si orqali muzqaymoq olib yerdik yoki suvdami, qum ustidami bir-birimizni quvlardik. U mendan yaxshi suzgani uchun suvda bazo‘r yetib olar, qumlikda esa men darrov quvlab yetardim-da:

– Ehtiyyot bo‘ling, qadrli o‘qituvchim, haddingizdan oshmang, – deb siltanib chiqib ketguncha mayin, tillarang yelkalaridan ushlab turardim.

Tushligimiz – o‘sha-o‘sha, norinjrang soyabonli qahvaxonada o‘tardi. Kechqurun esa uni do‘konning yon-verisida kutib olganimdan keyin, kanal bo‘ylaridagi xiyobonlarda, sohilda yoki qo‘ltiqning naryog‘iga o‘tib, shahar ichida sayr qilardik.

Yolg‘izlik tunda seziladi. Ayniqsa, rosmana hech kimi yo‘q odam tunda ko‘proq qiynaladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, qiz qorong‘ida o‘zini yaqinroq tutar, ovozi mehribonroq yangrar, ko‘zlari iliqroq boqardi. Mana shu kechalarning bari xotiramda muhrlanib qolgani sababli, ularni mayda-chuyda tafsilotlarigacha, xohlang batapsil, xohlang bo‘lib-bo‘lib, xohlang oxi-ridan boshiga qarab ham aytib berishim mumkin. Bu ajoyib sakkiz kechaga raqam ham qo‘yib chiqqandim. Shuni aytish kerakki, bu kechalar qiz men bilan bekin-machoq o‘ynashni bas qilgandan keyingi kechalar edi.

Avvalgilari, hatto rangli fonuslar ostida uchrashganimiz ham hisobga kirmasdi.

Ana shu sakkiz kechaning birida biz Kaza d’Oro oldidagi restoranga raqs tushgani bordik. Qizil neon chiroqli, devorlariga geometrik shaklda aji-bujilar chizilgan bu qovoqxona bir ko‘rganimdayoq yoqmay, kirgan paytiyoq pushaymon qildim. Chunki bu yerda erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq bo‘lib, aksariyati turqi shubhali nusxalar edi. Buning ustiga qo‘shni stolda o‘tirgan ayollarni raqsga betakalluf taklif eti-shaverardi.

Yonimdagি mahbubamning siymosi esa o‘zi shusiz ham menga anchadan beri tashvish orttirib yurardi. Albatta, go‘zalligi uchun uni ayplash mumkin emas. Lekin u paydo bo‘lgan zahoti zohir bo‘ladigan surbetona ishshayish-u ko‘z qisishlar, ko‘zini lo‘q qilib yeb qo‘ygudek qarashlarni qaysi gunohlarim uchun o‘zimga yuk qilishim kerak.

Biz bir stolni egallab qo‘yib raqs tusha boshladik. Maydoncha kichkina, o‘tirganlar esa salgina chetlashishni o‘ylashmasdi ham. Qaytaga oralaridan o‘tayotganimizda qizga teginish uchun tizzalarini atayin tarvaqaylatishar, boshidan oyog‘igacha bezbetlarcha ko‘z yugurtirishardi.

— Oh, mana bu qizni qara! Joning sog‘ bo‘lsin, jonn! — deb bir yoqdan bittasi gap otdi. Ikkinci yoqdan esa, amerikacha guldor ko‘ylagini shimidan chiqarib olgan barzangi bor ovozda baqirdi:

— Hoy, bo‘taginam, yon daftaringga meni ham navbatga yozib qo‘y!

Boshqa bir nusxa oyog‘ini uzatib meni chalvorgandi, yuztuban yiqilishimga oz qoldi. Raqsdan so‘ng stolga

o'tirganimizda amerikacha ko'yak kiygan nusxa lalayib oldimizga keldi. Qo'lini bukkancha tirsagini chiqarib, qizga baqrayib qarab, kutdi. Bu: „Tur, raqs tushamiz!“ degani edi. Qiz, albatta, qimirlamadi, nusxa esa saqich chaynagancha kutib turaverdi.

– Mana buni qara, – dedim men mushtimni nusxa-ning basharasiga yaqinlashtirib. – Tushundingmi?..

Nusxa erinchoqlik bilan ikkinchi qo'lini ko'tarib mushtimni pastga bosishga urindi. Achchig'im pakkasiga yetgani uchun qo'lini keskin itarib yubordim. Nusxa xuddi uyqudan uyg'otilgandek, qiziqsinib aftingga qaradi-da, to'satdan tushirib qolmoqchi bo'ldi. Men vaqtida chap berib, o'mimdan sakrab turdim-da, stul bilan boshiga soldim. ZARBAM aniq va anchagina kuchli edi. Barzangi chayqalib yerga quladi. Shu zahotiyoy qo'shni stolda o'tirganlar menga tashlanishdi va bittasi ko'zimning tagiga musht tushirdi. Uni iskanjamga olarkanman, har tomondan tushayotgan zarbalarining orta boshlaganini sezdim. Kutilmaganda orqa tarafdan kimdir menga yordamga keldi va mushtlashuv avjiga chiqa boshladi. Hamma yoqni tasir-tusur, baqiriq, singan-tushgan ovozlar tutdi.

– Janoblar, axir hamma narsani sindiryapsizlar! – deb chiyillardi qovoqxona xo'jayini.

– Yaxshi bo'ladi, – deb baqirdi orqamdag'i notanish ittifoqdoshim. – Har xil qalang'i-qasang'ini ikkinchi to'plamaysan!

To'satdan orkestr kuy chalvordi va to'polon shu zahotiyoy tindi. Erkaklar kiyim-kechagini tortqilab-to'g'rilib joy-joylariga o'tira boshladilar. Pana joyga qochgan xotinlar qaytib chiqishdi. Tepadan olib tushuvchi zinada politsiyachilar ham ko'rindi.

- Kim urishdi? – so‘radi ularning boshlig‘i.
  - Hech qanaqa urush bo‘lgani yo‘q, – ishshaygancha javob berdi restoran xo‘jayini. – Ko‘rib turibsiz, hamma yoq tinch va osoyishta.
  - Yuring, – dedi shu payt qiz yengimdan tortib. – Tezroq ketmasak bo‘lmaydi.
- Biz qorong‘i bir maydonga yetganda to‘xtadik. Qiz yonimizda shovullayotgan favvoradan dastro‘molini ho‘llab yuz-ko‘zimni arta boshladi.
- O‘qituvchi urishib yursa-ya, qanday sharmandalik? O‘quvchilar nima deydi...
  - Kasbimga buncha yopishib oldingiz? – to‘ng‘illadim men jahlim hali bosilmagani uchun. – O‘qituvching boshqa odamlardan kam joyi bormi?
  - Boshqalarga o‘xshamasligingiz kerak, hamma gap shunda. Siz bo‘lsangiz portdag‘i hammoldan battar mushtlashdingiz.
  - Anavi nusxa bilan raqs tusholmaganingiz alam qilyapti, shekilli, a?
  - Ehtimol, shundaydir. Ko‘ylagi biram chiroyliki!
  - Unaqalarni ko‘rsam jinim qo‘ziydi. Faqat ugina emas, o‘sha yerdagilarning hammasi ablah ekan. Hammasi ko‘zini lo‘q qilib sizga suqlanadi.
  - Ana endi men sho‘rlikning ko‘rgan künimni tushunib, kalondimog‘likda ayblamassiz.
  - Hammasi yeb qo‘ygudek tikiladi-ya!? Bitta men bechora kamtarlik bilan yerga qarab turibman.
  - Ho, siz kamtarmisiz? – e’tiroz bildirdi qiz. – Gapni qarang-u! E, siz choldan ham battarsiz.
- Boshqa bir oqshom ham esimda.
- Bu oqshom sariq, xira chiroqqa, baliq qovurdoq hidiga yo‘g‘rilgan bo‘lib, yomg‘ir ham yog‘ib turardi. Tor

va qorong'i ko'chadan qizni kuzatib qo'yayotgan edim. Muyulishgacha borib, uni kemaga o'tqazib yuborishim kerak edi. Aftidan, uning yashaydigan joyi juda ko'rim-siz bo'lsa kerak, uyigacha kuzatishimga aslo ruxsat bermasdi. Biz borayotgan qorong'i tor ko'chani o'qtin-o'qtin chiroq nuri kesib o'tardi. Bu – kichkina-kichkina oshxonalarining chirk bosgan derazalaridan tushayotgan nur edi. Neon chiroq, aqalli bitta qandil qayoqda deysiz. Xira-sariq lampochkalar yorug'ida chang shiftlar, tunuka qoplangan peshtaxtalar, katak-katak, iflos dasturxonli stollar ko'rinardi.

– Keling, bir kirib ko'ramiz, – dedim men navbatdag'i xira chiroq nuriga yetganimizda.

– Shu yerga-ya?!

– Ha, nima qipti? Shinamgina joy.

– Siz turistlarga bunaqa joy shinam ko'rinishi mumkin. Lekin mening xira chiroqni ko'rsam ko'nglim ozadi. Hidini qarang: arzon yog', toza yuvilmagan idish – kambag'allik hidi bu. Butun hayotim unga to'yingan. Ba'zan suv ham, shamol ham shu kambag'allik hidini ufurayotgandek va men umrimning oxirigacha shu hidan qutulolmayotgandek tuyuladi.

Biz muyulishgacha bordik. Kanal bo'yida so'nggi restoran ko'rindi. U ham mo'jaz va arzon yemakxonalar toifasidan bo'lsa-da, boshqalardan farqli o'laroq, oldida supasi bo'lib, supasida chiroq kulini juda oshirvormaydigan darajada siyrak va rang-barang lampochkalardan chambarlar osilgandi.

– Shu yerga kira qolaylik, – dedi qiz. – Har holda havosi tozaroq.

– Mayli-yu, yomg'ir-chi?

– Hechqisi yo'q, shamollab qolmassiz.

Supachada bizdan tashqari ham telba bir juftlik bor ekan. Uzunchoq shotlandlik bashara bu juftlik yomg'irpo'sh ostida qo'lni qo'lga berib ma'yus o'tirishardi. Af-tidan, Venetsiyada odam o'zini shunaqa tutishi kerak, deb o'ylashardi, shekilli.

Biz o'tirgandan keyin yemakxona xo'jayini te pamizga shamsiya o'rnatib, bir shisha vino va qovurilgan baliq keltirib qo'ydi.

– Nimani yaxshi ko'rishingizni bilarkan, – dedim baliqqa sha'ma qilib.

Qiz javob bermadi. Vinodan o'ziga ozgina quyib ichdi. Chiroqlar nurida uning chiroqli yuzi yashil rangga chulg'angan va g'amgin ko'rinardi.

– Bugun omadimiz yurishmayapti, a?

– Meniki hech qachon yurishmagan, – javob berdi qiz xafaqonlik bilan. Shu soniyada o'ziga ishonchni yo'qotgan, ojiz ko'rinar, iflos bu mahallaning bo'yłari va xira sariq chiroqlari bilan birga qalbiga o'tmish kechinmalari yana kirib kelganga o'xshardi. – Umrimda bir marta baxt kulib boqdi, deb o'ylagandim, lekin o'shanda ham yanglishgan ekanman.

– Anavi plyajdag'i bilanmi?

– Yo'q, ancha oldin. Boshqa yigit edi. Chiroqli, chin ma'noda saxiy odam edi. „Hamma narsang bo'ladi se ning, – derdi u. – Xohlasang, osmondag'i oyni ham olib beraman. Faqat sabr qil, jonginam!“ Oh, garchi u Lidodagi milliarderlarga o'xshamasa-da, xuddi butun olam unikidek o'zini mardona tutardi. Menimcha, o'ziga yarasha muhabbat bilan meni chin dildan sevgan bo'lsa kerak. Uchrashganimizda hamisha u meni eng yaxshi do'kon larga olib borardi-da: „Ellik mil chegarasida ko'ngling nimani tusasa tanlayver!“ derdi. Qutilarni ko'tarib uyga

qaytganimda esa xonaga qarab aftini burishtirardi-da:  
„Yaqin kunlarda uy singari jiddiyroq narsalar haqida ham  
bosh qotirsak bo‘ladi. Ayt, nima istaysan, katta kanalga  
qarab turgan keng ayvonmi, yemakxonasi alohida osh-  
xonami, vannami? Mebel bilan devor qog‘ozlarni tan-  
lash sening bo‘yningda, men bularning fahmiga bormay-  
man“. Shunday ahvolda o‘ng-u so‘lga pul socharkan, uy  
olishga fursati yetmasdi.

– Xo‘sh, pulni qayerdan olardi?  
– Bilmasam, har xil lotereyalar va shunga o‘xhash  
narsalar uyushtirardi, shekilli... „Venetsiya – chet elliklar  
uchun yaxshi, – derdi u orzu va rejalar otiga minib. –  
Biz boshqa shaharga makon quramiz. Qayerni xohlaysan – Florensiyami, Milanmi, Rimmi?“ „Rimni“, – deb  
javob berardim men. „Rim? E, bu juda oson! Rimda  
zo‘r tanishlarim bor“.

Ammo bir kun u yo‘qolib qoldi-yu, men uni boshqa  
ko‘rmadim. Oradan bir hafta o‘tgandan keyin uyimga  
politsiya bostirib kirib, sovg‘a qilingan hamma narsalarimni  
olib ketdi. „Nima haqqingiz bor? Bular qayli-  
g‘imning sovg‘alari!“ – deb ayyuhannos solgandim, ular  
aftimga qarab kulishdi. „Qaylig‘ing-chi, hoy qiz, iflos  
o‘g‘ri. Bildingmi? Xudoga shukr degin, biz sendaqlar  
bilan shug‘ullanmaymiz, bo‘lmasa...“

Qiz jim bo‘lib qoldi. Qo‘shti stoldagi juftlik hamon  
qo‘l ushlashib o‘tirar va bu o‘tirish jonlariga tekkan  
bo‘lsa-da, bilintirmaslikka urinishardi.

– Hozir u qayerda?  
Qiz xuddi savolni tushunmagandek menga biroz qa-  
rab turdi:  
– Bilmasam. Qamoqdadir-da, boshqa qayerda bo‘-  
lardi?

– U bilan ko‘rishishga harakat qilmadingizmi?

– Nima keragi bor? Hamdardlik bildirish uchunmi?

Yoki seni kutaman deb aytish uchunmi? Umrimni o‘g‘ri bilan yashab o‘tkazish niyatim yo‘q. Ko‘nglim hamisha xotirjam va yorug‘ bo‘lishini istayman. Umrimga yigirma voltli lampochkalar bilan badbo‘y hidlar hamroh bo‘lishini xohlamayman.

– Yaxshi, yaxshi. O‘zingizni bosing, – dedim men. – Biz yorug‘roq joylarga boramiz.

U yana menga boqib turib kului:

– Qancha vaqtga borolardik? Bir soat yoki ikki soat-gami? Qo‘ying... Uyga ketishim kerak.

Yana bitta oqshom esimda. Qimorxona sababchimi yoki mening fe‘lim sababchimi, har holda bu – eslatilgan go‘zal sakkiz oqshomning eng yoqimsizi edi. O‘scha kuni, qiz men bilan birinchi marta odamga o‘xshab gapirishgan joyda – daraxtlar ostidagi qorong‘ulikda sayr qilib yurardik. Agarda shu yurishda qimorxona oldida-gi maydonchadan chiqib qolmaganimizda hech qanaqa ko‘ngilsizlik yuz bermasmidi, deb o‘ylayman.

Qimorxona imoratining bo‘sag‘asi chiroqlardan nura-fshon edi. Uning zinapoyasi oldiga zo‘r-zo‘r mashinalar asfaltda yumshoq vizillab kelib to‘xtar va ulardan yasan-tusan libos kiygan odamlar tushib yuqori ko‘tarilishiardi. Shanba bo‘lgani uchunmi, hammā narsa odat-dagidan ko‘ra zavq-shavqli ko‘rinardi.

– Keling, biroz tomosha qilamiz, – dedi qiz meni qo‘ltiqlab.

Ro‘yxushlik bermaygina rozi bo‘ldim va biz daraxt ostida to‘plangan boshqa anqovlar qatoridan joy oldik. Mashinada kelib tushayotgan zodagon olamining yulduzlarini tanish xususida befhmligim vajidan, qiz

vaqtı-vaqtı bilan aql-zakovatimning bu kamchiligini to‘ldirib turardi.

– Ho‘v anavi oqsuvsarlik – La Begum bo‘ladi. Esi-  
ngizdamı, ikki yuz millionlik tilla taqinchoqlarini o‘g‘ir-  
latgan? Ho‘v anavi binafsharang smoking kiygan qotma  
odam – Kichkina Jekson bo‘ladi. Uch yuz million dollar  
puli bor. Manavi mashinadan tushayotgan – Ana Fabiani  
bultur milliarder Ferrariga turmushga chiqqan.

– Menga qarang, – dedim uning gapini bo‘lib. –  
Xuddi kambag‘al qarindoshga o‘xshab sarg‘ayib turish  
menga alam qilyapti. Juda ko‘rgingiz kelayotgan bo‘lsa,  
yuring, ichkariga kirib tomosha qilamiz.

– Kiritishmaydi...

– Nega kiritishmas ekan? Bemalol-ku!? Pulini to‘lab  
kiraveramiz?

– To‘g‘ri, lekin siz smokingda emassiz.

– Smokingdamanmi, yo‘qmi ishingiz bo‘lmasin.

Yuring!

– Qo‘ysangiz-chi, kiritishmaydi axir.

Qizning shunday deyishiga qaramay, o‘jarlik bilan  
uni zina tomon yetakladim. Bizni bo‘sag‘ada to‘xta-  
tishdi:

– Janoblarining kiyimlari yo‘q ekan.

– Men yalang‘och emasman-ku!

– Janoblari kechki libosni kiymaptilar, – takrorladi  
bo‘sag‘adagi gumashta.

– Yo‘ldan qoch-e! – dedim achchig‘lanib. – Senga  
gap tushuntirishga vaqtim yo‘q.

Qimorxonadan boshqa kishi chiqib kelib, meni chek-  
kaga olib o‘tdi.

– Politsiya chaqirishga bizlarni majbur qilmang.  
Yo‘lni bo‘shatib qo‘ying.

— Yaxshi, — dedim men rozi bo‘lib. — Faqat qo‘lingni ol. Tag‘in kastumimni iflos qilib qo‘ymagin.

Orqaga qaytarkanmiz, hamma bizga qarab turgandan, yonimda qiz borligi uchun zina juda uzun tuyuldi. Bir og‘iz gaplashmasdan maydonni kesib o‘tib xiyobonga burildik.

Oradagi sukunat juda „cho‘zilib“ ketganidan qiz voqeani hazilga burmoqchi bo‘ldi.

— Yaxshiyam qo‘lingizga stul tushib qolmadi. Bo‘lmasa...

— Bas qiling, — dedim men. — Hammasidan nafratlanaman. Smoking deydi-a! Shu smokingning nima keragi bor?!

— Smoking kiysa go‘zal-da!

Biz sohil bo‘yidagi pastak tosh panjara oldida to‘xtadik. Qorong‘ilikda to‘lqin shaldir-shuldir qilib tosh va qumni nari-beri oborib-obkelardi. Osmon xuddi zangori neon yoqib qo‘yilgandek nurafshon edi.

— Hammasi ahmoqlik. Go‘zallikning bunga aloqasi yo‘q. Smoking umuman keraksiz kiyim. Keraksiz kiyimga esa qappaygan qopchiq orqali ega bo‘lish mumkin. Chunki smoking bilan frak — eng kamida bir necha yuz minglik daromading bor, ma’nosini bildaadi. Shunaqa daromading yo‘qmi — sen yaramas odamsan.

— Hay, o‘pkangizni bosing, — dedi qiz meni to‘xtabit. — Bu odamlar ushbu tartib-qoidani siz uchun emas, o‘zлари uchun joriy qilishgan. Tartib-qoidalari yoqmas ekan, nima qilasiz ularning orasiga suqilib?

— Bu savolni menga emas, sizga berish kerak. Rostdan ham ayting-chi, bu yerlarda nima qilib yuribsiz? Bu odamlardan qanday muruvvat kutyapsiz?

– Nazarimda, men emas, siz kirmoqchi bo‘ldingiz u yerga.

– To‘g‘ri. Mana shu safar men kirmoqchi bo‘ldim. Lekin shunda ham sizga yoqish uchun. Ammo siz u olamga bir kechaga emas, hamishalikka kirmoqchisiz. Har kuni shunga intilasiz. Bu intilish hayotingizning mazmuniga aylangan. Siz „kutyapman“ deysiz. Xo‘p, men qizning o‘z baxtini kutishini tushunaman. U qizning o‘z baxtini yanglishib boshqa joydan kutishi mumkinligini ham tushunaman. Lekin o‘ylab ko‘ring, siz bu kutishingizni juda ham me’yoridan oshirvormayapsizmi? Siz kutayotganingiz yo‘q, baxtingizni sinab ko‘ryapsiz. Siz anavi odamlardan yurish-turishni, xulqatvorni, ko‘z qarashni, kiyinishni, xullas, nimaniki o‘zlashtirish mumkin bo‘lsa – hammasini o‘zlashtirib oldingiz. Ular boradigan joylarga borasiz, plyaj va raqs maydonlarini kezasiz, chol sizga qanday qarasa – siz ham ularga shunday tikilasiz. Haligina zodagon olamning yulduzlariga qarayotganingizni kuzatib turgandim. Ko‘zlariningizda shunchalik hasad, lablaringizda shunchalik yuhtoblik bor ediki...

– Meni o‘scha ahvolda ko‘rib nafratlanib ketdingiz, shundaymi? Bu gapingizni uzoq debochasiz ham aytaverishingiz mumkin edi.

– Bir nafas to‘xtang, – dedim unga. – Men hali gapimni tugatganim yo‘q. Siz – shahzoda yoki kuchli erkak, yoki bir ritsarni kutyapman, deb o‘ylab yuribsiz. Agar shunday fikrda bo‘lsangiz – o‘zingizni aldayapsiz. Aslida, o‘zingiz kam gapiradigan, lekin eng ko‘p o‘ylaydigan narsangizni – pulni kutib yuribsiz. Siz erkakni yoki odamni emas – boy-badavlat turmushni, qimmat-baho liboslarni kutib yuribsiz. Bo‘lajak er odam sifatida

sizni qiziqtirmaydi ham. Siz qamoqqa tushgan do'stingizning taqdiri bilan hatto qiziqishni ham ep ko'rmay-siz. O'g'riliqi rost. Ammo u sizga muhabbatи tufayli o'g'ri bo'lgan. U sizga o'xshagan – butun hayot maz-muni qappaygan hamyondan iborat bo'lgan halol xud-bindan ko'ra, – ming marta a'lo. Sizning shahzodangiz esa – qappaygan hamyon, bildingizmi?!

Men shu alfozda gapiraverdim, gapiraverdim. Qizga ag'darayotgan ba'zi ayblarim o'zimga juda yoqib ket-sa, takror-takror qaytarardim. Qiz ko'zlarini katta-katta ochib, gaplarimni eshitarkan, ularda alam va iztirob qo-tib qolgani ko'cha fonuslari yorug'ida yaqqol ko'rinardi. Qizning nozik joyiga tekkanim meni qanolantirib, mast qilib qo'yganidan va aybnomalarim faqat unga emas – uni maftun etgan dunyoga qaratilgan, deb o'ylaganim-dan qattiq botadigan, ezib yuboradigan gaplarimni aya-masdan yuziga otardim.

Anchadan keyin qiz gaplarimni eshitmasdan o'rni-dan turdi-da, asta keta boshladi. Men jahlimni to'kishda davom etib unga ergashdim. Qiz qadamini tezlatgandi, men ham ildamladim. Qiz yugurishga tushganda, men ham yugurdim, qorong'ida kimdir yo'limni to'sdi:

– Og'irroq bo'ling, yigitcha. Qizni o'z holiga qo'-ying, zug'um bilan mehr orttirolmaysiz.

Men bu kutilmagan himoyachilardan qutulganimda qiz qochib ketgandi. Izlab-izlab bekatdan ham, sohil bo'yidan ham topolmadim. Dengiz o'zining g'adir-budir panjalari bilan qumni supurar, allaqayerda mashina chirog'i yonib turar, boshim esa xuddi mastlikdan uyg'on-gandek g'uvullardi.

Ertasiga ertalab, garchi qizning kelmasligini bilsam-da, bekatda sabr bilan soat o'ngacha kutdim. Keyin ke-

maga o'tirib Lidoga bordim. Odamzodning ko'pligidan chumoli uyasiga o'xshab ketgan sohil bo'yidagi plyajlarni boshidan oxirigacha kezib tanish pushtirang libosni izladim. Qiz yo'q edi. „Hechqisi yo'q, tushdan keyin do'konidan topib olaman“, derdim vaqt o'tkazish uchun har yerda sandiroqlab. Ammo daqiqalar juda sekin imillardi.

Do'kon ko'rgazmalarini tomosha qilish niyatida, bandargohga boruvchi ko'chaga o'tganimdagina bugun yakshanba ekanini, do'konlar ochilmasligini esladim. Qizning do'konni ham bugungidek eng uzun kunda ertalabdan kechgacha yopiq bo'lardi.

„Balki, ular do'konni ochishar, – dalda berdim o'zimga. – Ehtimol, ular hozir mol yozayotgandir yoki daromadni hisoblayotgandir“.

Ammo soat ikkida do'konga yetib kelganimda uning panjaralari tushirilgan, burchakda turgan tilanchilarni hisoblamaganda oldida hech kim yo'q edi.

„Endi bandargohda kutishdan boshqa ilojing yo'q. Agar Lidoga kelgan bo'lsa, qaytish uchun, albatta, bandargohga keladi. Kelmagan bo'lsa baribir topa ol-maysan“.

Kichkina oshxona tomon yo'l olarkanman, bu shaharga kelib qanchadan qancha vaqtimni kutish uchun sarflaganimni o'yladim. Lekin bu safargi kutishga o'zim aybdorligim uchun jazoga loyiq edim. Yarim kun emas, bir necha kunlarni intazorlik bilan o'tkazsam-da, baribir aybimni yuvolmasdim.

Sirasini aytganda, meni kutish emas, noma'lumlik va kechagi mojaro oldidagi gunohkorlik hissi ko'proq azoblardi. Negaki, muhabbat bobida (men haqiqiy sevgini aftyapman) eng kuchli azob – birovning emas, o'zingning birovga bergen zarbalaringdan keladi.

Avval kemachalar shaharga deyarli bo'sh qaytayot-gani uchun yo'lovchilarni uzoqdan turib kuzatish mumkin edi. Ammo bora-bora harakat gavjumlashdi va men kema to'xtaydigan joyga yaqin borib, turib oldim. Shaharga qaytishga oshiqqan odamlar shovqin-suron bilan to'da-to'da bo'lib o'zlarini bandargohga urardilar. Endi ular tig'iz oqimga o'xshardilar. Ishim qiyinlashdi. Odam oqimini ko'z bilan bittalab terish armiyada guruch tozalashdan ham og'ir edi. Chunki tirik oqimning adog'i yo'q, men izlagan „dona“ esa ko'rinnmasdi.

Quyosh asta-sekin ufq ortiga botdi. Dengiz to'q-ko'k tus olib sovuqlashdi. Osmon esa yanada yuqorilashib tinqlashdi-da, shaffofga o'xshab qattqlashgandek bo'ldi. Nazarimda, bir chertsa jaranglab ketadigandek tuyular-di. Ammo mening osmon bilan shug'ullanishga fursatim yo'q, chunki ko'zim olma-kesak terardi. Buni qarang-ki, ko'zlarim bu ishda qanchalik jonbozlik ko'rsatmasin, qizni tiqilinch kemaga chiqib olgandan keyingina ko'rdim.

O'zimni olomonga urdim.

– Meni o'tkazib yuboringlar, – deb yalinardim ti-qilinchda oldinga o'tishga tirishib. – Eshityapsizmi, o'tkazib yuboring!

– Qayoqqa? Hamma ham shoshyapti! – baqirishardi orqada. – Navbatga qarang!

Lekin men hech kimga qulop solmay, jon-jahdim bilan olomonni yorib boraverdim va nihoyat, qo'zg'algan kemaning panjarasidan ushlab oldim.

– Odamni-da har xili bo'ladi! Yurgan kemaga ham chiqadimi? – deb javrandi chiptachi. – Yo tavba!

Qiz joylashgan orqa paluba tomon tirsaklarim yordamida ancha surildim-u, yaqin borishga imkon bo'lma-

di. Ikkita katta chamadonning o'rtasiga turib olgan so-qolli chol yo'lni to'sib turardi.

Qiz meni ko'r mayotgani uchun cholning yelkasi osha baqirdim:

– Yeva, menga qarang!

Qiz bir seskanib o'girildi-yu, men ekanligimni ko'r-gandan keyin xuddi hafsalasi pir bo'lgandek yana de-nigizga qaradi.

– Yeva, sizga tushuntirmoqchi edim. Kechagi gap-lar...

U suvga qaragancha turaverdi.

– Kechagi gaplarim hammasi ahmoqlik...

Men cholning bo'yniga qarab baqirayotganim uchun u norozi bo'lib o'girildi.

– Mundoq o'tib tursangiz-chi, – dedim unga. – Chamadonlaringizni birov o'g'irlarmidi? Mening ishim juda zarur.

– O'ting, o'ting. Tag'in osmon uzilib yerga tush-masin!

Chol to'ng'illasa ham qulog'inining tagida turib yana baqirishimni istamadi, shekilli, chetlandi va men o'sha kungi chekkan hamma azoblarim evaziga qizning yoni-ga o'tib oldim.

– Yeva, kechagi gapirgan gaplarim uchun o'zimni la'natlayman.

– Gapingiz emas, shunday o'ylashingiz yomon, – quruqqina qilib javob berarkan qiz, menga qaramadi ham.

– Noto'g'ri, xuddi shu gapingiz noto'g'ri. Bunaqa fikr mutlaqo xayolimda yo'q. Jahlim chiqib ketibdi. Lekin sizdan emas, anavilardan jahlim chiqib, xuddi mastga o'xshab chin qayerda, bo'hton qayerda – barini

chalkashtirib yuboribman. Sizni xafa qilibman. Qo‘pol gaplar gapiribman...

Qiz dengizdan ko‘z uzmadi.

– Yeva, menga quloq soling, o‘tinaman, meni tu-shuning...

– Otimni qayerdan bilib oldingiz?

– O‘zingizdan. Tunov kuni o‘rindiqda o‘tirganimizda onangizning: „Yeva, sen mag‘rursan“, degan gapi-ni aytgandingiz. O‘sanda, siz o‘z hayotingizni gapir-ganiningizda men o‘zimning boshimdan o‘tganini o‘ylab o‘tirgandim. Chunki mening qismatim siznikidan yengil emas. Umr bo‘yi bo‘ynimni yerga egib, toptab kelishdi. Garchi ularga tegishli va kerak bo‘lmasa-da, qo‘limni uzatgan va orzu etgan narsalarimdan mosuvo qilib kelishdi. Men bularni sizga aytmagandim.

Qizdan sado chiqmadi.

– Kecha vujudimda xuruj qilgan g‘azabning sizga qaratilmaganligini, sizning shaydoyingiz bo‘lib yurganimni o‘zingiz yaxshi bilasiz. Aybnomalarimni aytayotganimda ko‘z oldimda siz emas, ular turishardi. Siz deraza edingiz, xolos, deraza ortida esa ular, bolaligimdan boshlab alam o‘tkazgan oliy tabaqa turardi. Otam inqilobchi bo‘lgani uchun litseyda o‘qib yurganimda stipendiyamni tortib olishgandi. Otam o‘ldi, lekin inqilobchi bo‘lib o‘ldi. Uning o‘g‘li sifatida meni o‘qishdan mahrum qilmoqchi bo‘lishdi. Le-kin men o‘qishni juda-juda istardim va faqat onam-ning qaro terga botib, boylarning parketini tozalashda qo‘llarini qontalash qilishi hisobiga o‘qidim. Univer-sitetda ham eng oldi talaba edim, stipendiya olishim kerak edi, lekin ular uchun xavfli kishiga aylanganim sababidan stipendiyadan mahrum qilishdi. Tunlari

qorovul bo‘lib ishlashga majbur bo‘ldim. Boyvach-chalarning o‘g‘il-qizlari Sen-Mishel xiyobonining restoranlarida kayf-safo qilib yurishganda men uy-quzisizlikdan karaxt miya bilan ma’ruza eshitardim. O‘qishni bitirgach esa, assistantlik konkursida g‘olib chiqdim, lekin uni ham menga ravo ko‘rismadi. Hatto eng past ishni-da, ikki yildan keyin va haqiqatan ham past ish bo‘lgani uchun berishdi. Va nihoyat, Venetsiyaga kelganimda, har narsadan kechishimga arziydiganganqizni uchratganimda, ular bu yerda ham to‘g‘onoq bo‘lib turishgan ekan. Shuning uchun kecha g‘azabimdan o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Sizni bermayman deb, ularga g‘azab qilib, sizga nashtar sanchganimni bilmay qolibman. Bu dunyoda sizdan boshqa kimsam yo‘q mening!

Cholning jamadolari ortidagi joy juda kichkina bo‘lgani uchun ikkovimiz ham o‘ng‘aysiz holatga tushib qoldik. Bu holatdan ikkalamizning ham yuzimizga qizillik yugurdi. Shunda qizning boshini yelkamga qo‘yayotganini sezdim. Miyamdagи tuman ichra cholning istehzosini elas-elas eshitdim.

– Ho, zarur ishligini endi tushundim. Bekorga ortidan yugurmagan ekansan-da.

Neon chiroqlariga burkanib, charaqlab turgan go‘zal Venetsiya xuddi porloq kelajakka o‘xshab bizga yaqinlashardi. Bu eng baxtli kecha bo‘lib, u haqda boshqa gapirolmayman...

Bundan keyingi kunlar hammasi baxtli va bir xilda saodatga lim-lim bo‘lgani sababli ularning oldinma-ketinligini chalkashtirib yuborganman. Bu kunlarni hech qachon unutmayman, hech qachon tartibga solib gapirib berolmayman.

Bir kuni ertalab mehmonxonadagi xonamda xuddi er-xotinga o‘xshab o‘tirardik. Ya’ni men gazeta o‘qirdim, Yeva esa nonushta tayyorlardi.

– Nima yangilik bor ekan? – deb so‘radi u iltifot ko‘rsatib.

Iltifot deganimning sababi, Yeva faqat urush bo‘lish-bo‘lmasligini bilish uchun gazeta sarlavhalariga ko‘z yogurtirib, keyin zodagon tabaqa hayoti va urdi-so‘ydi bo‘limini o‘qiydigan toifaga kirardi.

– Yangilik yo‘q, – dedim men va shu soniyadagina hech narsa o‘qimaganimni sezdim.

Chunki boyatdan beri qo‘limda gazeta-yu, aslida, Yevani kuzatib o‘tirganimni, u yaqinginamdaligi sababli misli ko‘rilmagan bir baxtni aqlimga sig‘dirishga urinayotganimni tushundim.

– Gazetangni bir daqiqaga qo‘yib tur. Uch kun ichida muhabbat so‘ngan erga o‘xshading-qo‘yding. Seni o‘z didimdagi yigit sanab yanglishibmanmi, deb o‘ylay boshladim.

– Bunaqa gapni birinchi eshitishim, – javob berdim men stulimni stol tomon surib.

– Birinchi marta eshitganingning ahamiyati yo‘q. Muhimi rostligida. Esingdami, bir marta... „Sen kutayotgan qahramon qanaqa bo‘lishi kerak“, deb so‘raganiningda kulib yuborgandim. O‘shanda „Senga ó‘xshagan“ demoqchi edim-u, burning ko‘tarilib ketishini istamay, indamagandim... Ideal darajadagi benuqson yigitlar meni qiziqtirmaydi. Chunki mabodo unaqalar bor bo‘lsa ham zerikarli, yurakni siqadigan odamlar bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Sirasini aytganda, sen ham ba’zan yuragimni siqvorarding.

– Qachon? Qachon?

– O'zingni juda boodob, qo'y og'zidan cho'p olma-gan qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan kunlaring. Aksincha, kelajak haqida nazariyalar qurbaningda, stul ko'tarib urishganingda, qimorxona oldida janjallashganingda yo-qarding. Sen bo'lsang boodob xonim bilan yurdimmi, nazokatli ko'rinnmog'im lozim, deb o'ylarding.

– Seni yo'qotib qo'yishdan qo'rquardim. Shuning uchun har qanaqa ohangga tushishga, har qanaqa kome-diya o'ynashga tayyor edim.

Yeva qahvadan ozgina ho'plab, shirin kulchadan nazokat bilan bir tishladi. Bunday ovqatlanish uning qon-qoniga singib ketgandi.

– Demak, „bir ko'rishdayoq“ deganing quruq gap emas ekan-da?

– Quruq gap emish-a?! Seni ko'rganimda burnimga musht tushgandek bo'ldi. Kemada yarim soat yo'l yurdik, keyin seni ko'rib qoldim-u, hech ko'zimni uzolmadim. O'zimni-o'zim koyidim, qarama, deb so'kdim-u, qarayverdim.

– Hattoki „Havo isib ketdi-a?“ deb, zakovatga to'la gap ham boshladning, shundaymi?

Yeva gapimni xuddi mening ovozimga o'xshatib ga-pirdi-da, muloyimgina jilmaydi.

– Mening o'nimda aqlliroq gap toparmiding yo'qmi, dargumon.

– Xafa bo'ldingmi, jonim? – so'radi Yeva stulini ya-qinroq surib.

– Menga qara, – dedim men, rostdan ham biroz ta-jang bo'lib. – Men rol o'ynagan-o'ynamaganimda ham voqeanning hozirgidek bo'lishini xayolimga keltirma-gandim. Senga qo'l ham tegizolmasam kerak, deb o'ylardim. Orzuim Venetsiyadagi vaqtimni oxirgi kungacha

sening orqangdan yurib o'tkazish edi, xolos. Buni sen tushunmaysan...

So'nggi uch kunning birida ikkovimiz avvalgidek boshqa plyajda, tepamizdag'i yashil soyabonning gumbaziga qarab suhbatlashib yotardik.

– Rostdan ham menga uylanmoqchimisan? – deb so'radi u.

– Nimasiga hayron bo'lyapsan?

– Hayron qolaman-da. Shu paytgacha hech kim senga uylanaman, deb aytmagan.

– Chindanmi?

– Baqqolni hisobga qo'shmasa – chin.

– Yaxshi. Mana endi senga xotin bo'lish taklif etildi.

Baqqolniki emas bu taklif.

– Xotining sifatida nima ishlar qilishim kerak bo'ladi?

– Istagan ishingni qilasan.

– Yo'q, sen-ayt, nima qilishimni xohlarding?

– Senga xo'jayin bo'lolmayman. Nima ishni xohlasang – shunga roziman.

– Uy bekasi bo'lsammikin-a? Oilani gullatuvchi qo'-ligul beka. Ha, aytmoqchi, uying necha xonalik?

– Ikkita. Vannasi ham bor.

– Ikki xona. Yana vannaxonasi ham bo'lsa yomon emas ekan.

– Menilmontan mahallasi uchun, boz ustiga oddiy o'qituvchi uchun – yomon emas.

– Xonalarni shinam qilib bezatamiz. Lekin bilasanmi nima, mendan yaxshi uy bekasi chiqmaydi. O'zimga shunday tuyulyapti.

– Ishga kirishing mumkin.

– Kim bo'lib?

– Sotuvchimi, g‘aznachimi yoki biron idorada xo-dimmi – bilmadim, ko‘nglingga nima yoqsa o‘sha-da.

– E qo‘ysang-chi. Bari yoqmaydi. Ishlab ko‘rgan-man, yetadi.

– O‘qishga kirishing mumkin, – dedim bosiqlik bilan.

– Nima qilaman o‘qib?

– Kasb orttirasan. Sevgan sohang bo‘yicha mutaxassis bo‘lasan.

U mening gaplarimni o‘ylardi, shekilli, indamay qoldi.

– Yoqadigan sohani topolmayapman.

– Masalan, o‘qituvchi bo‘larsan?

Yeva yana uzoq sukut saqlab, keyin luqma tashladi.

– Lekin ajoyib fikr.

O‘qituvchi bo‘lish mavzusini u tushlik paytida, osh-xonada ovqatlanib o‘tirganimizda yana davom ettirdi:

– Kichkina qizchalar o‘tirgan partalar orasida yur-ganim senga kulgili tuyulmaydimi?

– Nega endi? Qaytaga zo‘r.

Javobim uni qanoatlantirdi, shekilli.

– Rost. Nega endi mumkin emas? – dedi u kulib.

Keyin esa jiddiyashdi. – Har holda o‘zimga yoqishi mumkin bo‘lgani shu ekan. Lekin o‘qish uchun pul kerak-da!

– Bu yog‘idan xotirjam bo‘l. Har holda och qolmay-san. Osmondagи oyni va‘da qilolmayman, lekin o‘zing-ning uying, alohida xonang, kitoblarining, intilishlarining bo‘ladi. Yoki... kammi?

– Kam-ko‘pligi boshqa narsalarga bog‘liq... Yonim-da sen bo‘lsang yetarli. Shuncha yolg‘izlikdan keyin, yana qanaqangi mudhish yolg‘izlik degin...

O‘qish haqidagi fikr unda o‘ziga ishonch tug‘dirib, xayolida yangi rejalarни paydo qildi. Shu yerda o‘tiriboq, ish kuni tartibini tuzib, maoshini taqsimlab, bo‘sh vaqtни qanday o‘tkazish haqida bosh qotira boshladi.

Mana shunday kunlarning birida ko‘z oldimizda yana qo‘qqayib chol paydo bo‘ldi. U hamma cho‘miladigan joylarni izg‘ib, nihoyat qizni topgani ko‘rinib turardi. Chol soyabon va to‘sagini bizdan sal nariroqqa qo‘ydirib, Yevaga ta’zim qilgancha joylashib oldi. Odati bo‘yicha meni nazariga ilmas, ammo bizlarga xalal bermasdi.

Uning paydo bo‘lishini, ayniqsa cho‘milishga o‘tayotganimizda qizga tashlagan suq nigohini ko‘rishim bilan badanimda yoqimsiz bir titroq sezdim.

- Bir kunmas-bir kun shu cholning yuhtob basharasini buzib qo‘yamanmi, deb qo‘rqpaman.
- Ko‘ysang-chi uni. Senga tegayotgani yo‘q-ku.
- U kutyapti.
- Kutaversin.
- O‘shanda restoranda oralaringda nima bo‘lganini menga aytmagansan-a?
- Nima bo‘lardi? O‘zini juda odob va nazokat bilan tutdi. Likyor icha boshlaganimizda esa do‘st bo‘lishni taklif qildi. Yigirma yashar yigitchaning xususiyatlari bo‘lmasa-da, xotinlarga kerak bo‘lgan boshqa narsalarning hammasi unda muhayyoligini aytdi.
- Boshqa narsalar degani nimasi?
- Men ham unga shu savolni berdim.
- Savol berishning o‘rniga quloq-chakkasiga tarsaki tortvorish kerak edi.
- „Eksselsior“da tarsaki qo‘yish odatga kirmagan. Bundan tashqari o‘zingga qancha narx qo‘yishayotganini bilish hamisha qiziq.

- Xo’sh, qancha narx qo‘ydi?
- Ancha tuzuk. Mashina, kiyim-kechak masalasida maydalashadigan odam emas ekan.
- Valine’mat! – dedim men g‘azab bilan bir necha metr narida yotgan cholning qop-qora, semiz orqasiga qarab. – Aldagan bo‘lsa-chi. Yolg‘on gapirmaganmikin?
- Aldab nima qiladi. Unga o‘xshaganlar bitta laycha sotib olish uchun ellik ming beradi. Ayol uchun albatta ko‘proq to‘lasa kerak.

Garchi bu mavzu jig‘imga tegayotgan bo‘lsa-da, yana savol berishdan o‘zimni tiyolmadim.

- Anavi Apollon ham shunaqa savdoni taklif qildimi? Qizning yuzi bir soniyaga tundlashdi:
- Deyarli shunaqa. Boz ustiga ikkiyuzlamachi ekan. Meni do‘konda ko‘rgach, atrofimda girdikapalak bo‘ldi. Bir oqshom birga sayr qilishni taklif qilib, o‘zini sevib qolgandek ko‘rsatdi. Do‘kondagi bekam uni badavlat, halol xaridor sifatida bilarkan. Xullas, birinchi kun plyajda kamtarin oshiq rolini o‘ynadi. Ikkinchi kuni mangu va so‘nmas muhabbat haqida gapirdi. Uchinchi kuni esa, bu yog‘ini tekis olib boryapman, deb o‘yladi shekilli, uylanganligini, lekin xotini borligi hech qanday to‘sinq bo‘lolmasligini aytdi. Chunki hamisha birga yashasak, sof tuyg‘umiz zada bo‘lishi mumkin emish...

- Yaxshiyam uylangan ekan.
- Nega?
- Aks holda hozir birga o‘tirmasmidik... Yeva jim bo‘lib qolib, keyin tan oldi:
- Ehtimol, gaping to‘g‘ridir. Chunki u paytda seni sevib qolganimni hali bilmasdum.
- Yo‘g‘-e?! Buni qachon bilib qolding?

– Menga dahshatli ayblar to‘nkagan kuning. O‘sha kechasi boshim og‘gan tarafga uzoq yugurdim. Yo‘limda qandaydir o‘rindiq uchraganda o‘tirib qoldim. Bir vaqt qarasam, yig‘layapman. Hayron bo‘ldim. Chunki go‘dak paytimdayoq yig‘layverib ko‘zyoshlarimni ado qilganman, endi umr bo‘yi yig‘lolmayman, deb o‘ylardim. Birozdan keyin ko‘zyoshlarimning sababchisi qo‘pol va dilozor o‘qituvchi ekanligini tushundim.

– Qo‘polning baxti bor ekan, – dedim men. – Qo‘polning baxtiga Apollon uylangan ekan.

– Ehtimol, shundaydir. Kel, boshqa narsalarni gaplashaylik. Shundog‘am bu mavzudan dengiz kasaliga uchragandek behuzur bo‘laman.

Yeva kului-da, gapiga qo‘sishimcha qildi:

– Har holda, unga tegadigan bo‘lsam faqat puli uchun tegmasdim. Go‘zal, aqli-hushi joyida yigit ekan. Umuman-chi, qappaygan hamyon hech qachon mening orzum bo‘lmagan. Qappaygan hamyonlarni menga ko‘p marta taklif qilishgan.

– Shunday bo‘lishi kerak o‘zi. Bo‘pti, boshqa mavzuga o‘taylik...

Men uning o‘tmishidan qo‘rqardim. U ko‘zga ko‘rinmaydigan, qayerdadir pisib turgan va hali ham o‘z hukmini o‘tkaza oladigan dushmanha o‘xshardi. Nazarimda, u har daqiqada paydo bo‘lishi, bitta imo qilsa bas – Yeva indamay bo‘yin egib uning orqasidan ketib qolishi mumkindek tuyulardi. Shuning uchun birga yuranimizda savqi tabijy ravishda Yevaning eski dardi qo‘zg‘ashi mumkin bo‘lgan joylardan qochar, katta do‘konlarning ko‘rgazmalari, billur-u kumush idishlar bilan jihozlangan boy restoran va qimorxo-

nalarning savlatli zinalari oldidan o'tganimda hamisha qo'rqib turardim. Faqat sohildagi qumda ikkovimiz o'tirganda yoki xonamda, xuddi maktabdoshlardek yelkalarimizdan ushlashib, bizni Menilmontanda kutayotgan mo'jazgina uyimiz, kitoblarimiz, Sena bo'ylaridagi bo'lajak sayllarimiz haqida gaplashayotgan paytimizda ko'nglim xotirjam bo'lardi. Begona yo'qligi, kaftimda yelkalarining tafti, yanog'imga mayin sochlari tegib turgani uchun ko'hna toshlarga chapillab urilayotgan suv ham g'ashimga tegmas, parovoz chinqiriqlari ham g'amgin tuyulmasdi.

Venetsiyadagi oxirgi kun ham keldi.

Yeva meni uyiga yo'latmagani uchun bir kun avval unga narsalarini taxtlab, tayyorlab qo'yishini tayinladim. „Bu qiyin ish emas, – dedi u. – Chunki bor-yo'q yukim bir chamadonga jo bo'ladi“.

Xullas, oxirgi kun mehmonxona oldidagi bekatda uchrashganimizda qo'lidan ushlab kemadan tushishi-ga yordamlasharkanman, tantanavor ohangda chiptalar olinganini, ertaga ertalab jo'nab ketishimizni e'lon qildim. U e'tiroz bildirmadi. Faqat:

– Bir joyga borib bir finjondan qahva ichaylik, – dedi.

– Ichamiz. Zo'rrog'idan ham ichamiz, – dedim o'sha ohangda. – Sakkiz mingim bor – yemak-ichmakka. Tejamkorlikning oqibatini ko'rib qo'y!

Yeva bosh irg'adi-yu, lekin jilmaymadi. Shundagina rangi oqarib, chag'ir ko'zлari ostida horg'inlik ko'lkalari paydo bo'lganini ko'rdim.

– Senga nima bo'ldi? Kechasi uxmlamadingmi? – so'radim men.

– Qo'yaver. Qahva ichaylik.

Biz vokzaldan shaharga olib boruvchi gavjum ko‘chadagi stolga o‘tirdik. Atrofimizda bu ko‘chaning rang-barang hayotini ko‘z-ko‘z qilgandek, savat-savat non ko‘targan xizmatkorlar, katta-katta yelim qo‘g‘ir-choq yoki shisha buyum ortgan aravachalarini itarib yurgan xotinlar g‘uj-g‘uj o‘tib turardi.

Yeva qahvasini indamay ichdi, keyin menga o‘ychan tikildi:

– Bilasanmi, Jan-Lyuk, kechasi bilan o‘ylab chiqdim. Sen bilan ketolmayman. Ketolmayman.

– Kechasi uxlamaganing uchun nima deyotganiningni o‘zing ham bilmayapsan.

– Iltimos, kasal bolaning xarxashasi, degandek muomala qilma, – dedi u xotirjam holda. – Nima deyotganimni yaxshi bilib turganim uchungina aytishga jazm qildim.

– Birpas to‘xta, – dedim unga. – Boshqatdan gapashaylik. Kecha kechqurun birga ketishni kelishgandik, shundaymi?

Yeva bosh irg‘adi.

– Buyumlaringni taxt qilishni ham kelishgandik. Taxt qildingmi?

– Taxt qildim... Taxt qilayotgandim. Xuddi ana shu paytda, latta-putta-yu mayda-chuydalarimni yig‘ishti-rayotgan paytimda ikkalamiz o‘ylagan bu‘ish bema’ni ekanligini payqadim. Bo‘limgan gap, tushunsang-chi, Jan-Lyuk, iloji yo‘q.

– Nega iloji yo‘q?

– Nega, nega? Yuzta, mingta sababi bor. Chunki men butunlay bo‘lakcha muhitning odamiman, chunki sening mahallangga el bo‘lmayman, chunki sen bilan men mutlaqo boshqa-boshqa odamlarmiz...

– Boshqa-boshqa bo‘lsak nima qipti? Shu paytga-cha boshqa-boshqa ekanligimiz baxtimizga to‘g‘onoq bo‘lmadi-ku axir?

– Tushunsang-chi, Jan-Lyuk, bu boshqa. Bu yer-dagi kunlarimiz ilk muhabbat kunlari edi. Ilk kunlar, bekorchilik, bo‘sht vaqt serob, sen dam olishdasan, bir yoqda Venetsiya, bir yoqda Lido... U yoqda boshqacha bo‘ladi: hazil-huzul, o‘yin-kulgilarsiz uzun ish kunlari bo‘ladi. Men o‘zimni yaxshi bilaman, Jan-Lyuk, u yerda baxtli bo‘lolmayman, seni ham baxtiyor qilolmayman.

– Qo‘ysang-chi, – dedim men o‘jarlik bilan. – Ke-chasi uxlamagansan, hozir mazang yo‘q, o‘tmish shar-palari qiynayapti...

– Xo‘p, yaxshi, shu o‘tmish sharpalarini quvib yu-borish qo‘lingdan keladimi? Mana bunday qilib, – u xuddi tutun haydagandek qo‘l silkitdi. – Darrovgina tarqatib bo‘larkanmi? O‘tmishim o‘zining avvalgi orzu-lari bilan meni ta’qib qilaveradi, qiynayveradi. Axir ular senga ahmoqona ko‘ringani bilan mening qon-qonimga, miyamning har bir hujayrasiga singishib ketgan-ku?!

Parishon holatda uning gaplarini tinglarkanman, o‘ylardim:

„Kitob va kitobga bog‘liq ishlarga sho‘ng‘igan ilm kishisi bir yoqda, kiyim-kechak, badavlat hayat-u o‘yin va tomoshalarni, yaltiroqlikni seuvuchchi ayol ikkinchi yoqda: eng beo‘xshov qovushish ekanligi yosh bolaga ham ayon“.

– Tushungin, jon Jan-Lyuk, o‘zi-ku aytib o‘tirishning hojati yo‘q edi, lekin senga dilimni oxirigacha to‘kib so-lishga qaror qildim. Men uzoq yillar shunchalik ko‘p or-zular bilan yashadimki, u orzularimga shunchalik ko‘nikib ketdimki, ularni dilimdan chiqarib yuborolmayman. Ming istab turgan chog‘imda ham bu qo‘limdan kelmaydi.

– Menga qara, – gapini kesdim uning. – Senga hozir ba’zi bir fikrlarimni aytaman, lekin sen, iltimos, diqqat qilib xotirjam qulq sol... Yana bitta qahva ichmaysanmi, rostdan ham qiynalib ketibsan?

– Yo‘q. Ichgim kelmayapti.

– Bo‘lmasa eshit: „Mendan ko‘ra latta-puttani afzal ko‘ryapsan, degan ahmoqona ta’nalar qilmayman. Dilingdagini yashirmay aytding, shunga ham rahmat. O‘zim haqimda ham gapirmayman... Men seni qanday bo‘lsang shundayligingcha qabul qilaman, keyinchalik nechog‘lik qiyalmayin, o‘zimni baxtiyor deb, bu yerda qolsang eng katta baxtsizligim deb bilaman. Demak, masala sening qaroring qanaqaligida, deb hisoblaymiz. Sen – safoli hayot, yaltiroqlik va shunga o‘xshagan narsalar haqida gapirding. Agar senga birov bularni taklif qilganda edi, mening gaplarim mutlaqo ortiqcha bo‘lardi. Chunki sen ikki narsadan birini va albatta o‘zingga yoqadiganini tanlayotgan hisoblanarding. Lekin, Yeva, sen ikkitasidan birini tanlamayotganingni tushunmayapsan. Sen bor va yetishsa bo‘ladigan narsa bilan orzuning o‘rtasida, kamtarin turmush bilan yaltiroq sarob o‘rtasida turibsan. Sen quvayotgan sarob – xomxayoldir.

U e’tiroz bildirmoqchi edi, men qo‘ymadim.

– Bu shaharda qoladigan bo‘lsang, peshonangga nimalar yozilganini aytib berishim mumkin. Men ularni aniq ko‘rib turibman. Sen o‘zingning yurakni siquvchi do‘koningda, xalatlar va cho‘milish liboslari orasida o‘tirib kutaverasan-kutaverasan. Cho‘miladigan joylarni izg‘ib, qimorxonalar oldida serrayib kutaverasan-kutaverasan. Surbet va qo‘pol odamlarga to‘qnashaverasan, har bittasi bilan diling siyoh bo‘lib pachakilashaverasan va

kutaverasan. Yemak-ichmakdan tejab, arzon narsadan qimmat kiyim qilishni o'ylayverasan va kutaverasan. Yolg'izlikda azoblanib, kechasi qashshog'ona kulbangga yolg'iz qaytib, yolg'izlikda yig'lab-siqtab, yolg'izlikda siqilib kutaverasan-kutaverasan. Bir kun kelib yuzingning ko'hligi yo'qolayotganini, ko'zlarining ostiga mayda ajinlar tushganini, sochlaringning yaltirashi so'nayotganini ko'rasan-da, dahshatga tushasan. Boshqa kutishga fursating qolmaganidan, vujudingni vahima qoplaydi va shartta birinchi uchragan odamga tegishga rozilik berasan. U odam cholga o'xshagan yoki undan battari bo'lishi ham mumkin.

Yana nimalardir deyish kerakligini bilardim, lekin o'ylab topishga vaqtim yo'q edi. Ehtimol, boshqacharoq qilib gapirish lozim edi, lekin so'z topishga imkonim yo'q edi. Go'yoki ko'p gap uni qaroridan qaytarishi mumkin, deb o'ylab gapiraverdim.

– Qo'rqtib, yonida olib qolish uchun ataylab baxtiqarolik manzarasini chizyapti deb o'ylashing mumkin. Xo'sh, u holda baxting chopgani qanday bo'ladi? Boy er uchraydimi? Axir, bu mingdan bir ehtimol-ku? Unday er uchragan taqdirda ham u qanday bo'ladi? Seni tushunarmikan, faqat go'zal jismingnigina sevadigani uchramasmikin? O'ylaganlaringning eng osoni – yasan-tusanlik bilan safolik turmushni ta'min etarmikin? Sening vaziyating hadeb tannozlik qilib, tanlayverishni ko'tarmaydi. Boy erni topishingga mingtadan bitta, eshityapsanmi, mingtadan bitta imkoniyating bor. Uning ko'nglingdagidek chiqishiga esa yuz mingtadan bitta imkoniyating bor, xolos.

Yeva horg'in yuzini kaftiga tiradi-da, tik qarolmay asta shivirladi:

- Gap sanoqdam? Qo'y, shu ming-u yuz minglarni...
- Sening yo'q narsani, bo'lmaydigan narsani kutayotganingni ta'kidlamoqchiman.
- Ehtimol, sen haqdirsan. Bilmadim. Lekin sening taklifing ham ushalmaydigan narsa. Menga, mana shu fe'li xo'yimga mos kelmaydigan narsa.
- Noto'g'ri. Mana shu gaping – sening ikkinchi xatoying. Sen olisdagi sarobga ishonyapsan-u, yaqining-dagi rosmana hayotga, o'zingga va menga ishonmayapsan. Rosmana hayotni bilmaganing uchun, notanishligidan mavhum bo'lib tuyulayotgani uchungina undan qo'rqtyapsan. Umrida birinchi marta qalin kitob tekkan yosh va tajribasiz o'spirin men bu kitobni hech qachon o'qib chiqolmayman, deb qo'rqadi. Sen go'yoki ana shunga o'xshayapsan. Lekin o'sha tajribasiz va yosh mavjudot ham xuddi ajdodlariga o'xshab baribir bu kitobni bir kunmas-bir kun tushunib yetadi.

U boshini ko'tarib menga qaradi-da, ayanchli kului:

- Seningcha, hammasi juda oson...
- Senga ham oson bo'ladi. Buning uchun narsalariga oddiy ko'z bilan qarasang bas. Senga bizning bo'la-jak hayotimiz tinimsiz og'ir mehnatga to'la kunlarning uzluksiz qatori bo'lib ko'rinyapti. Vaholanki, unday emas. Yeva, bizning turmushimiz unday bo'lmaydi. O'zimizga yarasha o'yin-kulgi qilamiz, yasan-tusaning ham joyida bo'ladi. Million-million puli bor La Begumga qaraganda seniki oson ko'chadi. Chunki o'n million so'mlik kashtaga o'ralgani bilan sigir baribir sigirligicha qolaveradi.

Yeva kulib yubordi. Juda quvnoq bo'lmasa-da, har holda kului.

- Rost-da! Xuddi monastirga otlangandek qovoq-

tumshug‘ingni osiltirib olyapsan. Axir olib ketmoqchi bo‘lgan taraflarimda ham o‘zingni bu yerdagidan ortiq bo‘lsa ortiqki, kam darajada emas – ko‘z-ko‘z qilib yurasan. Erkaklar, ha, bu ablak erkaklar senga o‘sha yerda ham suqlanishadi. Xotinlar o‘sha yerda ham senga hasad qilishadi. Chunki mening Yevamdaqa go‘zal dunyoda juda kam topiladi.

U yana kului.

– Nega kulyapsan?

– Dalil topish uchun tasavvuringni zo‘rlayotganiningni ko‘rib turibman. Sen yaxshisan, Jan-Lyuk. Men senga arzimayman.

– Bu gapni gapirma. Bo‘pti, bo‘lmasa bunaqasiga ish tutamiz. Sen men bilan ketasan, o‘sha yerda ikki oy yashab, sharoitni o‘z ko‘zing bilan ko‘rib, o‘sha yerda hal qilasan. Agarda yo‘q, menga to‘g‘ri kelmas ekan, desang – bo‘ldi. Hech narsa demayman.

U finjonne stol ustida aylantirgancha javob bermadi.

– Ikki oy, Yeva. Ikki oy, xolos. Rozimisan?

Nihoyat, u nigohini menga qaratdi. Ko‘zlar yana munis va mehribon boqardi:

– Mayli, Jan-Lyuk, roziman.

Shunday deb, u nozik qo‘llari bilan barmoqlarimni ushladi-da, siqib qo‘ydi.

Yo‘lovchi o‘zi tomon bostirib kelayotgan mashinani ko‘rib, o‘ldim, deb o‘ylaydi-yu, tasodifan tirik qoladi. Qo‘rquvdan yuragi gupullab, tomirlari gursullab tepatyotganini, badani jiqla ho‘l bo‘lganini sezadi. Men o‘zimning xuddi shu holatga tushganimni sezdim.

Shu kuni kechgacha birga bo‘ldik. Chunki bu kun Venetsiyadagi oxirgi kunimiz edi. Chunki Yeva do‘kondagi ishidan bo‘shaganini aytdi. Biz yana cho‘miladigan

yerga bordik, yana o'sha norinjrang soyabonli oshxonada ovqatlandik. Ilgari sayr qilgan hamma tanish joylarda yana sayr qildik. U yerlarning bari o'zimizni bo'lib qolgandek edi. „Huv anavi yerda o'tirib Mopassanning „Jonginam“i haqida gaplashganimiz esingdami?“ yoki „Ho've anavi yerda meni oftob urgani, uyimga borib yotishim kerakligini aytganing esingdami?“ deb savollai berardim va sevgimiz ham o'z tarixiga, muborak joylariga va sanalarga ega bo'lib qolganidan huzurlanardim. Xotiralarga tolib ketgan bu bir parchagina yerning bir oy muqaddam menga mutlaqo begonadek tuyulganiga hayron-hayron edim.

Qosh qorayganda shaharga qaytdik. Qorong'ilik dengiz to'lqinlarini ko'zdan yashirgandi. Bizga kelib urilayotganlari esa kema chiroqlarining yorug'ida ko'mko'k ko'rinaldi. Osmanni nafarmon bulutlar qoplab, o'rtasidagina saqlanib turgan ko'k yorug'lik esa uyiga qaytgan quyoshning iziga o'xshardi.

Chiptachi bir maromdag'i ora-siralikda „Chieza della Salute“, „Palatso Dario“, „Ka Foskari“, deb bekatlarning nomini aytganda, men bu nomlarni aziz xotira sifatida emas, oddiy to'xtamlar sifatida esimda olib qol-yapman, deb o'ylardim. Tomosha rejalarim yozilgan, hozir qayerga tiqib tashlaganim ham nom'a'lum yon daftarchamni esladim. Lekin daftarcham ham, undagi rejalarining bajarilmay qolgani ham meni tashvishlantirmasdi. Ko'zda tutilmagan boshqa muhim ishni amalga oshirganimdan juda mamnun edim.

Bizni qurshagan qorong'ilikda sovuq, nim yashil nurga burkangan qasrlar orqada qolarkan, tez-tez eshitilayotgan boshqa kemalarning ovozlarigina, xuddi gavjum xiyobonlardagidek, kanalda hayot qayna-

yotganidan dalolat berardi. Lekin men bu hayotga ko'nikib qolgandim. Kema sahni ilgarigidek muallaq tuyulmas, seviklimni quchib turarkanman, atrofimda-gi tovush va sharpalarni aniq idrok etardim. Bo'g'iq, og'ir shapillashni eshitganda beso'naqay yuk qayiqlarini; tez o'tib ketgan hushtakli ovozdan, zer-u zabar-li vedettaning yarqiroq qiyofasini; siyqasi chiqqan ko'hna ashuladan uchi osmonga qanqaygan, qora va uzunchoq gondolani, undagi bir juft sayyohni, qayiq eshib, qo'shiq aytayotgan gondolerni aniq tasavvur qilardim. Gondoler o'lganining kunidan kuylayot-ganini, romans ham kira haqiga kirishidan bexabar, bir juft sayyoh uyiga qaytgandan keyin haqiqiy gon-dolada uchishganini, gondoler esa qadimiylar romanslar kuylaganini tanishlariga maqtanishlarini o'ylardim. O'zimning esa – haqiqiy muhabbat sevinchi va o'kinchlaridan bebahra, osoyishta va ravon nafasi ko'kragimda sezilayotgan seviklimni uchratmay, shu shaharga oddiygina tomoshabin sifatida kelib-ketuvchi minglab sayyoohlarga o'xshashimga bir bahya qolGANI-ni eslasam, dahshatga tushardim.

– Biz chamadonlarni olgani ketyapmiz-a? – so'radim vokzalga yaqinlashganimizda.

– Hah, namuncha orqa-oldini o'layvermasang? Chamadonlarni qo'ysang-chi axir, bu yerda oxirgi soatlarni o'tkazyapmiz.

– Xo'p, shu oxirgi soatlarda nima ish qilamiz!

– Raqs tushgim kelyapti. Huv bir marta borgan joyimizga boramiz.

– Anavi amerikacha ko'yakli nusxa burnimning pa-chog'ini chiqaray degan joygami?

– Yo'q... Birinchi uchrashgan joyimizga.

– Uchrashganim esimda-ku, joy esimdan chiqibdi.  
Qayerda edi?

- Joyi esimda-ku, uchrashganim esimda yo‘q.
- Aytmasang ham bo‘lardi, – dedim to‘ng‘illab. Shusiz ham o‘sha uchrashuv qimmatga tushgandi menga.
- Chunki uchrashuv shunaqa... Uning arzoni bo‘lmaydi.
- Juda muruvvatlisan-da. Faqat har bitta sadaqang-dan keyin odam tarsaki kutadi.

Menimcha, shu gapim bilan qitiq patiga tegdim, shekilli, u teskari burilib, yaqinlashayotgan charog‘on bandargohni tomosha qila boshladi.

Lekin yo‘lda u ginasini unutdi, rang-barang qog‘oz fonarlar osib tashlangan bog‘ga yetib kelganimizda esa batamom xushchaqchaq edi. Oxirgi soatlar sharo-fati bilan biz ko‘p raqs tushdik, odatdagidan ortiqroq may ichdik va bizga o‘sha kuni hech kim tegajoqlik qilmadi.

– Bilasanmi? – dedim men. – Raqs maydonlarini sizlar o‘ylab chiqarmagansiz. Biz tomonda ham Sena bo‘ylarida shunaqa ochiq raqs maydonchalari juda ko‘p. Yigitlarimiz ham akkordeonni sizlarnikidan qolishmay sayratishadi.

– Akkordeonlaringizni eshitganman, – dedi Yeva. – Odamning yuragini siqadi.

– Yolg‘iz turib eshitgan bo‘lsang kerak. Yolg‘izlikda har qanday kuy mungli eshitiladi. Bir kun mana shu joyga ham o‘zing kelib ko‘r-chi, akkordeondan hozirgichalik maza qilarmikinsan?

– Nega bunday deyapsan? – so‘radi u qovog‘ini uyib. – Kuldirish uchunmi? Yaxshisi, yur yana ozginadan ichamiz.

— Yaxshisi, ko‘p ichamiz, lekin senga nima bo‘ldi?  
Ilgari deyarli ichmasding...

— Ichkilik tan tarovatini buzadi. Husnni saqlash qanchalik qiyin ekanligini siz erkaklar tushunmaysiz. Hamisha odam o‘ziga qarab yurishi kerak. Ayniqsa, husningdan boshqa boyliging bo‘lmasa.

May tufayli ozgina qizargan yuzlari, xiyol ochiq qirmizi lablari, iliq mehr-la boquvchi chuqur chag‘ir ko‘zлari bilan Yeva har doimgidan ham go‘zal ko‘rinardi. Men bilan birga, mening qo‘limni ushlab o‘tirganiga ishongim kelmasdi. Dasturxonadagi noz-ne’matlar, rang-barang fonuslar esa buni yanada xayoliyroq ko‘rsatar, ko‘zimni yumsam bari yo‘qoladi-yu, o‘zimni mehmonxona qarshisidagi qahvaxonada ko‘raman, deb qo‘rqardim.

Mehmonxonaga biz juda kech qaytdik. Bir payt uyqu aralash soat zangini va Yevaning turayotganini sezdim.

— Qayoqqa? Nima bo‘ldi? — so‘radim yotgan joyimda, ko‘zimni ochmay.

— Chamadonimni olib kelay. Ko‘rmayapsanmi, tong otyapti.

Men ko‘zimni ochmoqchi bo‘ldim.

— Uxlayver, uxlayver, — shivirladi u yuzimni silab. — Tezda qaytaman.

Yana uyqu og‘ushiga cho‘markanman, uning nozik lablari peshonamga tekkanini sezdim.

Telefon keskin, cho‘ziq-cho‘ziq jiringladi. Unga qo‘limni uzatarkanman, hali uyqudan to‘la uyg‘onmagandim.

— Soat sakkiz, — dedi go‘shakdan mehmonxona xizmatchisi. — Sakkizda uyg‘otib qo‘yishni so‘ragan dingiz.

Men bir narsalar deb javob bera turib, birdan o‘zim-ga keldim:

– Xonim kelib qolsa, meni kutib turishlarini iltimos qiling. Men hozir tushaman.

Poyezdimiz soat to‘qqizda jo‘naydigan bo‘lgani uchun vaqtimiz ziq edi. Apil-tapil soqolimni olib, kechagi ichilgan mayning zahrini ketkazish uchun boshimni sovuq suvga tiqdim. Kiyinib bo‘lgach, aslida, tartibni xush ko‘rsam-da, Yeva kutib qolmasligi uchun narsalarimni chamadonga tartibsiz ravishda tiqa boshladim. Har bir safarga hamroh bo‘luvchi: yuvilmagan kiyimlar, rangli otkritkalar, shahar yo‘lnomalari, qum qoldiqlari yopishgan cho‘milish kiyimlari, chig‘anoqlar bilan bezatilgan qog‘oz cuti, o‘zim bilan olib kelib biron marta ham ochib o‘qimagan kitoblarim – hammasi chamadonga palapartish joylashdi.

Pastga tushganimda Yeva ko‘rinmasdi. Nonushta ham qildimki, undan darak bo‘lmadi. Birdan vujudim-dagi sарxushlik qoldig‘ining cho‘ng bosh og‘rig‘iga „kelmasa-chi?“ degan fikrning keskir og‘rig‘i qo‘schildi. O‘rnimdan turib ketib, keng dahlizning u yog‘idan bu yog‘iga borib kela boshladim.

Dahlizning toshtaxtalari oq va qora rangli edi. Men ishning xayrli tugashiga go‘yoki ko‘mak berishi mumkindek oq taxtalarni bosishga urinardim. Yo‘q, u kelmay qolishi mumkin emas. Hech bo‘lmasa va’da bergani uchun ham keladi. Mutlaqo mumkin emas. Qora. Oq. Qora. Oq. Yuklari tufayli kechikyapti. Bir tiyinga qimmat, lekin shusiz xotinlarning kuni o‘tmaydigan mayda-chuyda buyumlar tufayli kechikyapti, xolos. Go‘yo Parijda topilmaydigandek, tagida bir tomchi qolgan tirnoq bo‘yog‘ini, labbo‘yog‘ini olar... Qora. Oq.

Qora. Oq. Ayollar hamisha kechikib yuradi. Boz ustiga go‘zal ayol bo‘lsa – beshbattar. Endi chiqib ketaman, deb eshikka borgan paytida yana bir narsasi esiga tushib orqaga qaytadi-da, boshqatdan o‘zini oynaga soladi. Kechikyapti, kechikyapti. Lekin poyezddan qoladigan darajada kechikmas?! So‘nggi daqiqada paydo bo‘ladi, natijada, tentakka o‘xshab yugurishga, joy talashib urishishga to‘g‘ri keladi.

Toshtaxtalarning oqini tanlab bosib, betoqat yurishda davom etarkanman, g‘aznadagi chipta sanayotgan o‘spirin menga zig‘irchalik ahamiyat bermasdi. Menga o‘xshab orziqib kutganlarning mingtasini ko‘rgan bo‘lsa kerak. Mehmonxonada turli nusxalar boshpana topadi. Uning qo‘lidagi kvitansiyalar men bilan bir kunda jo‘naydigan nusxalarga tegishliligi shak-shubhasiz.

Devorga osilgan qadimiylar katta soat juda qattiq chiqillardi. Uning bu chiqillashida surbetlik va odamning jig‘iga tegadigan xususiyat bor edi. Bu padaringga la’nat, xuddi vaqt ni o‘zi ishlab chiqarayotgandek namuncha shovqin soladi?! Yigirmata kam to‘qqiz, hali erta. Hali juda-juda erta. Vokzal yaqin – ikki qadam joy. Borish ikki daqiqa, joy egallash bir daqiqa – tamomvassalom.

Shunday bo‘lsa-da, bu bo‘m-bo‘sh dahlizda boshqa qololmasdim. Bir narsalar qilishim kerak edi.

– Iltimos, – dedim o‘spiringa qarab. – Men joy olib turaman. Xonim kelsa vokzaldaligimni aytib qo‘ying. To‘rtinch yo‘lda.

– Xo‘p bo‘ladi, afandim.

Shu paytda bandargohga kema kelib, to‘xtaganini ko‘rib qoldim. Passajirlari tushib bo‘lishini kutdim – Yeva yo‘q edi.

Chamadonlarimni ko‘tarib yo‘lga otlandim. „Keyingi kema to‘xtagunicha qaytib kelaman. Albatta, kutib olaman“. Vokzalga olib chiqadigan zinadan ko‘tarilar-kanman, har ehtimolga qarshi bot-bot orqamga o‘girilib qo‘yardim.

Poyezdga passajirlar joylasha boshlagan bo‘lsa-da, hali bo‘sh joylar bor edi. Yeva kechikib qolsa ko‘p yugurishga to‘g‘ri kelmasligi uchun yuklarimni oxirgi vagonga qo‘ydim. So‘ng bandargohga tushib, navbat-dagi kemani kutdim. Undan juda ko‘p odam tushdi-yu, Yeva ularning orasida ko‘rinmadni. „Vokzaldalik paytimda kelib mehmonxonaga kirib ketgan bo‘lsa-chi? Bu ipirisqi kemachilarning tayini bormi? Ba’zan bir soatlab kutasan, ba’zan ketma-ketiga kelishadi“.

— Yo‘q, afandim, sizni hech kim so‘ragani yo‘q, — deb javob berdi o‘spirin.

— Mabodo joyingizdan u yoq-bu yoqqa jilmadiringizmi?

— Yo‘q, — dedi u. — Menga jilmasligim uchun maosh berishadi.

Yana bandargohga otildim.

Bandargoh bo‘m-bo‘sh, soat esa o‘nta kam to‘qqizni ko‘rsatardi.

„Sen qo‘rroqlik qilib, mushuk-sichqon o‘ynayapsan, — dedim o‘zimga-o‘zim. — Kelmay qolsa nima qila-san, degan savolga javob beraver. Hozir masala shunga kelib to‘xtadi“.

Bu savolga javob berishdan o‘zimni boyadan beri olib qochayotgandim. Chunki Yeva kelmay qolishini o‘ylasam, nafasim g‘ippa bo‘g‘ilib qoladiganga o‘xshardi. Ammo poyezd jo‘nashiga o‘n daqiqa vaqt qoldi, xolos. Savol o‘z-o‘zidan birinchi o‘ringa chiqayotgandi.

„Hech qayoqqa ketmayman, – dedim jahl bilan. – Yeva kelmaguncha joyimdan bir qadam ham jilmayman. Hali uni ortga qaytarishga imkon bor!“

Lekin, aslida, bularning bari quruq gap bo‘lib, cho‘ntagimda bir tiyin pulim yo‘qligidan noiloj ahvolda qolgandim. Boyagi gap esa bolalarcha o‘jarlikdan edi.

Daqiqalar birin-ketin o‘tar, kema esa kelmasdi.

„Hoy tentak, mehmonxonaga kirgan paytingda kelgan bo‘lsa-chi? Ha, to‘g‘ri vokzalga o‘tib ketgan-u, hozir zir-zir izlab yuribdi. Sen esa bu yerda hayot yo matmot deb o‘tiribsan“.

Shu fikrdan keyin perronga chopdim. To‘rtinchı yo‘lda uch-to‘rttagina kuzatuvchi turar, passajirlar allaqachon joylashib olishgandi. Yevadan darak yo‘q, poyezd jo‘nashiga esa besh daqiqa qolgandi. Modomiki ketadigan bo‘lsam, men ham o‘tirishim kerak edi.

„Yana bir marta qaray, – dedim o‘zimga-o‘zim. – Bir marta qarashim kerak. Aks holda shu bir marta qaramaganim uchun undan judo bo‘lganman, deb umr bo‘yi o‘zimni ayblab yuraman“.

Perronga chiqqanimda, bandargohda to‘xtab turgan kema asta jo‘nay boshladı. Vokzal zinasida turgan joyimda nafasim bo‘g‘zimga tiqilib qolgandek bo‘ldi. Chunki kemadagi passajirlar orasida kichkinagina push tirang parchaga ko‘zim tushgandi.

Bir necha zinapoyani birdaniga hatlab, baqirgancha oldinga otildim. Kema bilan mening oramda ikki metrcha masofa bor edi.

– Yeva! – deb baqirdim men. – Yeva, qayoqqa ket yapsan!?

Men uni yaqqol ko‘rib turardim. O‘nlarcha marta kayuta soyasida, yonimda turgandek edi. Yeva o‘zi-

ni ko‘rmaslikka, eshitmaslikka solmoqchi bo‘ldi-yu, sabri yetmay o‘girildi. Uning chehrasi osoyishta – hamishagidek osoyishta edi. Faqat nam tortgan ko‘zлari qorayibroq qolgandi.

– Yeva, – deb baqirardim men kema motorining ovozidan zo‘r kelish uchun. – Yeva, javob ber: seni kutaymi?

Mening sarvqomat Yevam javob bermas, odamlar ichida qimir etmay turardi. Nihoyat, nozik qo‘lini ko‘tarib labiga bosganda meni o‘payotganini, suv uzra, odamlarning boshlari uzra meni o‘payotganini vujudim bilan his qildim. Ammo... bu vidolashuv bo‘sasi edi.

Poyezdga qanday o‘tirganimni, Parijga qanday yetib kelganimni bilmayman. Tiqilinch kupeda o‘tirarkanman, og‘ir va qahrli bir narsa meni yerga bukayotganini sezardim. Nazarimda, meni hamisha ezib, intilgan eng qimmatli narsalarimni hamisha tortib oladigan, mahrum qiladigan ko‘zga ko‘rinmas yo‘qchilik taqdirining qo‘liga o‘xshardi u. O‘zimni uxlaganga solib, yuzimni kaftlarim bilan yashirardim, shunda odamlarga ko‘zyoshlarim ko‘rinmasdi. Ha, men yig‘lardim. Chunki g‘olib keldim, erishdim deganingda mosuvo bo‘lish, ikki kishi uchun kurashish oson emasdi.

G‘ildiraklarning bir maromda taqillashi ostida qulqlarimga uzuq-yuluq jumlalar eshitilayotgandek bo‘ldi.

„Hammasi o‘tib ketadi. Ming bir olamning eng yaxshisi bo‘lgan bu dunyoda barcha narsa yaxshilikka olib boradi“.

„Siz uchun hamma narsa yaxshilik bilan tugaydimi?“

„Albatta, hamma narsa“.

Yo‘q. Hammasi emas ekan. Chunki mening Yevam hamon men bilan birga. Mening hayotimga mustah-

kam o'rnashib olgani uchun uni tashlab ketolmayman. Metroda ketayotganimda ham, sinfda o'quvchining tutilib-tutilib javob berishini eshitayotganimda ham xayolan Yeva bilan gaplashayotganimni sezib qolaman. O'sha kuni qahvaxonadagiga o'xshab uni ishontirishga, o'zim bilan ketishga ko'ndirishga urinaman. Xayolimda-gi suhbatlarimga yaxshilab tayyorlanib, o'ylab organim uchun dalillarim qahvaxonadagidan ko'ra ishonchliroq va ko'proq bo'ladi. Yoki hozir u qayda ekan, o'zining shahzodasini topganmikin, deb o'ylayman. Tunlari uzoq uyqusizliklardan keyin nihoyat ko'zim yumilgan paytdagi dahshatli tushlarimda ham Yeva paydo bo'ladi. Qiy-nalgan, sillasi qurigan, ko'zlarining chaqnashi so'ngan, lablari azobdan qimtilgan holda ko'rindi menga. U sohil bo'yida tentirab nimanidir izlab-izlab timirskila-nadi-da, topolmay, yana tentirab yo'lida davom etadi. Shu soniyada uning boshi uzra sovuq shu'la nur so-chadi. Ana shu xira sovuq shu'la ichidan sovuq nigohli chol paydo bo'ladi. Cho'chib uyg'onaman-da, alahlash yurakka zahm berolmasligini bilganim uchun alahlayap-man, deyman o'zimga-o'zim.

Keyin qorong'i va yolg'izlikda parovozlarning g'am-gin gudoklarini eshitib yotaman.

## **MAFTUNKOR PARVOZ JOZIBASI**

Zamharir qish kunlarining birida ovdan qaytayotib „Ludogor“ yoqalab chanada kelardim. Chetan arava odam bilan liq to‘la, ba’zilar aravakashlarning orqasida oldinga qarab, boshqa birovlari teskari – orqa o‘girib, uchinchilari noqulayroq – yonlamasiga o‘tirib olishgan, yo‘lovchilarning hammasi horib-charchagan, ayoz zabitidan sovuq qotgan, bir qadar ma’yus ko‘rinishardi. Biz yoqalarimizni ko‘tarib, qulqchinlarimizni tushirib, telpaklarimizni bostirib kiyib olgan edik, bu ham kamlik qilgandek sharf bilan og‘iz-burnimizni o‘rab olgandik, shu sababli bironta yo‘lovchining afti-angoridan tanib bo‘lmasdi. Telpaklar hamda sharflar ostidan bug‘ o‘rlar, damo-dam pishqirayotgan otlarning burun kataklaridan ham oppoq, quyuq bug‘ chiqardi. Chanada ketayotganingda sovuq bir zumda suyak-suyagingdan o‘tib, a’zoyi-badaning uvusha boshlaydi, ko‘zlarining yoslanib borliq, atrofingni qurshagan jamiki narsalat shumshuk bo‘lib ko‘rinadi.

O‘rmon yoqasidagi ilonizi yo‘l dam pastga sho‘ng‘ir, dam yuqoriga o‘rlar, ba’zi yerlarida chana surilib ketib, uning tag qismi mayda shag‘al bilan toshlarda sirg‘alib g‘ijirlar, otlar pishqirar, aravakash qamchinini azot ko‘tarib: „Hah, dangasa, ishyoqmaslar, qani, ildamroq, chu!“ deya qichqirib qolar edi. Qor yog‘ib oppoq choy-

shab yopib qo'yilgandek ko'rinayotgan yo'l chana ortida yastanib qolar, bir nafas sukutga cho'mgan o'rmon chekinar, yo'l yoqasida qator saf tortgan dov-daraxtlar lip-lip o'tar, oldindagilari juda tez yaqinlashib kelsa, ortda qolganlari juda sekin ko'zdan yo'qolar, pirovardida xuddi o'rmon son-sanoqsiz ulkan oyoqlari yordamida harakatga kirgandek tuyular, shu bilan birga, biron ta daraxt ikkinchisiga urilib ketmasdi. Bunday manzara chin-danam mahliyo bo'lib tomosha qilishga arzigulik edi.

Chana burilayotgan yerda birdan qor qo'ynidan shoxlarini g'uj-g'uj qip-qizil mevalar qoplagan na'matak butasi lop etib uning yo'lini to'sib qo'ydi. Uning shoxlari to'rt tomonga tarvaqaylab o'sgan edi. „Buni qaranglar-a!“ deya qichqirib yubordi haydovchi va quloch-kashlab qo'lidagi qamchi bilan butaga urdi.

Na'matak butasi keskin chayqaldi, unga qo'shilib qip-qizil mevalari ham silkindi, xuddi butaning muzlagan shoxiga emas, balki tirik jonning yuziga urilgandek jonoqi mevalar qattiq ta'sirlanib, iztirob yoshlari yuv-gan odam ko'zları kabi chaqnadi. Chana shibbalangan yo'ldan bir maromda g'irchillab yo'lga tushdi, egar-jabduq chetlariga ilingan qo'ng'iroqchalar unga hamohang jiringlay boshladи, na'matak butasi son-sanoqsiz qirmizi ko'zlarini bizdan uzmay sekin-sekin ortda qoldi. Yo'l bilinar-bilinmas pastga enib borardi, otlar hars-hars qila boshlashdi; men o'girilib hamrohlarimga birma-bir qaradim: telpaklar, qulochchin va sharflar orasida bittagina ovching moviy ko'zlarini ko'rdim. Uning lablariga qistirilgan sigareti allaqachon o'chib bo'lgan edi. „Qonxo'r arvohning o'zi-ya!“ – dedi o'sha ovchi men-ga, „Kimni aptyapsan?“ – deb so'radi chananing old qismida o'tirgan kimsa xirillagan ovozda. „Anavi butani

aytyapman“, – deya javob qildi, lablarida o‘chib qolgan sigaretli ovchi va buta tomon boshi bilan ishora qildi. Uning yuzida hayronlik alomati aks etardi.

Men ortga o‘girilib qaradim – na’matak butasi ko‘rinmasdi. Yolg‘iz qor bosgan oppoq sayhonlik ko‘zni qamashtirgudek yarqirar, o‘rmon hosil qilgan qoramtil devorgina tebranar, tepada esa osmon bo‘zrayib borardi. Biz soylikka tushganimizda na’matak butasining qip-qizil ko‘zları umuman ko‘rinmay qoldi.

„Xuddi odam deysiz-a, odamga o‘xshaydi nimasidir!“ – degan fikr ko‘nglimdan o‘tdi. Men hamon otlariga orqa o‘girib o‘tirardim, qo‘ng‘iroqchalarining jarangi, yo‘talgan ovoz, kimningdir aljiragani, charm abzalning g‘irchillagani eshitilardi. Qor bosgan yo‘lka bo‘ylab ketayotgan chananing ortidan go‘yo xotiralar quvib kelar, keta-ketgan mahobatli o‘rmon bizlarni shovqinsiz kuza-tib qolar, yonimizda karpat ukrainlarining telpagini kiyib olgan sersoqol bir kishi orqada qolib ketmaslikka tirishib, chang‘ida yugurib kelardi, uning keng peshanasi bilan mutaassibona nigohini bir ko‘rgan odam anchagacha esidan chiqarmasdi. Uning old tomonida na’matak butasi sathida bamisoli ko‘zga ko‘rinmas qamchi izm-u ixtiyorida yuzlab chiroqlar kabi porlagan qizg‘ish ko‘zlarini zulm yetkazayotgan kimsadan uzmay oppoq qor sathida buralib, sudralib borardi. Tuyqus ta‘qib etuvchi taqqa to‘xtab qoldi, o‘sha odam bamisoli pinhoniy bir nimani izlagandek soqolini xayolchan tutamlagancha na’matak butasiga tikilib qoldi.

Buni qarangki, shapka kiyib olgan kishi Metodiy Andonov edi!

Uning tiriklar olamini tark etganiga besh yil bo‘ldi, biroq men sira unutolmayman, u hamisha tirik va jo‘sh-

qin qiyofada ko'z oldimga kelar, xuddi chaqirsam, al-batta, javob beradigandek tuyulardi. Lekin men bir marta bo'lsin chorlashga botinolmagandim, chunki istihola qilarmidim, aniq aytolmayman, negaki, mabodo uning ovozini eshitsam yoki men tomonga kelayotganini ko'rsam, yuragim ko'tarolmasligini bilaman. Hali u tirik paytida bizlar ittifoqo, yirik hayvonlarni ovlash uchun Ruy tog'lariga borgan edik. O'shanda ham hozirgidek qish fasli edi, biz shumshuk va huvullagan o'rmonda ov qilib yurardik, osmonda uvada bulutlar suzib borardi, o'rmon goh quyosh nuri tushib, charog'on bo'lib yorishar, goh yana qorong'ilik qoplar, pistirma qo'yilgan tomondan yakkam-dukkam o'q tovushi eshitilar va shu zahotiyoy aks-sado berib yangrardi. Ov nihoyasida Metodiy – biz pistirmada bir-birimizga yaqin yerda turardik – meni chaqirib qoldi. Qarasam, u na'matak butasi atrofida depsinib yuribdi, xuddi qafasga yirtqich hayvon kirib olgandek sinchkovlik bilan tikilardi. „Bu yoqqa, bu yoqqa kel!“ – dedi u past ovozda. Men undan nima gap, deya so'radim. „Manavini qara!“ – dedi u butani ko'rsatib. Uning aft-angori quvonchdan yorishib ketgan, ko'zlarida esa allaqanday bir shaydojilik charaqlardi. Men na'matak butasini diqqat bilan ko'zdan kechirdim.

Bu balandligi odam bo'yicha keladigan buta bo'lib, ildizi baquvvat va sertarmoq edi, yoqut donalaridek qip-qizil g'uj-g'uj mevalari novdalarini bezagan edi. „Endi boshqa tarafiga o'tib qara!“ – dedi Metodiy Andonov, ikkovimiz bir bo'lib narigi tarafiga o'tib qaradik, buta bu tomondan ham xuddi shunday ko'rinardi, „Qaysi tarafdan yaqinlashmagin, senga qarab turgandek“, – dedi Metodiy Andonov. Men sigaret tutatdim, u izlagan narsasini qidirib, buta atrofida aylana boshladi. U bir

necha marta qor yumaloqlab butaga otdi, buta seskanib ketdi, unga qo'shilib son-sanoqsiz qirmizi mevalari ham seskandi, buni bemalol tasavvur qilsa bo'ladi: na'matak butasi chindanam tirik jondek qaltiraydi, ko'zlar qorachiqlarning chaqchaygan qip-qizil ko'zlar kabi teshib yuborgudek tikiladi. Metodiy Andonov dam oqish-surrang qalpog'ini ushlab ko'rар, dam soqolini huzur qilayotgandek silab o'ynar edi. Uning ovozidagi tanta-nali ohanglar juda ta'sirchan edi. „Mana bu chinakam spektakl“, – derdi u baland ovozda. – Mo'jiza! Haqiqiy mo'jiza! Mana shu butani sahnaga chiqarib qo'yganini tasavvur qila olasanmi – shundoqqina o'rmondan kel-tirilgan, xuddi qoni qaynayotgandek hurpayib olgan, sovuqda muzlagan, ajoyib mevalari bilan... Tasavvur qil: sahna tevarak-atrofni qor qoplagandek oppoq, agar uni chiroqlar nuriga ko'mib yuborsak, bir go'zal, bokira xilqatga aylanadi... So'ng g'ira-shira qorong'ilikka chulg'aymiz, butaning bir qismini esa oppoq, harir tumanga o'rab qo'yamiz, so'ng mana shu tumanni mayin shamolda to'zg'itib yuboramiz... Aqlni shoshirib qo'yadigan beqiyos manzara hosil bo'ladi-yu...“

U to'lqinlanib ketganidan qo'lini ko'ksiga bir-ikki urdi va yana boyagidek sokin, oppoq qor sathida eminerkin qad rostlagan na'matak butasiga taqvodor insonlar-ga xos ilohiy bir mehr bilan tikilib qoldi. Shu daqiqalar-da u hayotga, tevaragidagi manzaraga chinakam jilvagar olamni bizdan yashirish uchun qo'yilgan ziynatli sarpar-da deb qarayotgan ijodkor tugul, ich-ichida oppoq pardar-tilida nima borligini tobora ko'proq bilgisi kelayotgan, shuning tagiga yetish uchun umrini baxshida etishga tayyor darveshga o'xshardi. Ehtimol, Metodiy Andonov o'zi izlagan narsani topgan yoki kashf etgandir, agar u

bor-yo‘g‘i oddiygina bir tirkishdan qarayotgan bo‘lsa pardan ortidagi o‘ta muhim va bilishga munosib bir nima-ni ko‘ra olgandek edi go‘yo. Yo‘qsa sog‘lom, aqli-hushi joyida insoning shoxlari muzlagan buta tegrasida bunchalik ishtiyoq va harislik bilan shuncha vaqt aylanib yurishini nima bilan izohlash mumkin?

Agar shu daqiqalarda u yugurib kelib butalar orasi-ga o‘zini otsa, ajablanmagan bo‘lardim; taajjublanadigan yeri shuki, ulardan qay biri ko‘proq tabiatga yaqin, uning uzviy qismi – insonmi, na’matak butasimi – aniq aytib berolmasdim. Ehtimol, ikkovi ham mushtarak – biri ikkinchisini to‘ldirishga qodir xilqatdir, ya’ni tabiatga bir xilda yaqindir... Ularning bir-biriga uzoq tikilib qolganini o‘lgunimcha esdan chiqarmasam kerak. Faqat bitta narsaga aqlim yetmaydi, tushunolmayman – nima sababdan kalishtelik sersoqol yigitga tabiat bunchalik qisqa umrni ravo ko‘rgan, hech qachon yanglishmay-digan zakovat sohibi – dono ijodkor, abadiy va mutlaq qudrat egasi shunga yo‘l qo‘ydi, o‘lay agar buni sira tushunolmayman! Nahotki, shuncha na’matak butalari kamlik qilgandek, bizning qalbimizdan o‘rin olgan ma-na bu na’matakni yulib olib, qor bosgan sayhonlikda u yoqdan bu yoqqa uloqtirsa!

...Yana orqa tomonimda qo‘ng‘iroqchalar sadosi, kim-ningdir yo‘talGANI va yo‘lovchilarning ovozlari keldi. Men ortimga, hozirgina chana bosib o‘tgan yo‘lga qara-dim – qimir etgan jon ko‘rinmaydi. To‘g‘risini aytganda, qor bosgan kimsasiz sahroda nimayam bo‘lishi mumkin. Mabodo, biron nima topgim kelayotgan bo‘lsa, faqat o‘zimdan izlashim kerak – buni yaxshi bilaman. Bi-roq hozir mavridi emasdi, qolaversa, daf‘atan qoramitir osmon qo‘ynida kulrang qushlar galasi paydo bo‘ldi,

qo‘ng‘ir izdihom hosil qilib uchayotgan bu qushlar tovush chiqarmay, jimgina kulrang o‘rmon uzra qanot qoqishardi. „Yovvoyi kaptarlar!“ – deya qichqirayozdi xirillagan ovozda boyta moviy ko‘zli yigitga „qonxo‘r arvochlarga o‘xshaydi-ya“, deb so‘z qotgan kishi. Chanadagilar ning hammasi g‘imirlab qoldi, ko‘kko‘z yigit miltig‘ini o‘qladi-da, aravakashdan otlarni to‘xtatib turishni iltimos qildi, jilovlar tarang tortildi, otlar temir suvliqlarini pishqirgancha chaynay boshlashdi. Kimdir kaptarlar juda balandda, otishdan foyda yo‘q, otgan o‘q baribir bekor ketadi, dedi. „Bekor ketmaydi, mana ko‘rasan“, – dedi boshqasi. Maslahat bergen yana gapini takrorladi: „Bekor ketadi o‘qi dedimmi, bekor ketadi“. Kaptarlar galasi hamon shoshilmay doira yasab bir tekis uchmoqda edi. Ko‘kko‘z hovliqmasdan nishonga ola boshladi. Qushlar bizning boshimiz uzra uchib o‘tayotganda ovchi tepkini bosdi. Kaptarlar galasi keskin yuqoriga ko‘tarildi, faqat bittasi ularga qo‘shilmay orqada qoldi, u bir siltandi-yu, xuddi yerda nima gumbirlaganini aniqlamoqchidek kichkina doira yasab aylanishga tushdi.

Biroq u na bu gumburlashning nimaligi va buning sababini, na nima yuz bergenini bilolmadi, shuning uchun yana bir karra aylandi, yovvoyi kaptar ham doira yasab, ham yuqoriga ko‘tarilib uchardi, zero, u zamin uzra aylana turib to‘daga yaqinlashib borish uchrün tinmay intilardi. Afsuski, ko‘z ochib-yumguncha vaqt o‘tmay uning bir qanoti shalvirab qoldi. Endi uning doira yasab uchishga quvvati yetmasdi. U tobora pastlay boshladi. Lekin shunda ham jon-jahdi bilan bizning boshimiz te-pasidan nari ketishga urinardi, oxiri sog‘ qanoti ham toliqdi, o‘ziga bo‘ysunmay qo‘ydi va bamisolai kulrang lattadek shuvullab pastga sho‘ng‘idi.

Yovvoyi kaptar qor bosgan sayhonlikka quladi va boy a na'matak butasi qanday g'oyib bo'lga bo'lsa, shunday tez va kutilmagan tarzda ko'zdan yo'qoldi.

Yo'lovchilarning ichida eng kichigi men edim, shuning uchun chanadan sakrab tushdim-da, yaralangan kaptarni keltirgani yugurdim. Tizzalarimga qadar qorga botib, yovvoyi kaptarni qidira boshladim. Ajabo, kaptar yerda ham, ko'kda ham yo'q edi. Tevarak-atrofda oppoq sayhonlik yastanib yotar, na bironta pat, na bir uyum xas-xashak ko'zga chalinardi. Lekin uzoq qidirishimga to'g'ri kelmadni. Yo'ldan chetroqda qip-qizil dog'ni ko'rib, o'sha tomonga yurdim, yaqinroq borib qaramoqchi edim, uning yonidagi ikkinchi dog'ga ko'zim tushdi, nariroqda uchinchi qon tomchisi yarqirab turardi. Men mana shu qon tomchilar tepasiga bordim. Tomchilar burama chiziq shaklida doira hosil qilgan, shu doiraning chetida xuddi shunga o'xshash, faqat kichikroq ikkinchi bir doira ulangan, o'z navbatida, xuddi shu taxlit, lekin yana ham kichikroq uchinchi aylana davom etardi. ZOTAN, bular ham to'kilgan qon tomchilaridan vujudga kelgan edi... Men dam osmonga, dam qor sathidagi qon tomchilariga qaradim. Bu yovvoyi kaptarning qoni edi. U chir aylanib, osmon qo'ynida doira yasab, yoy shaklida charx urayotgan chog'da yirik-yirik qon tomchilar oppoq qorga tomgan edi. Men u yog'iga bosib o'tib ketolmadim, allaqanday g'alati bir tuyg'u hatto bir doirani ham bosib o'tishimga yo'l qo'y mayotgandi. U yoqda oppoq sathi buzilmagan qorda qon tomchilaridan hosil bo'lga yana boshqa doiralar davom etardi.

Chanadagilar yovvoyi kaptarning qayerga qulagani ni ko'rsatish uchun biri olib, biri qo'yib qichqirishardi. Men bunga javoban u yoqqa o'tishning iloji yo'q,

deya qichqirardim. Yo‘lovchilarning yarmidan ko‘pi chanadan tushishdi, hammalari ketma-ket sigaret tutatgancha men tomonga kela boshlashdi, ular yo‘limni nima to‘sib qo‘yganini bilmoqchi edilar, shekilli. Meni hayratga solgan qor sathidagi qip-qizil marvarid donalaridek yoy shaklida sochilib yotgan qon tomchilarini ko‘rgach, ular ham lol-u hayron qolishdi. Qor sathi oppoq va shunchalar tekis ediki, biron yerida taxi buzilmagan, dog‘ degan narsani topolmaysan – faqat hozirgina osmonda charx urgan yovvoyi kaptar qon tomchilari bilan chizgan yoy shaklidagi nafis doiralar jilva qilardi...

Yovvoyi kaptarning parvozi shiddatli va zebo. Chanadan uzilgan o‘q uning parvoziga so‘nggi nuqtani qo‘ygach, qushning doira yasab charx urishi sustlashib, sekin aylanayotganda bu noaniq ko‘rinishli doira va yoy shaklini chizish uchun tomirlarida qolgan qonni sekin-sekin silkib tushirgan, bu bilan o‘zining so‘nggi nomasini, hayotidagi oxirgi itobini qor sathiga chizmoqchi bo‘lganmi, deysiz. Uning bu itobi, ehtimol, jabr-zulmga qarshi bir qarg‘ishdir, ehtimol, boshqa qushlarga qoldirgan vasiyatnomasidir, balki, nogahon poymol qilingan hayotning so‘zsiz hasratidir. Nima bo‘lgan taqdirda ham bu chegarani hech kim bosib o‘tolmadi, har qalay qor sathiga chizilgan yoy shaklidagi alvon rangli ushbu ziynatli poyandozni ovchilar oyoqosti qilolmadí. Hammamiz churq etmay turardik, oppoq choyshab yopgandek pokiza sahnda bu ahvolda turishdan xijolat chekkan erkaklar birin-ketin chanaga qaytib ketishdi. Ajabo, ularning birontasi aravaga borib o‘tirguncha lom-mim demadi, kumush qo‘ng‘iroqchalar ohista jiringladi, yo‘lning narigi tarafida o‘rmon hamon shumshayib turar, ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan na’matak butasi yana qor

bosgan sayhonlik mehvarida ajoyib mevalari bir tekis yoyib qo'yilgan qirmizi sadafdek ko'zlarni yashnatar-di. Go'zal mevalari mitti chiroqlardek yorqin porlag-an na'matak butasi boya chanadan ko'rinnmayotgandi, chunki ular soylikka tushishgan edi. Lekin hozir to'xta-gan yerlaridan oppoq hovur ichida yarqirab aniq-tiniq ko'rinaldi. U xuddi bizlarga yuzlarcha yoqut ko'zları bilan tikilayotgandek bo'lardi. Biz shoxlari alvonrang taratayotgan na'matak butasi bilan tepadan qulayotgan yovvoyi kaptar qorga chizgan qirmizi rangdagi naqshlar orasidan o'tib borib chanaga chiqdiq.

„Qani shovvozlar! Chu!“ – deya qichqirdi baland ovozda aravakash hamma chanaga joylashib o'tirgach, arava izidan qo'zg'algan chana g'irchilladi, qo'ng'iroq-chalar bir tekisda jiringladi, biz yo'lga tushdik. Yo'lda ketayotib mening qalbimda qo'ng'iroqchalar sadosidan bo'lak samovotning qirmizi ko'zyoshlariga monand, hurkitilgan na'matak butasining mahzun shivirlashi yanglig' yana allanimalar nafis ohangda asta taralar, aks sado berar, vujudim horg'in, lekin barqaror va hayot-baxsh tuyg'ulardan yayrab borar va ajabo, nazarimda, qalbim noaniq, ammo nozik doiralar hamda yoy shakli-ni chizish istagida hapriqardi.

## NA'MATAK BUTASI

Uning yoshi nechadaligini taxminan ham aytolmay-man, keyinchalik bu yorug' olamda qanchadan beri ya-shayotgani, yuz yillik eman va chinorlarga tengdoshmi yoki ulardan kattaroqmi, bizning davrimizga dinozavr-lar, mamontlar va odam bolasi suyaklarini yer ostidan yo bo'lmasa ming yillik g'orlar-u, ko'mir qatlamlari orasidan topayotgan har turli vahshiy mavjud bo'lgan

zamonlardan kelib qolganmi, deya so‘rab-surishtirganimda bironta kishi aytib berolmadi; na’matak butasining doimiy ravishda payhon bo‘lishi qanchalik muqarrar bo‘lsa, yana shunchalar tezlik bilan jonlanib, o‘sib-unishi muqarrar va uzlusizdir, chunki qurigan va nobud bo‘lgan shoxlari o‘rniga har yili yangi, surx novdalar paydo bo‘lib, darhol ularning o‘rnini egallahshadi. Qurigan shoxlari yangi novdalarning kuch-quvvatiga ishongani holda o‘z o‘rinlarini bemalol ularga bo‘shatib beradilar. Na’matakning har bitta shoxi doimiy ravishda quriydi, bu muqarrardir, biroq shundan keyin ham, o‘sha „o‘lgan“ shox yana uzoq payt shu qal’aning bir qismi bo‘lib qolaveradi. Men qal’a degan so‘zni ishlatdim, zero, ishonch bilan aytolamanki, na’matak butasi o‘zini doimiy ravishda mustahkam qal’adek saqlashga qodir. U har yili ekilgan yo dunyoga kelgan kundan e’tiboran shunday yashaydi.

U har yili pishgan urug‘ini atrofga sochadi va uni avaylab asraydiki, boshqa bironta buta yo daraxt bunday qilolmaydi...

Odamzod na’matakka bir yilda ikki marta e’tibori qaratadi – birinchi safar bahorda – barq urib gullagan chog‘da, ikkinchi safar – kuzda, mevalari g‘arq pishgan paytda. Na’matak gulining hidi judayam nozik, men hatto nozik va tevarak-atrofda barq tūrib gullagan boshqa daraxtlarning guliga nisbatan nazokatli va sipo degan bo‘lardim. Bir nechta gulini uzib ko‘ring, bilasiz – so‘qmoq bo‘ylab uyingizga ketayotganingizda gulbarglari yo‘ldayoq duv to‘kiladi. Basharti gullayotgan chog‘ida butaga diqqat bilan uzoq tikilib qolsangiz, o‘tkir nigohingiz ta’sirida gullar so‘lib to‘kila boshlaganini sezasiz. Men mahobat qilayotganim yo‘q,

o‘z ko‘zim bilan ko‘rganlarimni aytib beryapman, xolos, biroq bahor oylarida na’matak qandaydir o‘zi-ga xos tarzda tortinchoq bo‘ladi, degan fikrimdan sira qaytmayman. Nozik, xushbo‘y hididan tashqari butadan ko‘klam tarovati va sokin g‘o‘ng‘illagan tovushlar taraladi. Asalarilar hamda har turli hasharotlarning g‘o‘ng‘illashi bu – shovqinsiz changlanish yuz berayotganidan darak.

Na’matak gulini to‘kkandan so‘ng kuzga qadar unga birov qayrilib boqmaydi! Xuddi ana shu davrda na’matak butasi o‘z tabiatiga ko‘ra jimgina, shovqin ko‘tarmay, fidoyilarcha mevalarini yetiltira boshlaydi... Kuzgacha bir o‘zi tanho yashaydi. Atrofdagi dam olish uylari va sanatoriylarda muolaja uchun kelgan kishilar na’matak yaqinidagi tepalik yonbag‘ridan har kuni o‘tib turishadi-yu, lekin bizning butamizga birontasi e’tibor bermaydi, odamlarning ko‘proq tinimsiz ravishda lik-illab turuvchi ko‘rsichqonlarning uyalari qiziqtiradi; ular yon-verida uyum-uyum soz tuproq to‘plab qo‘yilgan bu jonivorlarning yer ostidagi uyalari tepasiga haqiqiy ko‘rsichqonni bir marta ko‘rish uchun asta pusib keli-shadi; soddalik ham evi bilan, bu jonivorlar o‘g‘rincha kelayotganlarning qadam tovushini allaqachon eshitgan bo‘lishadi, chunki yer ostidagi zulmat qoplagan ilonizi yo‘llarda yuqorida ehtiyotkorona tashlangan qadam tovushlari ularga vahimali tarzda gursullab eshitiladi. Yer ostida yashovchi bu jonivorlar mana shunday o‘ta ziyrak va sezgir! Bir necha yillar muqaddam mening bir og‘aynim Fransiyadan ko‘rsichqonlarni tutish uchun maxsus qopqon olib kelgan va uni dala hovlisiga o‘rnat-gandi, buning sababi ular ko‘payib, hamma yerni qazib tashlagach, sho‘rlik og‘aynimning dala hovlisi o‘rkach-

o'rkach tepachalardan iborat hovliga aylanib qolgan edi. Qayerga qaramang, ko'rsichqonlar uyub qo'ygan tepachalar – qisqasi, do'stim Fransiyadan keltirgan qopqon bilan bu „zararkunanda“larning urug‘ini quritaman, deb o'ylagan edi. Oson ekanmi!..

Mayli, mavzudan chetlab ketdik, yana o'zimizning na'matak butasiga qaytaylik. Tizzasiga qadar qo'y juniga o'rالgan buta Yaga xotin tog‘ining janubiy yonbag‘rida emin-erkin o'sardi. Yaqin o'rtadagi o'tloqqa tomon qo'ylar podasi o'tib borardi, qo'y-qo'zilar yo'l-yo'lakay tevarak-atrofda o'sgan o't-o'lan borki, hammasini yeb bitirishar edi. Butaning o'rtasida yam-yashil maysalar ko'zga tashlanardi, qo'y-qo'zilar tumshug‘ini tiqib o'sha giyohni yenishga harakat qilishganda junlari na'matak butasining qattiq, tikanli shoxlariga ilinib, yulinib chiqardi, shuning uchun tizza bo'yi jun qoplagandek tuyulardi. Yonbag‘irning narigi yog‘ida boshqa butasimon mevalar o'sardi, aytish mumkinki, tog‘ so'qmoqlari yoqasida go'yo yuragi xasta kishilar uchun maxsus ekilgandek, keta-ketguncha na'matakzorga ko'zingiz tushadi. Na'matak tergani chiqqanlarning bu yerga ham oralaganliklarini uzoqdan sezsa bo'ladi. Chunki faqat quyi qismidagi mevalar terilgan, qo'l yetmaydigan yuqori qismida esa yirik-yirik, qip-qizil mevalari marjondek ko'zga tashlanardi. Bu yil kuz barakali kelgan, barcha mevali daraxtlar hosili mo'l-ko'l edi. Qari nok daraxtlarida ham mevalar larzon. Dam oluvchilar hushlariga kelgan paytda daraxtni silkitishar, shunda nok mevalari do'pir-do'pir yerga to'kilgach, odamlar terib olishar, keyin bitta tishlab, tashlab yuborishardi – noklar hali pishmagan, g'o'r, qattiq bo'lgani uchun tishlari o'tmasdi. Aloha navbatdag'i daraxtga o'tib qoqishar, tushgan mevalarni yana yeb

ko‘rib, ularni ham duch kelgan yerga otishardi. Yo‘Ining ikkala chetida tishlab tashlangan noklar sochilib yotardi, bu hol har kuni takrorlanar va ajabo, bu adirda sanqib yurgan yuzlab odamlar nima sababdan tatib ko‘rib ham mevalarning xom, qattiq, hali mutlaqo yeb bo‘lmasligini bilmasliklariga lol qolish mumkin. Tepalikning qir uchida, asosan, O‘rtayer dengizi sohillarida o‘sadigan kashtan daraxtlari qad rostlagandi, uning tikanli mevalari katta-katta edi. Tabiatan qaysar inson shu daraxtni ham qo‘ymaydi, yam-yashil, mayda tipratikanchalarga o‘xshagan mevasini qoqib tushiradi. Yonbag‘irda yong‘oq daraxtlari mo‘l, mevalarning po‘chog‘i paq-paq yorila boshlagach, har zamon-har zamonda yashil-kulrang shox butoqlariga chuvullab uchib kelgan toshlar tegib, do‘pillab yong‘oqlar to‘kiladi. Bu atrofda, dam olishga chiqqanlar tosh otmaydigan daraxt yoki butalar yo‘q hisobi... Ular qo‘llarida „Xitachi“ firmasining magnitonini ko‘tarib olishgan bo‘lib, butun tog‘ga eshitilarli qilib vang‘illatib borishar, ko‘zлari olma-kesak terib, atrofga alanglashar, biron ta chiroylı qiz-juvonni uchratib qolish umidida kun-uzzukun aylanib yurishdan ham charchashmasdi. Ayollarga kelsak, ularning sanog‘iga yetib bo‘lmasdi, shifobaxsh suv muolajasi, asosan, mana shunday qiz-juvonlar uchun tashkil qilingandek. Ular to‘da-to‘da bo‘lib tog‘ yonbag‘rida sayr qilib yurishar, ko‘pchiligi endi-endи rasm bo‘lgan bashang libosda, sochlari kalta qirqilgan, ozchilik qismi – barmoq bilan sanarli ayollar ro‘mol o‘ragan yoki sochlari odmi turmakkangan, lekin hammalari „Bo‘lishi mumkin“ atirini sepib olishgandi. O‘sha paytda kurortlar va dam olish maskalarida shu atirni sepib yurish urf bo‘lgandi, menimcha, ayollar uning xushbo‘y va gurkirab ketuvchi hidi uchun

qadrlashardi. Bu hiddan erkaklar boshvog‘ini yo‘qotib qo‘yar, ular shunday hid taratayotgan ayollarning asiriga aylanishar, „malohat sohibalari“ esa chamasi, aynan shunga intilishardi.

Men hikoya qilayotgan na’matak butasi mana shunday muhitda o‘sardi. Qo‘sishimcha qilib yana shuni aytishim mumkinki, uning tevaragida shumtol gullagan hamda bir-ikki qadam oralatib u yer-bu yerda qora chigirtkalar uyasi ko‘zga tashlanardi. Qora chigirtkalar oftobda isinib olish uchungina ba’zi-ba’zida boshlarini chiqarar, odamzodni sezishlari bilanoq uyalariga kirib ketishardi. Magnitofon ovozidan ular cho‘chimasdilar, aksincha, uyalari oldida qator tizilishib olib, musiqa tinglashardi. Ular balki, magnitofonni ulkan qora chigirtka sifatida qabul qilishar. Yolg‘iz na’matak Yaga xotini-yu, unga qo‘sib dam oluvchilar, osennitsa gullari, odamlar izdihomni hamda pishmagan nok va kashtanlardan yuz o‘girgandek bir o‘zi, tanho yashardi. U yorqin mevalariga sharbat va imkon qadar rang ato etgali kuz quyoshining latif nurlarini emib o‘sardi. Na’matak ishqibozlari turgan gapki, bizning butaga ham e’tibor qaratishdi. Bi-roq qo‘llari yetgan ostki qismidagi mevalarnigina terib olishdi, xolos. Tajribali, bunaqa ishlarni qoyil qiladigan hamda yovvoyi mevalarni terishda asqatadi, deb qo‘lbo-la yog‘och ilgaklar va turli moslamalar yasab olgan chinakam teruvchilar hali kelishmagandi. Nimasini aytasiz, meva terishni ana o‘shalarga chiqargan! Yomg‘irdan keyin ular qo‘ziqorinlarni chunonam terishardiki, azbaroyi ildizi bilan qo‘porib olishardi, hattoki shilliqqurtlarni ham qo‘yishmasdi, yomg‘ir shivalab o’tsa bas, boyaqish bu jonivorlar nam yaproqlarga sudralib chiqishar, o‘sha, tabiatni qadrlaydigan, ona zaminda nimaiki unsa, o’ssa,

ularning e'tiboridan chetda qolmasdi – hammasini bir chekkasidan titig'ini chiqarishardi, hatto toshbaqalarni ham tinch qo'yishmasdi, endi toshbaqalar o'zlariga juft izlab qolishsa, ularni topish uchun o'n yillar vaqt o'tishi kerak edi, negaki to bir toshbaqa narigi tepalikda ya-shaydigan boshqa hamjinsiga yetishishining o'zi emasdi. Balki, ular nasl qoldirish tugul hech qachon uchrasholmay hasratda o'tishardi, chunki ellik yildan beri yashar ekanman, bu jonivorlarning nasl qoldirish istagi xuruj qilganda bir tepalikni tark etib, ikkinchi tepalikka o'tganini bir marta ham ko'rmanganman. O'sha tabiat oshuftalari temir xaskashlar ko'tarib olib tog'-u toshda izg'ib yurar va mevalaridan murabbo bilan musallas tayyorlash uchun chernikazorlarni payhon qilardilar; mevalariga qo'shib xaskashlar bilan barglarni ham sidirib olishardi, shunday qilsa, yig'im-terim haddan ziyod tezlashardi, undan tashqari, chernika butalari orasida yashirinib yotgan ilon qo'l uzatganda chaqib oladi deb qo'rmasa ham bo'ladi. Tabiat har turli tuzoqlar tayyorlab qo'yan, lekin inson bolasi ko'raverib ko'zları pishib ketganidan, tabiatga pand beradigan darajaga yetgandi, binobarin, himoyasi ostidagi barcha o'simlik va hayvonot olamining vakillarini tabiat bag'ridan ming qilsin, baribir yulib olardi.

Men na'matak butasi haqida mulohaza yuritib, yu-qori qismidagi biron ta terimchining qo'li yetmagan qondek qizil mevalariga tikilib qarar ekanman „Xitachi“ magnitonini ko'targanlarga qo'shilib olgan o'n nafar yog'och ilgakli ustasi farang terimchilarga ko'zim tushdi. Ulardan ba'zilari savat ko'tarib, boshqalari qanor qoplarni yelkalariga tashlab olishgan edi. Bular o'z holicha o'sgan butalardagi mevalarni bitta qoldirmay terib olishga qodir malakali terimchilar edi. Na'matak butasi-

ning yuqori qismidagi sharbat to‘la g‘uj-g‘uj mevalarini uzoqdan payqagan bu malakali terimchilar xuddi uzoq safarga chiqib, sahroda yam-yashil vohani ko‘rib qolgan tuyalarni eslatardi. Garchi tuyalarning nigohida hech qanday o‘zgarish sezilmasa-da, ularning qadam tashlashlari tezlashganidan shunday xulosaga kelish mumkin edi. Meva teruvchilar xuddi shu ko‘yga tushgan, ularning ichida, ayniqsa, past bo‘yli, eski paxtalik kiyib olgan kishi g‘ayrati va shijoati bilan ajralib turardi. Bilmadim, paxtaligining do‘lanami, na’matakmi yoki maymunjonmi, tikan yoki qattiq shoxlar ilmagan biron sog‘ yeri yo‘q edi. Uning hurpaygan sochlari qay bir jihatni bilan egnidagi paxtalik kamzuliga o‘xshardi. U bir qo‘lida ilgak ko‘tarib olgan, dam shu ilgak bilan sheriklariga bir nimani ko‘rsatar, dam ilgarilab ketar, birozdan so‘ng ortiga qaytib, to‘daga qo‘shilib olardi. Qisqasi, juda pitrak, joyida bir dam turolmasdi. Nazarimda, u qaysi tomonidan terish qulayroq ekanini mo‘ljallab tushuntirardi. Xuddi shu paytda hammalari butaning oldiga yaqinlashib, uni ko‘zdan kechirayogan chog‘da magnitofon ko‘targanlar kelib ularga qo‘shilishdi. Ulardan ba’zilari kassetalarini o‘zgartirgan, boshqalari magnitofon ovozini balandlagan – butun tevarak-atrofni sershovqin musiqa sadolari tutib, hov pastda oqarib ko‘rinayotgan turar joy bino-sigacha yetib bordi. Bular o‘scha, biron ta daraxt, butani nazaridan qochirmay, payhon qilib tashlaydigan tajribali meva teruvchilar guruhi edi. ularning hamlasiga dosh bergen biron ta „qal‘a“ qolmagandi, butani bir boshdan ko‘zdan kechirib chiqqach, sovuqqonlik bilan yuqori kismiga „hujum“ boshlashdi. Tepalikdan tushgan yo‘l shu yerdan pastga, turar joy tarafga enib borardi. Terimchilarning taxminicha, butaning shoxlarini ilgaklar yor-

damida tortib, mevalarini bitta qo'y may terib olish oson edi. Ularning qiy-chuvidan ishtahalari karnay ekanligi sezilardi. Sal naridagi so'qmoqdan g'aroyib atir hidini gurkiranib, bir to'da ayollar o'tib qolishdi, terimchilar ko'zlar yonib ularga tikilishdi. Bir-ikkitalari magniton sadosini bosib ketgudek baland tovushda qiyqirib, o'zlariga bir nimalar deya gap otishdi, biroq ularning iliqishlari hech qanday naf bermadi, ayollar bu tomonga qayrilib ham qaramay o'tib ketishdi. Butaning tepasidan boshlangan harakat ham foyda bermadi, aloha ular ikki guruhga ajrashib, bittasi nisbatan quyiroqdagi shoxlarga yopishdi, ikkinchilari narigi tarafdan boshlashdi, oxiri yog'och ilgaklar tashlab to'rt tomondan tort-tort boshlandi.

Na'matak butasi bu terimchilarning bu taxlit-u tajovuzkorona hamlasiga dosh berolmay qaltirab ketdi. To'g'risini aytganda, ularning maqsadi nima edi-yu, butani nega qiyashmoqda? Men tepalikdan turib itoat etishni istamayotgan bahaybat butani tilka-pora qilayotgan ishbilarmonlarning harakatlarini tomosha qilardim. Ular butaning toshdek qattiq shoxlari va ayrim novdalarini o'zagidan ayirib o'zlariga qarab tortishar, shu yo'l bilan bu mustahkam „qal'a“ni dabdala qilmoqchi bo'lishardi. Biroq tikonli „qal'a“ titrab-qaqshab egilgani bilan, siltab tortishganida yonboshiga yiqilgudek bo'lgani bilan bari-bir bo'ysunmas – beziyon, beshikast qarshilik qilaverardi. Barcha shoxlarining birdamligida mujassam bo'lgan qudrat tufayli terimchilar hech narsa qilisholmasdi. Ko'p o'tmay xirillagan, ammo amrona ohangda kimningdir xitobi yangradi: „Qani, tortdik baravariga, bir... ikki... uch!“

Chor atrofda qulf urib o'sayotgan nisbatan kichikroq butalar bamisol nafaslarini ichlariga yutib, qo'rqqan-

laridan javdirab turishar, yolg‘iz bizning toshdek qattiq qo‘ygan shoxlariga daqqiyunus davrida jun yopinchiq laxtaklari ilinib qolgan bahaybat butamiz yovvoyi mevalarni teruvchilarning tazyiq va qiyashlari ostida vajohat bilan tebranar, qarsillab chayqalar edi. Odamlarning tajovuzkorona qahr-g‘azabi kuchaygandan kuchayib borardi, ular navbat bilan ilgaklarni otishar, ilingan shoxni o‘zlariga siltab tortishar, ilgaklarni chiqarib yana otishar, shu tariqa sekin-asta itoat etishni istamayotgan butani zabit etishmoqda edi. Ular menga ilgaklar bilan okeanda yolg‘iz bir o‘zi osoyishta suzib ketayotgan tinchliksevar kemani iskanjasiga olayotgan dengiz qaroqchilarini eslatardi. Ayniqsa, yashil paxtalik kiygan anavi past bo‘yli kimsa jazavaga tushgan edi. U tikka bostirib borar, yog‘och ilgakni boshi uzra chir aylantirib nayza uloqtirgandek mo‘ljallab otar, biron ta shoxga ilingudek bo‘lsa, o‘sha zamoni butun og‘irligini tashlab pastga torta boshlardi. Nihoyat, terimchilar bir-biriga jipslashib ketgan shoxlarni ayirishga erishishdi, buta hamon titrab-qaqshab sekin-sekin bag‘rini ocha boshladi, aniqrog‘i, bir bahyalik tuynuk ochildi, uning o‘rtasida, yashil paxtalik kiygan terimchi ilgagini o‘sha ochilgan yerdan yanayam ichkariroq suqar ekan, daf’atan kimdir: „Ilon! Ilon!“ deya qichqirib yubordi. Bir necha „xitachi“lar bu ovozni eshitib, yugurgancha buta yoniga kelib, o‘sha tuynukka tikilib qarashdi, buta orasida hech qanaqa ilon yo‘q, qurigan ilon po‘sti yotardi. Qachonlardir shu yerga kelib yashagan ilon na’matak butasining orasiga po‘stlog‘ini tashlab ketgan bo‘lsa ajab emas.

„Ilon! Ilon!“ degan xitoblar hamda ilon po‘sti jaza va ichidagi terimchilarni chekinishga majbur etdi. Buta qasir-qusur qilib uzun kavak uzra shoxlarini jipslab oldi.

Uning bag'rida yana nimalar yashiringan – hech kim ko'rmay qoldi. Shoxlar yashirgan kavakdan aql bovar qilmaydigan vahimali hamda ilohiy kechinmalar taralardi go'yo, bemalol aytish mumkin, bundan terimchilar ning yuragini vahm bosdi. Birinchi bo'lib yashil paxtalik kiygan kimsa jazava ichida butaga tashlandi, boshqalar ham unga ergashdi, ular go'yo shu tariqa yuraklarida uyg'ongan qo'rquvni yengmoqchi edilar. Hammalari quyi tomonga o'tib, shu yoqdan baravariga tortsak, butani yiqitamiz va ana shunda mevalarni bir chekkadan terib olamiz, deb o'ylagan bo'lishsa kerak.

Darhaqiqat, ular deyarli niyatlariga yetishdi ham, na'matak butasi yerga tekkudek egildi, qattiq shoxlari qarsilladi. Terimchilarning bir qismi yanayam yuqoriroqdan ilib tortish uchun ilgaklarini bo'shatishdi, ammo buta nogohon bir silkinib qaddini yana rostlab oldi. Uning tik ko'tarilgan shoxlariga qo'shilib, paxtalik kimsa ham havoga uchdi, aloha chalqancha yerga qulayotganda ham u ilgagini qo'lidan qo'yib yubormadi. Men uning qichqirgancha havoda o'mbaloq oshib uchganini ko'rdim va qo'rquv to'la ovozini ham eshitdim. Bechora ilgak-pilgagi bilan shalop etib buta shoxlari orasiga tushdi-yu g'oyib bo'ldi. Na'matak butasi daf'atan shu tobda tog' yonbag'rida yashaydigan vahshiy hayvonga o'xshab ko'rindi ko'zlarimga. U ko'z ochib-yumguncha yashil paxtalik terimchini tikonli changali bilan shappa ushladi-da, ilon po'sti yotgan tikanli qa'riga olib kirib ketdi. Buta orasidan dod-voy ovozi eshitildi, terimchilar dovdiragancha sapchib o'zlarini orqaga olishdi. Charm kurtkalilar engashib qarashdi-da, „xitachi“larining tovushini o'chirishdi. Nok daraxtining mevalarini qoqayotgan xotin-xalaj saylghoh yo'lka orqali orqa-oldiga qaramay urra ochdi.

Na'matak uzra har bittasining tumshug‘ida bir donadan yong‘oq ko‘targan xo‘jasavdogar uchib o‘tdi. Ular yong‘oqlarni qayerga olib ketishyapti – bilmayman, xo‘jasavdogarlar yong‘oqni yutib yubora oladimi yoki tumshug‘i bilan urib chaqishga qodirmi, yoinki yusakklikdan toshlarga tashlab, shu tariqa yong‘oq chaqib mag‘zini yeishadimi – bir nima deyolmayman. Buta o‘zagida yotgan tutqun yordam so‘rab zorlana boshladı, u, aftidan, o‘zini o‘rgimchak to‘rlariga tushgan hasharotdek sezib, qo‘rqib ketgandi. Lekin o‘rgimchak to‘riga ilingan hasharotga o‘xshab tipirchilagani sari butaning tikanli shoxlariga shuncha o‘ralashib borardi. Buta a’zoyi badaniga o‘zining o‘tkir tikanlarini ayovsiz ravishda botirib, uni harakat qilish imkonidan mahrum etdi.

Quyosh zavolga yuz tutdi, uning qiyalama tushayotgan nurlari na’mataknинг qirmizi mevalarini yoritar, mevalar buta shoxlariga tomgan qon tomchilariga o‘xshab borar edi. Tog‘ning yonbag‘rida bamisli vahima kezib yurgandek, terimchilar bandi etilgan sheriklariga yordam berish niyatida besamar urinishar, biroq ularning betayin harakatlari do‘sining ahvolini battar og‘irlashtirardi, zotan ko‘p o‘tmay u buta ichidan turib shoxlarni silkitmaslikni o‘tinib so‘rashga tushdi, aks holda nashtar badaniga yana ham chuqurroq botayotganligini aytdi. „Voy, chidayolmayman... voy-y!“ deya ingrardi bechora.

Shu chog‘gacha biron marta bo‘lsin Yaga xotin tog‘ining bunchalar tez huvullab qolganini ko‘rmagan edim. Hordiq chiqaruvchilar shosha-pisha dam olish ulyari va sanatoriylariga tushib ketishdi, tog‘ o‘rkachining narigi tomonida bir cho‘pon podaga baqirib o‘tdi. Uning o‘zi ko‘rinmasdi, qo‘ylarning ma‘rashi va qo‘ng‘iroq-chalarning jarangi eshitilardi, xolos. „Xitachi“ egalari-

ning magnitofonlari ovozi ham o'chdi, ular qo'rqa-pisa moviy tuman qoplagan pastlikka tushib ketishdi, ehtimol, bu tuman emas, tutundir, yana kim biladi. Nima bo'lgan taqdirda ham shu moviy tuman yoki tutun Yaga xotinning yalang'och tosh yonbag'irlari yoqalab tutqunning a'zoyi badaniga butun changalini botirgan na'matak butasi tomon sekin-sekin suzib borardi. Men o'ngirdan turib terimchilarni kuzatardim. Ularning ba'zilari savatlari bilan qoplarini hozirlashar, ba'zilari sigaret tutatishar, tutun ularning boshi uzra osilib turardi. Ular bir-biriga past ovozda gap qotar, ora-chora buta ichidagi tutqunga ham bir nimalar deb qo'yishardi. Oxiri ular savatlari bilan qoplarini ko'tarib, yog'och ilgaklarni yelkaga tashlab har tarafga tarqab ketishdi. Aftidan, bu kishilar tutqunda yotgan kimsa bilan bir guruhga mansub emasdi, kunduzi na'matakzorda uchrashib, o'sha yerda tanishib qolganga o'xshashardi. Shu sababli xavf-xatar tug'ilди deguncha, uni tashlab, to'rt tomonga tarqab ketishmoqda edi. Ular tabiatni doim xo'r lab kelishgan, mana endi tabiat ham ularni tahqirlash yo'lini topib, bittasini o'z domiga tortgan edi.

Men buta yoniga boshqa yaqinlashmadim...

Ertasiga jala quydi, qora bulutlar tarqab ketgach, Yaga xotinni oqish tuman qopladi, mana shu tuman bag'rida yovvoyi, shoxlari tikkaygan na'matak butasi bo'y cho'zib turardi. Odamlar inson bolasining jonini olayotgan butadan ko'z uzishmasdi. Yovvoyi tarmevalar teruvchining hayot shami so'nib bormoqda edi. U deyarli qimir etmas, faqat boshini burib qaramoqchi bo'lar, aftidan ana hozir yordamga yetib kelishadi, deya umid bilan kutardi, biroq butaning temirdek tikanli shoxlari boshidan mahkam changallab olgan, qay-

rilib qarashga ham yo'l qo'ymas edi. Quyosh nurlari vaqtı-vaqtı bilan tuman bag'rini tilka-pora qilib, Yaga xotin bilan na'matak butasini boshdan oyoq yoritar, uning nurlari ostida katta-katta qirmizi mevalar yirik qon tomchilariga o'xshab ko'rinardi. Men nafasimni ichimga yutib, hang-mang bo'lib turardim. Ular churq etishmas – toliqqan, muztar kishilar ko'z oldilarida ro'y berayotgan voqeaga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmasdilar. Birozdan so'ng „Xitachi“ ko'targanlar paydo bo'lishdi, ularning qo'llaridagi magnitofondan sado chiqmasdi. Hammamizning boshimiz uzra, shifobaxsh suvlar qaynab chiqayotgan chashmalar va dam olish uylari tepasida baayni mash'um sanam kabi yovvoyi na'matak butasi shoxlarini kerib turardi. Bu yorug' olam ilk bor na'matak butasining odam bolasi hayotiga zomin bo'layotganini ko'rib turardi. Atlantida bilan dinozavr-lar halokatga uchragan davrdagi qo'rqinchli maxluq yana paydo bo'lgan-u, ikki oyoqli mavjudotlardan birini tutib olgan va asta-sekin shafqatsizlarcha tomirlarida oqayotgan tiriklik sharbatini so'rib borayotgandi go'yo.

Anavi baxtiqaro kimsa esa buta shoxlari orasida xirillagancha jon berardi...

## **MUNDARIJA**

Nashriyotdan .....	3
Mening noma'lum sohibjamolim. ( <i>Qissa</i> )	
<i>Zohir A'lam tarjimasi.</i> .....	5

## **HIKOYALAR**

Maftunkor parvoz jozibasi.	
<i>Umar Otaxonov tarjimasi.</i> .....	136
Na'matak butasi.	
<i>Umar Otaxonov tarjimasi.</i> .....	145

*Adabiy-badiiy nashr*

BOGOMIL RAYNOV

**MENING NOMA'LUM  
SOHIBJAMOLIM**

*Qissa va hikoyalar*

Tarjimonlar:  
**Z.A'LAM, U. OTAXONOV**

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo 'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
07.04.2020 bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.  
Ofset qog'ozи. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnomा № 75–20.  
Buyurtma raqami 358-20.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)





BOGOMIL RAYNOV

# MENING NOMA'LUM *Sohibjamolim*

Taniqli yozuvchi va shoir Bogomil Raynov 1919-yilda Bolgariyaning Sofiya shahrida tug'ilgan. Sofiyadagi universitetda tahsil olgan.

1941- yilda uning birinchi she'riy to'plami e'lon qilindi. Ikkinci jahon urushidan keyin Bogomil Raynovning qator qissa va hikoyalari to'plami nashr qilindi.

1963- yilda yozuvchining "Inspektor va tun" romani chop etildi. Shundan so'ng e'lon qilingan "Janob hech kim", "Yomon ob-havodan yaxshisi yo'q", "Haybatli Iztirob" romanlari yozuvchiga mashhurlik keltirgan.



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)



[fb.com/zizo.nashr](https://fb.com/zizo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6340-1-5

9 789943 634015